

MUNDARIJA

Ishning umumiy tavsifi	3
Kirish	9
 I BOB SO'Z VARIANTLARINING O'RGANILISH DARAJASI....	13
1.1. Tilshunoslikda so'z variantlari mavzusidayozilgan tadqiqotlar tahlili	13
1.2. So'z variantlariga yondosh hodisalarni farqlash mezonlari	21
1.3. So'z variantlarining morfologik tuzilishi	27
 II BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA SO'Z VARIANTLARI VA UNGA YONDOSH HODISALARNI O'QITISH	50
2.1. So'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'qitish jarayonida shaxs, o'qituvchi-o'quvchi, qurol-vosita, dastur-darslik va metod munosabatlari	50
2.2. So'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'qitishda lug'atlar bilan ishlash	61
2.3. So'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'qitishda interfaol o'yinlardan foydalanish	75
Xulosa	85
Variantlar so'zligi	87
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	103

Ishning umumiy tavsifi

Ishning dolzarbligi. So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida erishilgan yutuqlar ta'lim mazmuni va o'qitish usullariga tub o'zgarishlar kiritish zaruratini vujudga keltirdi. Bunday zaruriyat O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi mantiqidan kelib chiqadi. Bu qonun va dasturlar o'zbek tilining imkoniyatlarini, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida to'la ruyobga chiqarishga undaydi. Ana shu imkoniyatlarni tegishli darajada ko'rsatish va amalda mustahkamlash, ayniqsa, ona tili o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi ilg'or tajriba, fan yutuqlari bilan qurollangan bo'lishi kerak. Lekin so'nggi yillargacha, boshqa fanlar qatori, ona tilining o'qitilishiga etarli e'tibor berilmadi, puxta ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilmadi. Xususan, darsliklar mazmuni va ulardagi materialning berilish tarzi fan yutuqlaridan orqada qoldi. Shu bois o'rta hamda oliy maktab darsliklari mazmunida keskin farq va uzulishlar yuzaga keldi. Bu narsa o'rta maktab o'qituvchilari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ona tili darsliklari mazmunini takomillashtirish, fan yutuqlarini maktab hayotiga tatbiq etish shu kunning muhim vazifalaridandir. Shu jihatdan mazkur tatqiqot fan yutuqlaridan biri bo'lmish so'z variantlari masalalariga bag'ishlanadi.

Hozirgi kunda o'quvchilar savodxonligini oshirishga qaratilayotgan katta e'tiborni hisobga olgan, savodxonlik bilan bog'liq bo'lgan so'z variantlari mavzusining o'rganilishi va ona tili ta'limida so'z variantlariga yondosh hodisalarni o'rgatish jarayonida o'qitishning usullarini ishlab chiqish mazkur dissertasiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. So'z variantlari muammosi tilshunoslik fanida yangilik emas, albatta. Tilshunoslikda so'z variantlarining leksik-semantik hususiyatlariga oid ba'zi masalalar dastlab V.V Vinogradov,

A.I.Smirniskiy, O.S Axmanova, F.P Filin kabi mashhur olimlarning asarlaridan yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida dastlab bu sohaga oid bir necha maqolalar jumladan, Usmonova O', Boboeva A, R.Shukurovlarning maqolalari o'zbek tili va adabiyoti jurnalida elon qilingan. So'ng R.Shukurovning "So'zning morfologik variantlari", ¹ "So'z variantlarining leksik-semantik differensiasiyasi" ² nomli monografiyalari maydonga keldi. Monografiyada so'z variantlarining turlari, ularning yuzaga keltirgan lisoniy va nolisoniy omillari, so'zning o'zak va affiksali variantlari, variantlilikning qo'shma juft va takroriy so'zlar doirasida ham yuzaga kelishi, so'z variantlarining leksik-semantik differensiasiyasi atroflicha o'rganilgan. So'z variantlari masalasi savodxonlik bilan mustahkam bog'liq bo'lishiga qaramay, o'quv qo'llanmalarida bu haqida ma'lumotlar yo'q hisob. Faqat "O'zbek tili stilistikasi"ga oid bir asarda bu masalaga alohida e'tibor berilgan³.

Lingvistik adabiyotlarda so'z variantlari omonimlar bilan, paronimlar bilan chalkashtiriladi. Bu chalkashliklarning sababi bizningcha, so'z variantlari masalasining darslik va qo'llanmalarga kiritilmaganligi va R.Shukurov ta'kidlaganlaridek, "Leksikologiyada so'z variantlari problemasining o'rganilmagan juda ko'p aspektlar mavjudligi"⁴dir.

Biz ham mazkur ishimizda so'z variantiga aloqador masalalarga, aniqrog'i, so'z variantlarini unga yondosh hodisalarni o'rgatish jarayonida o'qitish masalalari yuzasidan tadqiqot olib bordik. O'zbek tilining leksik sistemasini o'rganishda so'z variantlarini tadqiq qilishishimizda so'z variantiga aloqador masalarga, aniqrog'i, so'z variantlarini unga yondosh hodisalarni o'rgatish jarayonida o'qitish masalari yuzasidan tadqiqot olib bordik.

O'zbek tilining leksik-semantikasini o'rganishda so'z variantlarini tadqiq qilish o'zbek tilining taraqqiyoti bilan bog'liq holda ko'p qonuniyatlarini ochish

¹ R.Shukurov "So'zning morfologik variantlari" T. Fan. 1990yil

² R.Shukurov "So'zning variantlarining leksik-semantik differensiasiyasi. T. Fan. 2006yil

³ Shomaqsudov A, Rasulov I, Qo'ng'urov R, Tusmatov H, O'zbek tili –stimistikasi. T. O'qituvchi

⁴ O'sha asar 1983 yil R. Shukurov 4-bet

imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi: Ona tili ta'limida "Leksikologiya" bo'limini o'rganish jarayonida o'quvchilarga mavzu yuzasidan puxta bilim berishning samarali usullarini aniqlash, so'z variantlarini unga yondosh hodisalarga bog'lab o'rgatish yuzasidan mashqlar tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: Ona tili mashg'ulotlarida so'z variantlarini o'rganish.

Tadqiqot predmeti: Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga so'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'rgatish jarayoni.

Muammoni nazariy jihatdan o'rganish, uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarga so'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'rgatish hamda tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi **ilmiy farazlar** ilgari surildi: agar so'z variantlari nazariy jihatdan to'liq o'rganilsa, darslik va qo'llanmalarda so'z variantlarini unga yondosh hodisalar bilan (omonimlar, paronimlar) chalkashtirishlarning oldi olinadi. So'z variantlari yuzasidan grammatik tushunchalar to'liq anglatilsa, chuqur va puxta bilim berish choralari ko'rilsa, o'quvchilarning savodxonligi oshiriladi; izlanish va fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradigan ta'lim mazmuni va metodlaridan foydalanilsa, bir so'z bilan aytganda mavjud imkoniyatlar to'la ishga solinsa, o'quvchilarning so'z variantlari va unga yondosh hodisalar yuzasidan talab darajasida bilim olishlariga hamda ijodiy matn yaratishda amaliy qo'llash malakalari ta'minlanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan tavsiflanadi: o'zbek tilshunosligining sunggi yutuqlari asosida metodik maqsadlarda so'z variantlarining nazariy talqini amalga oshirildi, o'zbek tili o'qitish metodikasida ilk bor umumiy ta'lim tizimida so'z variantlarini o'rgatishning usullari ishlab chiqildi, mavzu yuzasidan chuqur va puxta bilim berishning samarali usullari aniqlandi, so'z variantlari mavzusining o'zbek tilshunosligida o'rganilishi tahlil etildi, so'z variantlarini unga yondosh hodisalardan farqlash masalalari o'rganildi, ularni turli innovasion o'yinlar orqali ona tili ta'limiga olib kirish masalalari ishlab chiqildi.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib quyidagi **vazifalar** belgilandi:

1. O'zbek tilshunosligining so'nggi yutuqlariga asoslangan holda so'z variantlari mavzusini talqin qilish.
2. Ilmiy-nazariy adabiyotlarda so'z variantlari talqinining nazariyadagi holati, metodik adabiyotlarda masalaning qay darajada yoritilganligini o'rganish "Ona tili" dastur va darsliklarini tahlil qilish.
3. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirishda, mustaqil ishlash va fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan mavzu yuzasidan bilim olishlarini ta'minlaydigan samarali usullarini aniqlash.
4. Aniqlangan va ishlab chiqilgan metodik usullar, dars ishlanmalari va tavsiyalarni tajriba sharoitida sinab ko'rish, natijalarni tahlil etish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotini belgilovchi davlat hujjatlari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, o'zbek maktablarida ona tili ta'limining mazmunini yangilash, uni o'qitishning samaradorligini oshirish to'g'risidagi ilmiy-metodik asarlari tadqiqotimizning **metodologik asosini** tashkil etadi.

Lingvistik, didaktik va metodik adabiyotlar tahlili; ona tili darslarini kuzatish va tahlil qilish; ilg'or ish tajribalarini o'rganish tadqiqotimizning **metodlarini** tashkil etadi.

Ilmiy tajriba ishlari Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani maktablari va liseylarida o'tkazildi. Ular ikki bosqichda olib borildi:

Tadqiqotning **nazariy qidiruv bosqichi** (2010) da dissertasiya mavzusi bilan aloqador ilmiy metodik adabiyotlar o'rganildi; umumta'lim maktablarida so'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'qitish jarayoni kuzatildi va tahlil qilindi; ilmiy tadqiqot maqsadi, vazifalari, ilmiy-tekshirish metodlari belgilandi.

Ikkinchi tajriba bosqichi (2011) da ona tili mashg'ulotlarida "Leksikologiya" bo'limini o'qitish jarayonida mavzu yuzasidan bilim berishga, mustaqil ishlash va fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradigan ish usullari

aniqlandi, ishlab chiqilgan usullar yuzasidan ilmiy tajriba ishlari olib borildi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy ahamiyati quyidagilardan iborat: o'zbek maktablaridagi ona tili darslarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini oshiradigan usullar ishlab chiqildi. So'z variantlari yuzasidan o'zbek tilshunosligining so'nggi yutuqlariga asoslangan holda talqin etildi.

Dissertasiyaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, so'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'qitishda qo'llaniladigan innovasion o'yinlar ishlab chiqildi. Mazkur o'yinlar orqali tashkil qilingan darslarda o'quvchilarning mustaqil ishlashi va ijodiy fikrlashlariga imkoniyat yaratildi. Tavsiya etilgan usullardan umumta'lim maktabi ona tili o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Himoyaga quyidagi masalalar qo'yiladi:

1. O'zbek tilshunosligining so'nggi yutuqlariga asoslangan holda so'z variantlariga doir qarashlarning talqini.
2. Ilmiy-nazariy adabiyotlarda so'z variantlarining kommunikativ aspektidagi talqinining nazariyadagi holati metodik adabiyotlarda masalaning qay darajada yoritilganligini nazarda tutgan holda "Ona tili" dastur va darsliklarining tahlili, shu asosda ta'lim mazmuniga doir ishlab chiqilgan tavsiyalar.
3. So'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'rgatishda lug'atlarning ahamiyati.
4. So'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'rgatish yuzasidan aniqlangan innovasion o'yinlar va ularning o'quvchilarning mustaqil ishlash va ijodiy fikrlashga yo'naltirilganligi.

Tadqiqot natijalarini sinovdan o'tkazish va ommalashtirish.

Tadqiqotning bosqichlaridan olingan natijalar maktab ona tili o'qitish metod birlashmalari yig'ilishida muhokama qilindi. Muqumiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika institutining an'anaviy ilmiy-amaliy konferensiyasida (2010 yil) mavzu yuzasidan ma'ruza qilindi. Mazkur ma'ruza "So'z variantlari va imlo masalalari" mavzusida "Oliy ta'lim muammolari" to'plamida (T.2010 yil), "So'z

variantlari va unga yondosh til hodisalarini farqlashga doir” “Ta’lim va texnologiya” to’plamlarida (T. 2011 yil) e’lon qilish orqali ommalashtirildi.

Dissertasiyaning tuzilishi. Dissertasiya kirish, 2 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida "Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi",-deyilgan ⁵ . O'quvchining bilim saviyasiga qo'yiladigan talab esa, ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy talab bilan belgilanadi. Shunday ekan, davlat ta'lim standartlari, shu jumladan, ona tili davlat ta'lim standartlari ham ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda belgilab berildi. Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda, ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi.

Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, ona tili ta'limining mazmuni:

- o'quvchining fikrlash faoliyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish;
- o'quvchilarni o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishini ta'minlash vazifalarini hal etishga yo'naltiriladi.

"Davlat tili haqida"gi qonun milliy ma'naviyat va qadriyatlarimizning ulkan xazinasini bo'lmish ona tilimizning nufuzini baland ko'tarishda juda katta ahamiyatga ega. Qonun asosida ona tili ta'limining dolzarb muammolari keng o'rganilmoqda va muhokama qilinmoqda, ilmiy tadqiqot natijalari hayotga tatbiq etilmoqda. Bularning natijasi o'laroq uzluksiz ta'lim tizimida ona tilini o'qitish takomillashmoqda, dars samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalar va innovasion metodlardan foydalanilmoqda.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Ta'lim to'g'risida" Toshkent, 1997-yil.

O'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda ona tili ta'limi texnologiyasi (maqsadi, usuli, vositalari, o'quv materiali va hakoza.) davlat ta'lim standarti talabi bo'yicha maktabda qo'llaniladigan fanlar silsilasida alohida mavqe va ahamiyatga molikdir. Chunki til nafaqat tafakkur ko'zgusi, balki uni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, oziqlantiruvchi muhim vositadir. Tilning jumladan, ona tilining, inson tafakkuri, dunyo-borliqni qabul qilishi, xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanish va rivojlanishdagi o'rni beqiyos. Shuning uchun maktabda ona tili ta'limi oldida alohida o'quvchilarda umumiy ijodiy tafakkurini shakllantirish vazifasi turadi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning faolligini oshirishga, fikrlash orqali o'zlashtirishlarini ta'minlashga e'tibor berish lozim, darsda o'quvchini to'g'ri talaffuzga, tildagi so'zlarning ma'nolarini to'g'ri anglashga, og'zaki va yozma nutqlarini savodli bo'lishiga, matndan to'g'ri nusxa ko'chirib, matndan eshitib va yoddan yozishga o'rgatish, vatanimizning istiqloldan keyingi taraqqiyoti, o'tmishi, milliy urf-odatlarini, tarixiy siymolari haqida bilim berish, umuman tabiat va borliq haqidagi mavjud bilimlarni yanada boyitish maqsad qilib olinmog'i lozim. Bularni amalga oshirishda ona tili ta'limining turli xil ish turlarini ta'lim jarayoniga olib kirish kerak. Ular o'quvchilarni o'ylashga, izlanishga, xulosalar chiqarishga undaydi, ona tili faniga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Avvalo o'quvchi o'rganayotgan har bir tushuncha o'zida ma'lum bir mazmunni aks ettiradi. Ana shu mazmunni o'quvchiga etib boradigan tarzda sodda, aniq qilib tushuntirish biz bo'lajak o'qituvchilardan talab etiladi. SHu jumladan, so'zlar, ularda aks etgan ma'nolarni har bir nomalum tomonini o'quvchilarga darslar davomida tushuntirib borish, shu orqali ularning dunyoqarashi, tafakkurlarini kengayib borishni ta'minlash zarur. Bularni amalga oshirish uchun esa, noan'anaviy dars metodlarini qo'llagan holda, darslarni innavasion usulda olib borish lozim.

Davlat pedagogik amaliyot davrida ona tili darslarida leksikologiya bo'limini o'quvchilarga o'rgatish, shu orqali ularning nutqlarini boyitishga, ijodiy

fikrlash qobiliyatlarini o'zlashtirishga, tafakkurlarini kengaytirishga harakat qildim. Ushbu mavzularni o'quvchilarga o'rgatishda darslarda yangi pedagogik texnologiya usullarini qo'llab, interfaol dars metodlaridan foydalandim. Bu esa, darslarni yanada samarali bo'lishiga, o'quvchilar diqqatini jalb eta olishga, qiziqishlariga katta ta'sir qildi.

So'z semantik jihatdan predmet, hodisa, harakat, ish, belgi va shu kabilarning nomini bildiradigan, grammatik jihatdan shakllangan, bir tilda so'zlovchi kishilar jamoasi uchun bir xilda tushuniladigan nutq birligidir⁶. So'zning semantikasi narsalar, hodisalar, harakatlar bilan bog'langan bo'lsa ham, shu bog'lanishi bevosita bo'lmay, balki mehnat jarayonida, hayotiy tajribalar natijasida borliqning kishi ongida aks etishi natijasida vujudga keladi.

Tilda so'zlar xilma-xil xususiyatlarga ega bo'ladi. Ma'lum bir tushuncha yo tasavvurni bir so'z emas, balki bir necha so'z ham ifodalab kelishi mumkin. Aksincha, birgina so'z orqali bir necha tushuncha yo tasavvur ifodalanib, bir necha ma'no anglashiladi. Ba'zi so'zlarning ma'nolari bir-biriga zid bo'lib, qarama-qarshi tushunchalarni yoki tasavvurlarni ifodalab keladi. Mana shunday ma'no va shakl munosabatlariga ko'ra so'zlar, quyidagicha beriladi: omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paronimlar.

Omonimlar. Omonim so'zi yunoncha bo'lib, homos-bir xil, oputanom, bir xil nom, bir xil so'z demaktir. A. Nurmanovlar tomonidan yaratilgan darslikda esa omonimlarga shunday ta'rif beriladi: aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atama ma'nolarini bildirgan so'zlar shakldosh so'zlar deyiladi.

Sinonimlar. Ma'nosi bir xil, talaffuzi va yozilishi hamda qo'shimcha ma'nolari har-xil bo'lgan so'zlarga sinonimlar deyiladi. Amaldagi 5-sinf uchun ona tili darsligida "bir umumiy ma'noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so'zlarga ma'nodosh so'zlar deyiladi" deb berilgan.

Antonimlar. Antonim so'zi ham yunoncha bo'lib anti-zid va onuma-nom, ya'ni zid nomlar, so'zlar demaktir. Antonimlar bir-biriga zid, qarama-qarshi

⁶ O'zbekiston Respublikasi FA AS Pushkin nomidagi til va adabiyot institutda o'zbek tili leksikalogiyasi. T, "Fan" nashriyoti, 1981

bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi.

Faqat bir tovush bilan farqlanuvchi, lekin bir xil talaffuz qilinadigan so'zlarga paronimlar deyiladi.

Ishimizning asosiy mavzusi so'z variantlari masalasiga kelsak, mazkur mavzu umumta'lim maktab dasturi va darsliklariga kiritilmagan. Mavzu yuzasidan ishning asosiy qismida to'liqroq to'xtaldik.

I BOB. SO'Z VARIANTLARINING O'RGANILISH DARAJASI

1.1. Tilshunoslikda so'z variantlari mavzusida yozilgan tadqiqotlar tahlili.

Tilshunoslikning taraqqiyoti va rivoji, tillarning bir-biri bilan o'zaro aloqasi va aralashuvi, tilning fonologik darajasini o'rganishga qiziqish tufayli, so'z variantlari masalasi paydo bo'ldi. Til sistemasidagi so'zlar ma'no, shakl va boshqa jihatlari bo'yicha bir-biri bilan doimiy munosabatda bo'ladi. Bir tushunchaning birdan ortiq belgi bilan ifodalanishi yoki bir belgining birdan ortiq tushunchalarga nom bo'lishi har qanday til uchun umumiydir.

So'zlarning ma'nosiga va boshqa xususiyatlariga ko'ra munosabati asosidagi bir qator guruhlashtirishlar mavjud, ya'ni, sinonim, omonim, antonim, paronim, giponim-giperonim kabi. Shunday munosabatdosh so'zlar borki, ular tilshunoslikda so'z variantlari sifatida o'rganiladi.

Tilshunoslikda so'z variantlariga oid ba'zi masalalar dastlab I.A.Smirniskiy, O.S.Axmanova, F.P.Filin kabi mashhur tilshunoslarning asarlarida umumiy planda yoritilgan.⁷

Keyinchalik bu borada yirik asarlar yaratildi.⁸ Turkologiyada ham so'z variantlariga bag'ishlangan jiddiy tadqiqotlar yuzaga keldi.⁹

Oltmishinchi yillarda o'zbek tilshunosligida bu sohaga oid birnecha maqolalar e'lon qilindi. Saksoninchi yillardan boshlab so'z variantlari mavzusida jiddiy tadqiqotlar olib borildi¹⁰ va nihoyat 2006 yilda «So'z variantlarining leksin-

⁷ Smimiskiy A. N. k voprosu o slove. Trudy instituta yazykovaniya An SSSR, 1954, tom 4; Axmanova O. S. Ocherki po obshey i russkoy leksikologii. M., 1957. s. 192-233; Filin F. P. O slove i variantax slova. Morfologicheskaya struktura slova v yazykax razlichnykh tipov: M., 1963, s. 130.

⁸ Rogojnikova R. P. Varianty slov v russkom yazyke. M., 1966; Gorbachevich K. S. Variativnosty slova i yazykovaya norma. L., 1978; Graudina L. K. Voprosy normalizatsii russkogo yazyka. Grammatika i varianty. M., Izd-vo. «Nauka», 1980.

⁹ Bizakov S. V. Foneticheskie varianty slov v sovremennom kazaxskom yazyke. AkD. Alma-Ata. 1972; Urazbaeva E. G. Variativnosty slova v sovremennom bashkirskom literatumom yazyke. AKD. Ufa. 1980.

¹⁰ Usmonova O'. Dubletlar haqida ba'zi mulohazalar «O'zbek tili va adabiyoti. 1968. 1-son; Boboeva A. Gazeta tilida «zimmaga olmoq» iborasining variantlari». «O'zbek tili va adabiyoti. 1978. 2-son; Boboeva A. Hozirgi o'zbek adabiy tilida variantdorlik. O'zbek tili va adabiyoti. 1979, 6-son; Shukurov R. So'z variantlari haqida. O'zbek tili va adabiyoti. 1982, 6-son; Shukurov R. Terminologiyada dubletlar, sinonimiya va variantlilik. O'zbek tili va adabiyoti. 1987, 2-son; Shukurov R. Til rivojida shva variantlarining ahamiyati. So'mlom avlod uchun. T., 2004. № 11; Shukurov R. So'z variantlarining differensiasiyalashuvi. Xalq ta'limi. T., 2005. № 2; Shukurov R. So'zning affiks-

semantik differensiasiyasi» mavzusida monografiya yaratildi.¹¹

Ma'lumki, tilda semantik jihatdan bir xil, ammo fonetik va morfologik jihatdan ikki va undan ortiq ko'rinishga ega bo'lgan so'zlar ko'p uchraydi. Bunday so'zlarni tilshunoslikda so'z variantlari deb ataladi. Masalan, «O'zbek tilining imlo lug'ati»da¹² *adab* va *odob*, *arava* va *aroba*, *asta* — *ohista*, *barobar* — *baravar*, *kabutar* — *kaptar*, *bejamoq* — *bezamoq*, *masjid* — *machit*, *taqillamoq* — *taqirlamoq*, *chaynayvermoq* va *chaynay bermiq*, *chaqildoq* — *chaqilloq*, *chashmaday* — *chashmadek*, *shohi* — *shoyi*, *shohanshoh* — *shahanshoh*, *shohsupa* — *shosupa*, *sho'ng'imoq* — *shumg'imok*, *emikdosh* — *emukdosh*, *yugan* — *jugan*, *yuqalik* — *yupqalik*, *o'tirish*—*o'tirish*, *qabariq*—*qavariq*, *qabat*—*qavat*, *hiylagar* — *hiylakor*, *ho'l-quruq*— *ho'lu quruq* kabi yuzlab so'z variantlarini uchratish mumkin.

Badiiy adabiyotda so'zlarning yanada xilma-xil variantlarini uchratamiz. Chunonchi, *kuyovnavkar* so'zi turli asarlarda *kuyovnavkar* *kuyovnikor*, *kuyovnukor*, *kuyovnukar* kabi 5-6 xil formada qo'llangan. Masalan: — *Ertasiga oltmshi uch yasharli kuyov to'ra o'zi tengli kuyovnavkarlar bilan* etib keldi (M. Ismoilij). (Burgut) *Kuyovnovkarda ham Nu'monjonning yonida o'tirib rosa qiziqchilik qilib, odamlarli kuldirdi.— dedi chol* (S. Ahmad). *Marg'ilonda kechqurun yana qirq-ellik katta-kichik kishi kuyovnikor bo'lib, kuyovni o'rtaiga olib karnay-surnaylar bilan qo'udanikiga bordik* (M. Muhammadjonov). *Ellikboshining ishtahasi karnay, u o'zini kuyovnukarga kelgan sho'x yigitlarday his qilar, obinavvot bilan nuqul ko'k choygina ichardi* (Sh. Toshmatov). *Hamma kuyovno'kardagiday o'lan aytib, Mahkam akani o'z uyiga kuzatib qo'ydi* (I. Rahim).

Mustaqil so'z va so'z variantlari, so'z variantlarining tuzilishi va tildagi vazifalarni farqlashda har xillik uchraydi.

O'zbek tilida so'z variantlari va variantdorlik masalasi bilan jiddiy

variantlari. Pedagogik ta'lim. T., 2005. № 2; Shukurov R. So'zning o'zak variantlari. Ilmiy-pedagogik izlanishlar. T., 2007. Shukurov R. So'z yasashida so'z variantlarining o'rni. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlarda ta'lim-tarbiya: muammo va echimlar. T., 2009.

¹¹ Shukurov R. So'z variantlarining leksik-semantik differensiasiyasi, T., «Fan». 2006 y.

¹² O'zbek tilining imlo lug'ati. T., «Fan». 1976 y.

shug'ullangan tilshunos olim A. Boboeva variantdorlik terminiga quyidagicha ta'rif beradi: «...mazmun va mohiyati jihatidan aynan bir xil va bir-biriga yaqin ma'nodagi nutqiy vositalarning ikki va undan ortiq shaklda ifodalanishidir».¹³ Bu ta'rifga taqqoslaganda, ikki va undan ortiq shaklda ifodalangan, ammo bir xil yoki bir-biriga yaqin ma'nodagi so'zlar (nutqiy vositalar) so'z variantlari bo'ladi. Bu esa sinonimlar ta'rifiga juda o'xshab ketadi. Chindan ham *quyosh — kun — oqtoq, odam — inson — bashar* kabi sinonimlarni «ikki va undan ortiq shaklda ifodalangan, ammo ma'nosi bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar» deb aytish mumkin.

Atrofiga g'isht yotqizib, yo'lka qilingan tep-tekis, chor burchak hovli quyoshda qizib jimgina uxlaydi (Oybek). Kunning qizitib, yondirib turganiga qara may (Hasan so'fi bilan Alim buva) qo'ishloqqa qaytishdi (M. Ismoilov). Shu payt oqtoq yana bulut ostiga yurdi-yu, palatani shom qorunuvuligi bosdi (A. Qahhor). Bular bu erga o'tirgani kelgani yo'q, bir odamni qidirib kelishgan (A. Qahhor). U tabiat go'zalligi takomili, inson latofatining ayni mujassami edi (S. Anorboev).

Bu misollar o'zbek tilida so'z variantlarining unga o'xshash, yondosh til hodisalaridan farqlari hali etarli darajada yoritilmaganini ko'rsatadi. Shuning uchun ham *ensiklopediya — qomus, universitet — dorilfunun, sekretar — kotib, xirurg — jarroh* kabi til birliklarini ayrim olimlar dublet emas, stilistik sinonim deb atasalar¹⁴, boshqalar xuddi shu tipdagi *piramida — ehrom, eksperiment — tajriba* kabi birliklarni dubletlar deb ataydilar va dubletlar variantdorlikning bir ko'rinishidir, degan fikrni bayon qiladilar.¹⁵ Bu fakt ham so'z variantlari — dubletlar — sinonimlar kabi terminlar, binobarin, bunday terminlar orqali ifodalanadigan tushunchalar orasida muayyan bir chegara yo'qligini, ularning farqlari aniq belgilanmaganini ko'rsatadi.

A. L. Voronovning ma'lumotiga qaraganda, bunday masalalar chunonchi, so'z variantlarining mustaqil so'zlardan chegaralari (farqlari), so'z variantlarining

¹³ «O'zbek tili va adabiyoti», 1970, 1-son, 29-bet.

¹⁴ «O'zbek tili va adabiyoti», 1970, 1-son, 29-bet.

¹⁵ «O'zbek tili va adabiyoti», 1979, 6-son, 60-bet.

tildagi o'rni va roli, istiqboli (yo'qola boradimi yoki doim yuz berib turadigan hodisa ekanligi) yuzasidan, umuman tilshunoslikda turlicha, ko'pincha, bir-biriga zid fikrlar bayon etilgan.¹⁶

Fikrimizcha, so'z variantlarini dubletlardan va, ayniqsa, sinonimlardan qat'iy chegaralash lozim. Shu kungacha ba'zi ishlarda sinonimlar qatoriga kiritib kelingan *adab* — *odob*, *baravar* — *barabar* kabi so'zlar aslida sinonim emas, balki so'z variantlaridir. To'g'ri, «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati»ga *odobli (adabli)*, *baravar (barobar)* kabi so'zlar kiritilgan. Ammo avtor bunday so'zlarni sinonim emas, balki so'z varianti ekanligini ko'rsatish uchun qavs ichiga olgan¹⁷,

Kuzatish ko'rsatadiki, bir so'zning yoki kelib chiqishi jihatidan bir xil bo'lgan so'zning shu tilda uchraydigan birdan ortiq shakllari so'z variantlari bo'ladi: *adab—odob*, *baravar—barobar*, *taqillatish—taqirlatish*, *undayverish — undayberish*, *qavariq — qabariq*, *qanddek—qandday—qanddek* kabi.

So'z variantlari asosan shu tilga xos leksik birliklar doirasida bo'ladi. Ular ma'no jihatdan bir-birlaridan farq qilmaydilar. Ana shu xususiyatlari bilan so'z variantlari sinonimlardan ham, dubletlardan ham farq qiladi.

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, so'z variantlari tuzilish jihatdan bir xil emas. O.S.Axmanova so'z variantlarini quyidagicha gruppaga bo'lib o'rganadi:

1) so'zning leksik-semantik variantlari;

2) leksik-frazeologik va leksik-semantik so'z variantlari;

3) fonetik va morfologik so'z variantlari.¹⁸ A. L. Voronov fonetik, aksentologik (urg'uning erkin ravishda turli tovushlarga tushishi) va morfologik variantlar borligini qayd qiladi.¹⁹

A. Boboeva yuqoridagi maqolasida o'zbek tilida variantdorlik haqida gapirib, uni fonetik variantlar, morfologik variantlar, sintaktik variantlar, sinonimlarning bir qismi, dubletlar deb besh gruppaga bo'ladi. Rus tilidagi so'z

¹⁶ Voronov A. L. Tipologiya varirovaniya slova... Gor'kiy, 1976, s. 111

¹⁷ Hojiev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati, T., 1974.

¹⁸ Axmanova O. S. Ocherki po obshey i russkoy leksikologii. M., 1957, s-5.

¹⁹ Voronov A. L. Ko'rsatilgan maqola. 114-115-betlar.

variantlarini chuqur analiz qilgan R. P. Rogojnikova esa soʻz variantlarini fonetik va morfologik variantlarga boʻladi. U fonetik variant deganda, soʻzning tovush tomondan oʻzgarishini tushunish kerak, deb aytadi. Olimaning fikricha, fonetik variantlar soʻzning turli qismlarida yuz berishi mumkin, ammo har qanday holatda xam soʻzning leksik maʼnosi oʻzgarmaydi.²⁰ Morfologik variantlar soʻzning grammatik maʼno tashuvchi qismlarida sodir boʻlgan oʻzgarishlar tufayli yuz beradi, boshqacha qilib aytganda, bunda fonetik farqlar soʻz oʻzgartiruvchi affikslarda sodir boʻladi. R. P. Rogojnikova bunday qismlardan, birinchi navbatda, ruscha soʻzlardagi okonchanieni va leksik maʼnoni ifodalaydigan, grammatik maʼno bildiradigan suffikslarni koʻzda tutadi.

Turkiy tillarning grammatik qurilishi va uning oʻziga xos xususiyatlari morfologik variant deganda, faqat soʻz oʻzgartiruvchi (yoki leksik maʼno bildirmaydigan) affikslardagi xilma-xillikni emas balki, umuman, har qanday affikslarda, jumladan, soʻz yasovchi affikslarning tovush sostavidagi farqni ham koʻzda tutish lozimligini koʻrsatadi. Oʻ. Usmonova ham xuddi ana shu xususiyatlardan kelib chiqib ish koʻrgan. U «soʻz variantlari» maʼnosida «dubletlar» terminini qoʻllab, ularni fonetik va morfologik dubletlarga boʻladi: morfologik dubletlarda faqat soʻz oʻzgartiruvchilar emas, balki har qanday affikslarda, forma va soʻz yasovchilarda yuz beradigan oʻzgarishlarni ham koʻzda tutadi va bunga quyidagicha (koʻpincha, noaniq) misollar beradi: *biluv* — *bilish*, *yotoq* — *yotagʻon*, *badxulq* — *xulqsiz*, *bergizmoq*. — *berdirmoq*,²¹ kabi.

Biz ham asosan ana shu prinsipdamiz. Lekin bir soʻzning bunday shakllarini oʻz nomi bilan fonetik variantlar va morfologik variantlar deb atash lozim, deb bilamiz.

Fikrimizcha, fonetik variantlar morfologik variantlar oʻrnida soʻzning oʻzak variantlari va affiks variantlar deb yuritish aniqroq boʻlur edi. Chunki, bir soʻzning oʻzaklari ham, affikslari ham asosan tarkibidagi tovushlarning turlicha boʻlishi bilan farq qiladi.

²⁰ Rogojnikova R. P. Oʻsha asar 15-65-betlar.

²¹ Usmonova Oʻ. «Oʻzbek tili va adabiyoti», 1968, 1-son, 39-bet.

Bir soʻzning oʻzagidagi tovushlarda boʻladigan oʻzgarishga koʻra yuzaga kelgan turli shakllar soʻzning oʻzak variantlarini yuzaga keltiradi: *adab* — *odob*, *qabariq* — *qavariq*. kabi.

Bir soʻzning bir funksiyadagi qoʻshimchalari shaklan farq qilsa, soʻzning affiksial variantlari hosil boʻladi: *jinday-jindak- jindek*, *taqilla* - *taqirla* kabi.

Soʻzning oʻzak va affiksial variantlari koʻpincha sheva xususiyatlariga boʻliqlik holda yuz berishi mumkin: *ona* — *ena*, *dada* — *doda*, *kelyapti* — *kelvotti* — *kelutti*, *chimmat*—*choshband* — *chochvon* kabi. Buni soʻzning dialektal variantlari deb aytish ham mumkin. Biroq bu mustaqil (alohida) tur (koʻrinish) emas, balki soʻzning oʻzak va affiksial variantlarining adabiy tilga nisbatan atamasi (nomlanishi) dir. Soʻzlarning koʻp variantlari amalda (nutqda) mavjud boʻlsa ham, ular yozma adabiyotda uchramasligi mumkin. Masalan, *kuyovnavkar* soʻzining faqat 5 shakliga yozma adabiyotlarda misollar uchragan boʻlsa, jonli tilda ulardan tashqari *kuyovnakar*, *kiyovnovkar*, *kiyovnakar*, *kiyovnoʻkar*, *kiyovnavkar*, *kiyovnukar* kabi shakllari ham uchraydi. Imlo lugʻatlarida qayd qilingan soʻz variantlarini jonli tilda uchraydigan soʻz variantlaridan farqlab, orfografik variant deb aytish mumkin. Xullas, adabiy til normasiga mos keladigan, imlo lugʻatiga kiritish mumkin boʻlgan soʻz variantlarigina orfografik variant boʻladi. Orfografik variantlar ham mustaqil variant boʻlmay, balki oʻzak yoki affiksial variantlarning imlo lugʻatiga kirishi mumkin boʻlgan, adabiy til normasiga mos keladigan shaklidir.

Baʼzi tilshunoslar aynan bir maʼnoda ishlatiladigan, ammo boshqa-boshqa oʻzaklardan tashkil topgan *jarima*—*solliq*, *alam*—*sitam*, *afsungar* — *jodugar* kabi absolyut sinonimlarni ham orfografik variant (yoki *dublet*) deb biladilarki, bunga qoʻshilib boʻlmaydi.²²

Soʻz variantlariga oid asosiy masalalardan biri ulardan bir yoki ikkitasini adabiy til normasi sifatida tanlashdir. Ayrim tadqiqotchilar, bir soʻzning ikkidan

²² Oʻsha erda, 39 bet

ortiq (ba'zan o'nlab) variantlari mavjudligi normal bir hol bo'lmagani uchun, ulardan birini tanlash lozimligini aytadilar, lekin bunda, ko'pincha, o'z didlariga asoslanadilar. Masalan, U. Usmonova *kabutar* so'zini adabiy tilda qoldirib, *kaptar* shaklini chiqarib tashlash kerak deydi.²³

Fikrimizcha, ko'p variantlardan birini tanlab olishda muayyan prinsiplarga, tilda bor faktlarga, masalan, qaysi variantlarning ko'p qo'llanishiga, shu tilda o'xshash so'zlarning bor-yo'qligiga amal qilish zarur. *Jindak, jinday, jindek* variantlaridan *jinday* shakli ko'p ishlatiladi, qolgan variantlari esa oz qo'llanadi. So'z variantlarini tanlashda buni hisobga olish kerak. Bu jihatdan qaralsa, *kabutar* so'ziga qaraganda, *kaptar* so'zi adabiy tilda qolishi lozim bo'ladi. Chunki, birinchidan, u ko'p qo'llanadi (kartoteka fondida) *kaptar* so'ziga 7 ta, *kabutar* so'ziga 3 ta misol bor.

Ikkinchidan, o'zbek tilida *kaptar* qolipidagi so'zlar ko'p: *daftar, nashtar, astar, Sarvar* kabi. Lekin *kabutar* modelidagi so'z deyarli uchramaydi. Shunga qaramasdan, *kabutar* so'zini adabiy tildan chiqarib tashlash o'rinli bo'lmaydi, chunki bu so'z, birinchidan, ko'pdan beri ishlatiladi, ikkinchidan, muayyan stilistik funksiyani bajaradi.

Qadimda *kabutar* so'zi adabiy tilda mavjud edi. Hozir adabiy tilda *kaptar* so'zi norma bo'lib qoldi. Chunki adabiy til xalq tili bilan yaqinlashdi. *Kabutar* so'zi esa kitobiy usulga xosdir.

Shuningdek, *kuyovnavkar* tanlab olinishi kerak. Bu to'g'ri, chunki eski adabiy tilda ham, tojik tilida ham *navkar* so'zi mashhur.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»²⁴ da ham *aroba* ayn. *arava*, *aso* ayn. *hassa*, *baadab* ayn. *boadab*, *barobar* ayn. *baravar*. *beboshbog'* ayn. *beboshvoq*, *kabutar* ayn. *kaptar*, *machit* ayn. *masjid* kabi so'z variantlari berilgan. Ammo imlo lug'atida berilgan *ammabachcha* va *ammavachcha*, *baayni* va *baaynih*, *bekik* va *berkik*, *berkilmoq* va *bekilmoq* kabi so'z variantlarining ko'pchiligi izohli lug'atda bir so'z bilan, ya'ni *ammavachcha*, *baayni*, *bekik*, *bekilmoq* kabi berilgan. Bu

²³ O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-tom. M., 1981.

²⁴ O'sha erda, 39 bet

soʻzlar normal holat sanalib, ularning boshqa soʻz variantlari berilmagan va toʻgʻri ish qilingan.

Xulosa qilib aytganda, soʻz variantlari mazkur tilning oʻzak eʼtibori bir xil boʻlgan birliklari asosida yuzaga kelib, leksik maʼno jihatdan bir-biridan farq qilmaydi. Soʻzning shakli oʻzgarganda, maʼnosi ham oʻzgarsa, soʻz varianti boʻla olmaydi. Bunda yangi soʻz yasaladi. Demak, ayrim soʻz variantlari mustaqil soʻzga aylanib ketishi mumkin; *art* — *arch*, *ahl* — *ahil*, *tub* — *tup* (bir tup gʻoʻza), *boʻgʻin* (avlod)—*boʻgʻim* (boʻgʻilgan — boʻlingan joy) kabi. Shuning uchun ham soʻz variantlari va yangi soʻz yasaliishidagi chegarani aniqlamoq, shuningdek, oʻzak variantlarni va affiksali variantlarni kengroq, mufassal oʻrganmoq lozim.

1.2. So'z variantlarini yondosh hodisalardan farqlash mezonlari

Mashhur terminshunos olim D. S. Lotte terminologiyada ko'p ma'nolilik va sinonimiya zararli ekanini ko'pgina misollar bilan ko'rsatib, imkon boricha, ularga yo'l qo'ymaslik lozimligini uqtiradi.²⁵ Shunga qaramasdan terminologiyada unisi ham, bunisi ham uchrab turadi. Masalan, terminologiyani tartibga solishda etakchi rol o'ynashi lozim bo'lgan tilshunoslikning o'zida *aktualizasiya, korrelyasiya, leksika, semantika, udvoenie, aktivnyy, vnesnny* kabi terminlar uch, hatto to'rt ma'noda qo'llanadi. Unda *abbreviatura - slojnosokrynoe slovo, deetimologizasiya-oprotenie, fonemika- fonemologiya, skazuemoe- predikat, affiks- affiksalyaya morfema-formalynaya morfema-formant, povtor-povtorennnye- udvoenie- reduplikasiya* kabi sinonim terminlar mavjud bo'lib, ularning har biri bir necha ma'noda ishlatiladi.²⁶

Bundan tashqari, tilshunoslikda «sinonim» va «dublet» terminlarining bir xil ma'noda ishlatilish hollari uchraydi.²⁷ Bundan bu ikki termin bir xil ma'noni anglatadi, degan tushuncha kelib chiqmasligi lozim. Professor A. Hojiev absolyut sinonimlarga dublet bo'la olishini ta'kidlaydi.²⁸ Rus tilshunosi E. N. Tolikina esa dubletlar asosan nutqda qo'llanishi (ishlatilishi) jihatidan sinonimdan farq qilishini, dubletlar o'zaro bir-birining ma'nosini aniqlash, izohlash, tushuntirish uchun ishlatilishi yoki tekstda navbatlanib qo'llanishini²⁹ ham aytib o'tadi.

Kuzatish sinonim va dubletlar o'rtasida yana quyidagicha farqlar borligini ko'rsatadi:

1) sinonim umumadabiy tilda uzoq vaqtdan beri yashayotgan, keng tarqalgan, ko'pchilikka ma'lum (tushunarli), mustahkam o'rnatilgan bo'ladi: *odam-kishi-inson, kun-quyosh-oftob, baxt-iqbol-tole-saodat, buyruq-amr-farmon* kabi. Dubletlar esa adabiy tilda kam uchraydi, ko'pincha, biror soha terminologiyasida, asosan, uning shakllanish, rivojlanish davrida, ayniqsa, biror

²⁵ Lotte D. S. Основы построения научно-технической терминологии. М., 1961. 18-21.

²⁶ Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. М., 1966.

²⁷ Usmonov O., Hamidov SH. O'zbek tili leksikasi tarixidan materiallar. 1981, 4-bet.

²⁸ Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. T., 1985, 64-bet.

²⁹ Tolikina E. N. Синонимы и дублеты? – В. Кн. Исследования по русской терминологии. М., 1971., с. 88-89.

tildagi terminologik tushunchani boshqa tilda ifodalash, tarjima qilish, tushuntirish bilan boʻqliq holda yuzaga keladi, tor doirada qoʻllanadi, koʻpchilikka notanish boʻladi: *abutilon-gʻoʻzor-dagʻal kanop*, *avtogamiya-oʻz-oʻzini changlash*, *avtonom tinim-uzoq vaqtli tinim (uyqu)*.³⁰ kabi;

2) sinonimiya soʻzga xos boʻlib, ular tub, yasama, ozroq qoʻshma soʻzlardan tuziladi: *koʻkrak-koʻks-siyana-bagʻir*, *nomusli-xayoli-iboli-andishali*, *bemalol – bamaylixotir-bahuzur*, *quvnoq-xushchaqchaq*, *dastlab-dastavval-avvalboshi* kabi.

Dubletlar esa asosan soʻzlardan hamda soʻz birikmalaridan tuzilishi mumkin;

3) sinonimlar stilistik va emosionallik boʻyoqlariga ega boʻlib, soʻzlovchining sharoitga, zamonga, kishi va narsalarga nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatlarini aniqroq ifodalash uchun imkon beradi. Masalan, *yuz*, *bet* stilistik boʻyogʻi boʻlmagan neytral soʻzlar boʻlib ularning sinonimlaridan *jamol*, *oraz*, *chehra*, *ruxsor* soʻzlari kitobiy yoki badiiy stilga xos, shu bilan birga ijobiy munosabat (baho)ni ifodalaydi; *aft*, *bashara*, *turq* soʻzlari esa oddiy soʻzlashuv tiliga xos boʻlib, salbiy munosabatni bildiradi. Sinonimlar fikrni kishi ruhiga zamon va sharoitga mos holda turlicha ifodalashga imkon beradigan til boyligidir. Dubletlar, asosan, terminologiyaga, binobarin, ilmiy stilga xos boʻlib, kishi va narsalarga nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatni ifodalay olmaydi, faqat neytral munosabatni bildiradi;

4) koʻpgina sohalarning terminologiyasida dubletlar sinonimlaridan faqat sifat jihatdan emas, balki son (miqdor) jihatdan ham farq qiladi. Masalan, «Botanikadan ruscha-oʻzbekcha ensiklopedik lugʻat» dagi oʻzbekcha-ruscha lotincha soʻzlikning A harfi boʻlimida 351 ta termin boʻlib, ulardan faqat 10 tasini sinonimik qator deb hisoblash mumkin: *ajdargul-itogʻiz*, *ajralish-boʻlinish*, *ajriqbosh-oqsoʻxta-otquloq*, *aktiv- harakatchan*, *alleya- xiyobon*, *aloe-saburoʻt*, *angishvonagul-oʻymoqgul*, *antogonizm-ziddiyat*, *apelʻsin-poʻrtaxol*, *astra-qashqargul* kabi.

³⁰ Zokirov Q. Z. Jamolxonov H. A. Botanikadan ruscha-oʻzbekcha ensiklopedik lugʻat. T., 1973, 201-bet.

Bu bo'limda garchi bir tushuncha (yoki narsa) ning ikki doimiy nomi sifatida qo'llanadigan so'zlar anchagina bo'lsa-da, ulardan biri yoki hammasi o'zbek tilida keng tarqalmagani, faqat tor doirada – shu soha mutaxassislari nutqida uchrashi mumkin bo'lgani uchun, ularni sinonimlar darajasiga ko'tarilgan deb bo'lmaydi. Bunday terminlardan *avron-safro o'ti*, *agent-omil*, *adiant-suvsumbul*, *akvalegiya-suvyig'ar*, *aksiltana-antitela* (antitana), *alevrit-tung* kabilarni ko'rsatish mumkin. Ular o'zbek tilining lug'at tarkibida tutgan o'rni, qaysi birining asosiy termin sifatida qo'llanishi hali aniq belgilanmagan dublet terminlardir.

Shu (A) bo'limdagi dublet terminlar miqdori 109 ta bo'lib, ular sinonim terminlarga nisbatan o'n hissadan ham ortiqdir: *absolyutnamlik-mutlaq namlik*, *avokado-alligator noki*, *avstralis-Avstraliya floristik oblasti*, *adventiv murtak-adventiv embrion-nuselyar embrioniya*, *adventiv organlar - g'ayritasodifiy organlar*, *adekvat o'zgarish-moslashuv- moyil o'zgarish*, *ajvoin- zira-juvona-nonxoh*, *ajralgan areal- dizyunitiv areal-bo'lma areal*, *azonal hodisa-zonasizlik hodisasi* va shu kabilar.

Bu bo'limdagi ayrim terminlar qatorini sinonimlarga ham, dubletlarga ham qo'shib bo'lmaydi. Masalan, ruscha *aborigeny* termini *aborigenlar*, *jaydari*, *tubjoyli* deb tarjima qilingan. Bunda birinchi so'zgina ko'zda tutilgan tushunchaning to'g'ri ifodasi bo'lib, keyingi ikki sifat (*jaydari*, *tubjoyli* so'zlari) bu tushunchani ifodalay olmaydi. Ular *jaydari o'simliklar*, *tubjoyli o'simliklar* shaklida ishlatilgandagina *aborigenlar* so'zi bilan dubletlar qatorini xosil qiladi. Shuningdek, *avtoxton-jaydari*, *analogiya –o'xshash qatorlar* ham bir-biriga mos bo'lmagan so'zlardir. *Anqiz - tupchak* qatori esa ma'nosi boshqa-boshqa so'zlardan iborat. Filologik lug'atlarda ruscha *jniv'e*, *sternya* so'zlari o'zbek tilida *anqiz* bo'lishi ko'rsatilgan. *Tupchik*, *tupchak*, *tupsa* so'zlari esa *jo'xori*, *g'o'za*, *beda* kabi o'simliklarning o'rilmay erda qolgan ildiz qismi ma'nosida ishlatiladi. Shunday izohlanishi qishloq xo'jaligiga oid adabiyotlarda, jumladan N.Mamatovning «Paxtachilik terminlarining qisqacha izohli lug'ati»da (1964) qayd etilgan.

Bu erda soʻz yoki termin variantlari haqida ham toʻxtab oʻtish lozim boʻladi. Chunki soʻz variantlari tub, yasama, qoʻshma, juft va takroriy soʻzlardan, bir soʻzning turli boʻgʻiniga urgʻu tushishi yoʻli bilan hosil boʻladi: *zuvala-zuvola*, *pachaq-pachiq*, *ogʻil-ogʻilxona*, *tartib-tartibot*, *yakka-dukka* – *yakkam-dukkam*, *quyuq-suyuq* – *suyuq-quyuq*, *bij-bij* – *vij-vij*, *gurs-gurs* – *gusur-gusur* kabi. Dubletlar esa tub, yasama, qoʻshma soʻzlardan tashqari soʻz birikmalaridan ham hosil boʻladi: *forma* — *shakl*, *plan* — *reja*, *kontrolyor* — *nazoratchi*, *zapovednik*, — *qoʻriqxona*, *avron* — *safro oʻti*, *avtonom migrasiya* — *mustaqil koʻchish* kabi.

Yaqin vaqtga qadar rus tilshunosligida ham soʻz variantlari va sinonimlarning oʻzaro aloqasi leksikada tutgan oʻrni masalasi deyarli tadqiq qilinmagan³¹ edi. Keyingi paytda shu temaga bagʻishlangan qator ilmiy ishlar yozildi.

Maʼlumki, sinonimlar turli soʻzlardan, dubletlar esa turli soʻz va soʻz birikmalaridan tuziladi. Soʻz variantlari esa bir soʻzning turli shakllaridan hosil boʻladi: *adab* — *odob*, *asta* — *ohista*, *podshox* — *podsho* — *poshsho* — *poshsha*, *boxabar* — *baxabar*, *aralashavermoq* – *aralasha bermiq*, *yozolmoq* — *yoza olmoq*, *assalomalaykum* — *assalom alaykum* — *salomalaykum*, *ilm-amal* — *ilmu amal* kabi. Bunday hodisa terminologiyada ham uchraydi. Masalan, yuqorida keltirilgan «Botanikadan ruscha-oʻzbekcha ensiklopedik lugʻat»ning oʻzbekcha-ruscha-lotinchada soʻzligida *agrokimyo* – *agroximiya*, *aso-muso* — *hassa-muso* (oʻsimlik nomi, toʻgʻrisi *asomuso-assamuso*), *ava*—*kava*, *albisiya* — *albiziya*, *anaeroblar* — *anaerobiontlar*, *anterid* — *anteridiy*, *bakteriofak* — *bakterioxoʻrlar*, *bioximiya*— *biokimyo* kabi bir talay termin variantlari uchraydi.

Ilmiy-texnika terminlarning, shuningdek qoʻshma soʻzlarning biror komponenti soʻz varianti shaklida boʻlishi mumkin: *texnikaviy terminlar* — *texnik terminlar*, *ximiyaviy elementlar* — *kimyoviy elementlar* – *ximik elementlar*; *yoza bermiq*, *-yozavermoq*, *yura olmoq* – *yuroolmoq*, *oʻqiy olmoq*—*oʻqiyolmoq* kabi.

Professor A. Hojiev oʻzbek tilshunosligida birinchi marta «oʻzakning

³¹ Ilmiy ishlar ishimizning boshida koʻrsatib oʻtilgan.

varianti» va «morfemaning varianti» terminlarini (binobarin, shunday yangi tushunchalarni) kiritadi. Bu fikr soʻz variantlari bir xil boʻlmasligini, ularni farqlash lozimligini koʻrsatadi. Oʻzakning variantlariga misol qilib *son* — *sana*, *ong* — *angla* soʻzlari beriladi.

Ushbu lugʻatda morfemaning variantlari 2 xil boʻlishi taʼkidlanadi: 1) biri oʻrniga boshqasini ishlatib boʻlmaydigan, sharoitga qarab biri tanlab olinadigan affiks variantlari: *kuzgi* — *kechki* — *tashqi* kabi. Bu qoʻshimchalardan birini boshqa soʻzlarda ishlatib boʻlmaydi. *Ozgina* — *nozikkina* — *boʻliqqina* kabi soʻzlardagi qoʻshimchalar ham shunday gruppaga kiradi; 2) biri oʻrniga boshqasi qoʻllana oladigan suffiks variantlari. Bunga *gulday* — *guldek* soʻzlaridagi qoʻshimchalar misol boʻladi.³²

Soʻzlashuv tilida *-li* va *-lik* qoʻshimchalari ham aralash ishlatilaveradi. *Aqlli adabli*, *bilimli qolipida bolali* (ayol) deb aytish lozim boʻlsa-da, amalda *bolalik* (ayol) deyiladi. Tramvay, trolleybus, avtobuslarda va metro vagonlarida «bolalik ayollar joyi» deb yozilgan.

«Lingvistik terminlarning izohli lugʻati»da morfemalar variantining birinchi maʼnosi «allomorf» yoki «allomorfa» deb atalishi koʻrsatilgan. Fikrimizcha, «morfemalarning varianti» deb aytish oʻrniga «affikslarning varianti» (yoki variantlari) deyilsa, aniqroq boʻlar edi; chunki «morfema» deyilganda, faqat affikslargina emas, oʻzaklar ham, affiks funksiyasini bajaruvchi yordamchi soʻzlar ham (taqqoslang: *senga-sen uchun*, *qalamda yoz* — *qalam bilan yoz* kabi) koʻzda tutiladi. SHunga koʻra, morfemalar oʻzak morfema (kornevaya morfema), affiks morfema (affiksalnaya morfema) kabi turlarga boʻlinadi.

Affiks variantlari, oʻz navbatida, «suffiks variantlari» (*suzgich*, *ochqich*—*koʻchat ekkich*, *qorday*—*qordek* kabi) hamda «prefiks variantlari» (*noinsof* - *beinsof* kabi) turlarga boʻlinishi mumkin. Taʼkidlash lozimki, oʻzak variantlari xam, affiks variantlari ham birgalikda soʻz variantlari hisoblanadi. Baʼzi soʻzlarning variantlari ham oʻzakdagi, ham affiksdagi oʻzgachaliklar bilan bir-

³² Hojiev A. Lingistik terminlarning izohli lugʻati. T., 1985, 56-bet.

biridan farq qilishi mumkin. Bunga *ximiyaviy*—*kimyoviy* — *ximik* kabi soʻz variantlari misol boʻla oladi.

Soʻz variantlari ham, termin variantlari ham maʼno jihatdan oʻzgarib, alohida soʻz yoki terminlarga aylanib ketishi mumkin: *art* — *arch*, *bu kun* — *bugun*, *ahl* (ilm ahli yoki ahli ilm) — *ahil* (inoq, ittifoq), *urish* (feʼl) — *urush* (ot), *chalgʻi* (oʻroq turi)— *cholgʻu* (asbob, qiyoslang *cholgʻuchi*), *boʻshlik* (belgi oti)— *boʻshliq* (pustota) kabi. *Boʻgʻin* soʻzi zoologiya, botanika terminologiyalarida «nasl, avlod, oila», shu soʻzning affiksali varianti *boʻgʻim* esa ruscha «sustav» sochlenenie, uzels, segment» kabi maʼnolarda ishlatiladi: *barmoq boʻgʻimlari*, *boʻgʻimoyoqlilar*, *boʻgʻimdumlilar*, *qamish boʻgʻimlari*, *qirqboʻgʻim*, *boʻgʻim oraligʻi* (mejdouzlie) kabi.³³

Baʼzan differensiasiya qilinishi lozim boʻlgan soʻzlar bir lugʻat maqolasida beriladi. Masalan, *changlash* — *changlanish* soʻzlari bir terminning variantlari sifatida beriladi.³⁴ Boshqa bir lugʻatda «опыление» faqat *changlanish* deb yozilgan, *changlash* variant sifatida berilmagan.³⁵ Aslida esa, *changlash* — *changlanish* bir jarayonning nomi boʻlsa-da, ammo bu jarayonning amalga oshishi (yuzaga kelishi) jihatidan farq qiladi. *Changlanish* — bu jarayon oʻsimlik tomonidan oʻz-oʻzidan, kishi ishtirokisiz amalga oshishini, *changlash* esa, bu jarayon kishi ishtirokida, yordamida amalga oshishini bildiradi. Shuning uchun bu hol rus tilida ham farq qilinib 2 xil termin bilan aytiladi: *estestvennoe опыление* — *changlanish*; *iskusstvennoe опыление* — *changlash*.

Bundan koʻrinadiki, *changlanish* va *changlash* soʻzlari bir terminning variantlari emas, balki ikkita mustaqil termindir. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, baʼzi terminologik asarlarda sinonimlar, dubletlar va soʻz variantlaridan eng maqbulini, toʻgʻrisini, keng tarqalganini, koʻp qoʻllanadiganini, talaffuz qilishga qulaylarini tanlab olib bosh sinonim yoki asosiy termin sifatida birinchi oʻringa qoʻyishga eʼtibor berilmagan. Masalan, «Botanikadan ruscha-oʻzbekcha ensiklopedik lugʻat»da soʻz variantlari avval *agrokimyo* — *agroximiya*, *biokimyo*

³³ Zohidov T. Z. Zoologiya ensiklopediyasi. T., 1969.

³⁴ Ruscha-oʻzbekcha lugʻat. III tom. T., 1953.

³⁵ Ruscha-oʻzbekcha botanika terminlari lugʻati. T., 1963.

— *bioximiya* tartibida, keyin esa *agroximiya* — *agrokimyo*, *bioximiya* — *biokimyo* tartibida berilgan, ya'ni bir joyda so'z variantlarida *kimyo* shakli, boshqa joyda *ximiya* shakli tanlab olinib, birinchi o'ringa qo'yilgan. Bu xol shu lug'atning «O'zbekcha-ruscha-lotinch

Holbuki, ko'pgina terminologik lug'atlarda, masalan, paxtachilikka doir lug'atlarda dublet va sinonim terminlardan eng maqbulini muayyan prinsiplar asosida tanlab olishga va asosiy termin sifatida birinchi o'rinda ko'rsatishga alohida e'tibor berilgan. Filologik lug'atlardan, jumladan, A.Hojievning sinonimlar lug'atida, Sh.Rahmatullaevning frazeologik lug'atida, Sh.Rahmatullaev, N.Mamatov, R.Shukurovlarning antonimlar lug'atida ham ana shunday prinsiplarga qat'iy amal qilingan.

Bunday qilish, ya'ni dublet va sinonim terminlardan hamda so'z variantlaridan eng maqbulini, ko'zda tutilgan tushunchani aniqroq ifodalaydiganini, tushuncha haqida noto'g'ri tasavvur hosil qilmaydigan va ixchamlarinn konkret prinsiplar asosida tanlab olish ilmiy-texnikaviy terminologiya uchun, endi shakllanib, rivojlanib borayotgan muayyan soha terminologiyasini tartibga solish nuqtai nazaridan g'oyat katta nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

1.3. So'z variantlarining tuzilishi

So'zning o'zak variantlari. O'zak variantlar so'z o'rtasidagi biror tovushning o'zgarishi, boshqacha talaffuz qilinishi natijasida sodir bo'ladi. Bunda ko'pincha o'zakdagi biror undosh tovush o'zgarishga uchraydi: *arqoq* – *arqog'*, *bog'lam* – *boylam*, *bog'cha* – *boqcha*, *devor* – *devol*, *tamba* – *tanba* kabi.

O'rish va arqoqday

Tekis zehnimda

To'qilishga tayyor

YAngi qo'shiqlar (G'.G'ulom).

Muloyim jomangizga avra-astar ham o'rish-arqog',

Mamug'lar - paxtalar bizlarda behad bor, dehqonlar.

(Habibiy).

...keyin (Elmurod) *to'rtta* kitob va birtalay daftar bilan bir **bog'lam** qalam va *qog'ozga o'ralgan bo'r* olib keldi (P.Tursun). *Kolya... kattagina ikki boylam* kitob *ko'tarib chiqib kelmoqda edi* (H. Nazir). *Posyolkada savdo – maishiy kompleksi, o'rta maktab, bolalar bog'chasi*, madaniyat uyi ochilgan (gazetadan). Bolalarni tarbiyalashga mehnatkash ayollarga har tomonlama yordam berish, bolalar **boqchalari**, yaslilar... shaxobchalarini kengaytirish va ularning ishlarini yaxshilash... muqaddas burchdir (gazetadan). **Devor** ustida turgan o'n ikki yoshlardagi bir qiz devordan kesak *ko'chirib olib mulla Norqo'ziga o'xtaldi* (A. Qahhor). **Devol** *qo'shni Rajab tabelchining ko'ksov echkisi ariqqa tiqilib o'lib qolganini mustasno qilganda, bo'lak hodisa yuz bergan yo'q* (Mushtum). Eshik ortida turgan sharpa **tambani** bir tomonga surib, eshik ochmoqchi *bo'lardi* (gazetadan). Ha, nima bo'libdi. Kelgan odamni haydab eshikka **tanba** *qo'yamanmi?* (S. Aʼmad).

O'zakdagi unli tovushning o'zgarishi bilan ham so'z variatlari yuzaga keladi: *aro – ora, arosat – arasot, arg'umoq – arg'imoy, ko'mach – ko'moch, g'avg'o – g'ovg'a, alifbe – alifbo, chordana – chordona, buvi – bibi, buvish – bibish* kabi.

Ko'pgina so'z variantlari o'zak oxiridagi tovushning o'zgarishi bilan yuzaga keladi: **dug – duk, jild – jilt, kalit – kalid**.

So'zning affiksali variantlari. Kelib chiqishi jihatidan bir xil bo'lgan affiksning turlicha shaklda qo'llanishi tufayli hosil bo'lgan so'zlar **affiksali**

variantlar deyiladi. Bunday variantlar qadimda adabiy til normalari belgilanmagan bir davrda g'oyat ko'p bo'lgan. Masalan, hozirgi sifat yasovchi – *li*, asosan ot yasovchi – *lik* qo'shimchalari qadimiy turkiy yozma yodgorliklarda – *luq*, – *lug'*, – *luk*: *lik*, – *lig'*, – *liq* shakllarida uchraydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida – *li* sifat yasovchi, –*lik* asosan ot yasovchi qo'shimcha sifatida farq qilinsa ham, ularning har ikkisinin ham sifat yasovchi qo'shimcha sifatida ishlatish hollari ko'p uchraydi: ***beshtomli***, ***beshtomlik***, 5 tomlik ruscha-o'zbekcha lug'atda – *li*, – *lik* ko'pincha farqlangan: ***trextonniy*** – ***uch tonnali***, ***trextonna*** – ***uch tonnalik***, ***pyatiletniy*** – ***beshtomli*** (bo'lishi lozim), ***pyatiletka*** – ***beshtomlik***. Lekin, bular ko'pincha farq qilinmaydi. ***Pyatitomniy*** ma'nosida ham ***beshtomli***, ***beshtomlik***, ***pyatitomnik*** ma'nosida aralash qo'llanadi.

Bunday – ***bunaqa*** – ***bunaqangi*** tipidagi so'z variantlari juda keng tarqalgan: ***shunday*** – ***shunaqa*** – ***shunaqangi***, ***unday*** – ***unaqangi***. Nazariy jihatdan – *dek* affiksi – *day* affiksi variant hisoblansa ham ***u***, ***bu***, ***shu***, ***o'sha*** kabi olmoshlarga qo'shib ishlatilmaydi, ya'ni ***budek***, ***shudek***, ***udek*** deyilmaydi. Aslini olganda, ***munday*** – ***munaqa*** – ***munaqanggi*** so'zlari ham ***bunday*** – ***bunaqa*** – ***bunaqanggi*** so'zlariga nisbatan variant sanalishi kerak. Chunki ***munday*** so'zi ***bunday*** so'zining birinchi tovushlari almashgan variantidir, –*day* va –*dek* hamda –*daqa* va –*daqanggi* qo'shimchalari vositasida juda ko'p so'z variantlari yasaladi: *jo'jabirday* – *jo'jabirdek* – *jo'jaburday* – *jo'jaburdey*, *tog'day* – *tog'dek*; *senday* – *sendek* – *sendaqa* – *sendaqanggi* – *senaqanggi*.

Qo'shma so'z variantlari. Ba'zi so'z variantlarining biri sodda so'z holida, ko'makchisi esa qo'shma so'z holida bo'ladi: *kichiri* – *moshkichiri*, *kulba* – *kulbaxona* (folklorida) kabi. Bu misollarda birinchi o'rindagi so'z shuning uchun ham asosiy variantki, ko'zda tutilgan fikr asosan ana shu so'zlar bilan ifodalanadi. Masalan, bir taomning nomi *kichiri*. Ma'lumki, kichiriga guruchdan tashyari mosh ham solinadi. Moshsiz kichiri bo'lmaydi. shuning uchun *moshkichiri* deyish o'rniga *kichiri* deyish kifoya. Ammo kishilar fikrni аниғроғы ifodalash, kichiri

uchun **mosh** bo'lishi shartligini ta'kidlash uchun *moshkichiri* ham deydilar.

Lolaqizg'aldoq – qizg'aldoq, sambitgul – sambit misollarida asosiy variant qo'shma so'z bilan ifodalangan, chunki ular shu ma'noda ko'p ishlatiladi va to'g'risi ham shudir. Birinchi variantlarda, garchi ma'no buzilsa ham, ikkinchisida qo'shma so'z o'rniga sodda so'zni ishlatish ma'noni buzadi. Chunki *sambit* tolning bir turi bo'lib, ko'pincha *tolgul* ham deyiladi. *Gul* (beradigan o'simlik) ma'nosida *daraxt* deb bo'lmaganidek, gulning bir turi ma'nosida faqat *tol* deb ham, *sambit* deb ham bo'lmaydi.

Sodda so'z bilan qo'shma so'zdan tuzilgan so'z variantlarida qo'shma so'z komponentlaridan biri, ko'pincha, oxirgisi, birinchi so'z ma'nosini o'zgartirmaydi, balki birligiga aniqlik kiritadi. Masalan, *marmartosh* so'zi ma'no jihatdan *marmarning o'zi; to'tiqush esa to'tidan* boshqa narsa emas. Bunday hollarda ham o'zak holidagi so'z, asosiy variant bo'ladi: *xarsang – xarsangtosh, zambil – zambilg'altak* kabi juftliklar ham xuddi shunday so'z variantlaridir.

Zalning o'rtasida marmardan ishlangan hovuzcha, zilol suvlar sekin oqadi (Oybek). *Vatan urushi qurbonlarining nomlari marmartoshga* yozib qo'yilgan (N.Safarov). *Tog'lardagi ohular, o'rmondagi to'tilar*, chamandagi bulbullar ham *yolg'iz* emas **jufay** yashaydilar (A.Qodiriy).

Nag'ma qip bulbullar sayrab yuribdi,

To'tiqushlar bola ochib turibdi.

(O'zbek halq dostonlari, II tom).

So'ng bo'yniga xarsang bog'lab

Suvga bosmoq bo'ldilar

(E.Vohidov).

Zanji qullar og'och tashir

Fillar tashir xarsangtosh.

(E.Vohidov).

- Bugungi gapdan gapir, dedingiz-ku, suvni hovuchlab sepib, keyin uch chaqirim joydan **zambilda** tashiyapmiz (I.Rahim). Ot-arava va **zambilg'altaklarda** tosh tashishga o'n besh kishi ajratildi (P.Tursun).

Ular bir so'zning ikki varianti bo'lgani uchun ham lug'atlarda, ko'pincha tarjima lug'atlarida ular sinonimik izoh sifatida birin-ketin yoziladi: *mramar* – *marmar*, *marmartosh*; *popugay* – *to'ti*, *to'tiqush* kabi. Badiiy adabiyotlarda ham ular bir xil ma'noda qo'llanadi.

Shuningdek, **iskabtopar**, **obihayot** kabi qo'shib yozilishi lozim bo'lgan qo'shma so'zlarni ajratib yozish hollari ham uchraydi:

*Pashshaxonaga qamalib olgan **iskabtopar** Iqbolning yuzini chaqib, uyg'otib yuborgan edi (S.Abdulla). U (kechalari) ham garmsellari bilan, qaynashgan **iskabtoparlari** bilan odamlar boshiga qora qiynoq keltiradi (M.Ismoilij). ...shu daryodan kanal qazib o'z GES iga **obihayot** olib keladi (gazetadan). G'o'zani chanqatmay **obi hayotga** qondirayotgan ... suvchilarning... aziz nomi lafzdan sira tushmasin (gazetadan). Jig'altoy – jag'altoy – jig'almay – jig'albay, qorabarak – qoravarak, bedana – moshak – bedona – moshak – bedana mashak, jilonjiyda – jilon-jiyda – chilon jiyya, chilonjiyya, sadaqayisar – sadqaisar – sadakai sar – sadag'aysar – sadqai sar – sadqayi sar – satqayisar* kabilar ham shular jumlasidandir.

Yolpo'sh – **yolpech**, **kirpo'sh** – **kirpech** so'zlari lug'atlarda bir so'zning variantlari sifatida berilgan. Izohli lug'atda “**yolpech**” aynan “**yolpo'sh**” deyilgan.

Badiiy adabiyotlarda **yolpo'sh**, **yolpush**, **yolpech** shakllari uchraydi:

(Shokir) *Ag'anab* egarining *ag'dargan* otning ustini ochib, uni *jag'allik* va **yolpo'sh** bilan yopib ayil tortdi (S.Ayniy).

Ikki sayis turar ikki yonida

*Qulog'idan oldi zarrin **yolpushni**.*

(«Hasanxon» dostonidan).

Dimiqtirib o'ragan
Baxmal yolpechi qursin.

(Gazetadan).

Shu vaqt taxmoncha osilgan kirpo'sh o'z-o'zidan qimirlagandek bo'ldi (A.Qodiriy). – *Uch yil tikdim, to'rtinchisi. Ummasi boylarning erkalariga, o'zimga qani, bittagina kirpech ham yo'q...*, dedi Zumrad (Oybek).

Fikrimizcha, ularni farqlash lozim ko'rinadiki, chunki, *po'sh* forsha “yopmoq” ma'nosidagi pushidan fe'lining negizidir. Modomiki, shunday ekan, otning yolini yopiladigan narsa (ot yopig'i) faqat *yolpo'sh* bo'lishi lozim, uni *yolpech* deyish xato, chunki yol biror mato bilan tugib qo'yilmaydi. Yuvilgan kir odatda ro'molsimon matoga o'rab, tugib qo'yiladi, shuning uchun bunday mato *kirpech* deb atalishi kerak; uni *kirpo'sh* deyish xato, chunki, kirning ustiga biror narsa tashlab yopib qo'yilmaydi.

Qo'shma so'zlardan tuzilgan so'z variantlari ham ko'p bo'lib, xuddi o'zak holiday so'z variantlari kabi asosan qo'shma so'zdagi biror o'zakda yoki affiksda yuz bergan fonetik o'zgarishlar tufayli hosil bo'ladi. Biz ularni avval bunday o'zgarishning yuz berish o'rniga qarab guruhga bo'lamiz; 1) qo'shma so'zning I komponentida yuz beradigan fonetik o'zgarishlar; 2) qo'shma so'zning II komponentida sodir bo'ladigan fonetik o'zgarishlar; 3) har ikki komponentda bo'ladigan fonetik o'zgarishlar.

Qo'shma so'zning I komponenti boshidagi undosh tovush boshqa bir undosh bilan almashinuvi mumkin: *sichqoncho'p* - *tishqoncho'p*, *sichqonquyruq* - *tishqonquyruq* (o'tlar nomi) kabi. Lug'atlarda bu so'z o'zbek tilida *tishqoncho'p* shaklida yuritilishini ko'rsatganlar.³⁶

Chilonjiyda so'zi **jilonjiyda** shaklida ham qo'llanadi:

Qiyg'och gullagan chilonjiydalarning jilg'ani to'ldirgan o'tkir hidi Sherbek yiroqlashgan sari siyraklasha bordi (S.Anorboev). “A” vitamini ko'plab qovoq, qizil sabzida, jilonjiydada, xurmoda va boshqa sarg'ayib pishadigan mevalarda

³⁶ O'zbekcha-ruscha lug'at. M., 1959. 437-bet.

bo'ladi («O'zbekiston xotin-qizlari» jurnali).

Qo'shma so'zning I komponentida faqat bitta tovush emas, balki ikkita, hatto undan ortiq tovush doirasida murakkab fonetik o'zgarish sodir bo'lishi mumkin. Masalan: *zambilg'altak – zambarg'altak*.

Yuqorida I komponentda turlicha fonetik o'zgarishlar yuz berishini ko'rdik. Qo'shma so'zning I komponentidagi faqat bir xil o'zgarish tufayli o'nlab qo'shma so'z variantlari hosil bo'lishi ham mumkin. Bu hodisa asosan, *bora olmoq* tipidagi qo'shma feʼlning I komponenti oxiridan ravishdosh qo'shimchasi (-a) tushishi tufayli yuz beradi: *bora olmoq – borolmoq, bosa olmoq - bosolmoq, boqa olmoq - boqolmoq, ayta olmoq - aytolmoq* kabi.

«O'zbek tilining imlo lug'ati» (1976) da bu xildagi so'z variantlaridan 46 tasi qayd etilgan. Bunday variantlardan o'z navbatida yangi so'z variantlari (ko'pincha belgi otlar va harakat nomlari) yasaladi: *ayta olmaslik - aytolmaslik, bo'la olmaslik - bo'lolmaslik* kabi.

Qo'shma so'zning II komponentida yuz beradigan fonetik o'zgarishlar yoki biror qo'shimcha qo'shilishi tufayli ham ko'plab so'z variantlari hosil bo'ladi. Qo'shma so'zning II komponenti boshida yuz beradigan o'zgarishlar tufayli (boshqa xil so'z variantlarida bo'lganidek) so'z variantlari yasalishiga misollar ozroq uchraydi. Lug'atlarda qayd qilinishicha, *itburun* (bot. shipovnik) so'zi ko'pincha *itmurun* shaklida ham ishlatiladi. Bunda II komponent boshidagi **b** undoshi **m** tovushi bilan almashinadi: *itburun — itmurun, Tuyabo'yin – Tuyamo'yin* kabi. II komponent boshida boshqa tovushlar ham o'ziga yaqin tovush bilan almashgan holda qo'llanadi: *kunshuvoq - kunchuvoq, oftobshuvoq - oftobchuvoq* kabi. Taqqoslang: *optovshuvoq - optovchuvoq*. Lug'atlarda II komponenti **ch** bilan boshlanadigan qo'shma so'z asosiy so'z — asosiy variant sifatida ko'rsatilgan, ya'ni *oftobshuvoq* so'zi *oftobchuvoq* so'ziga havola qilingan. Fikrimizcha, **sh** li variant asosiy so'z hisoblanishi kerak, chunki, bundagi ikkinchi komponent *shuvoq* adabiy tildagi *suvoq*, so'ziga aloqalidir, ya'ni *oftobshuvoq* yoki *kunshuvoq* so'zlari ma'lum joydan *oftob* (kun)ning nuri tushib turganini bo'rttirib,

jonli (obrazli) qilib ifodalash uchun oftob (kun) nuri *shuvalib turibdi* iborasidan foydalanish yo'li bilan yuzaga kelgan.

O'zbekcha-ruscha lug'at, o'zbek tilining izohli lug'atlarida esa **-vachcha** elementi ishlatilgan so'zlar (*ammavachcha, tog'avachcha* kabi) asosiy so'z sifatida berilgan. Haqiqatan ham, o'zbek xalqining ko'pchiligi bunday so'zlarni asosan keyingi shaklda qo'llaydi: *ammavachcha, xolavachcha* kabi. Bunda **bachcha** so'zining o'zbek tilida eski axloqiy buzuvchilik bilan bog'liq bir tushunchaning (xotin o'rnida xizmat qilgan bolaning) nomi sifatida ishlatilishi ham sabab bo'lsa kerak. Har holda biz qarindoshlik terminlarida bu variantlardan *vachchalisi* asosiy variant bo'lishi kerak degan fikrga qo'shilamiz.

Qo'shma so'zning II komponenti oxiridagi fonetik o'zgarishlar o'zak holdagi variantlardagi o'zgarishdan farq qilmaydi. Bunda ham bir-biriga yaqin, o'xshash tovushlar almashingan holda qo'llanadi. Masalan, *qirq bo'g'im - qirq bo'g'in* «xvоним», *yurak burug' - yurakburuq* «dizinteriya» so'zlarida *m-n*, **u - q** tovushlari almashgan holda ishlatilgan. Qo'shma so'z oxiridagi **a** tovushi **o** bilan almashinadi: *o'zimbilarman - o'zimbilarmon, ustabuzarman - ustabuzarmon* kabi. *Ish boshida qo'li halol, vijdoni pok, o'z hunarining ustasi, **ishbilarmon** rahbarlar turgan joylarda qalloblar nonimizni tuya qilolmaydilar* (N. Safarov).

*Yurt so'ramoq, ishda yosh podshoga **ishbilarman**, siyosatda tadbirli, harbu-zaro ishida tajribali bir etakchi bo'lsa* bas (Oybek).

Qo'shma fe'lning II komponenti bo'lib keladigan *bermoq* so'zining *vermoq* (*b > v*) shaklida aytilishi va yozilishi tufayli ham yuzlab so'z variantlari hosil bo'ladi: *beravermoq - bera bermoq, boravermoq - bora bermoq, basavermoq - basa bermoq, vaysayvermoq - vaysay bermoq, gapiravermoq - gapira bermoq, egizavermoq - egiza bermoq, yotavermoq - yota bermoq, yog'avermoq - yog'a bermoq, jonlanavermoq - jonlana bermoq, ishlayvermoq - ishlay bermoq, yiqilavermoq - yiqila bermoq* kabi. «O'zbek tilining imlo lug'ati» (1976) da bunday variantlardan 83 tasi berilgan. Ulardan bir necha namuna keltiramiz: *kelaverish - kela berish, keltiraverish - keltira berish, kiraverish - kira berish,*

olavermoq - ola bermoq, ortaverish - orta berish, osilavermoq - osila bermoq, oshiravermoq - oshirabermoq, sapchiyvermoq - sapchiy bermoq, siylayverish - siylay berish, uchavermoq - ucha bermoq, chalavermoq - chala bermoq kabi.

Bu xil soʻz variantlarining baʼzilarida ancha murakkab fonetik oʻzgarishlar yuz beradi. Masalan, *bilib olmoq - bilvolmoq, eb yubormoq - evormoq* kabi juftliklardan birinchisida **ib** tovushlari oʻrniga faqat **v** undoshi ishlatilgan. Ikkinchi juftliklarda esa *b o*ʻrniga *v* qoʻllanib, **yub** birikmasi tushib qolgan.

Yuqorida monolit holdagi variant asosiy boʻlsa (*yozavermoq - yoza bermoq* kabi), keyingi misollarda fonetik oʻzgarishga yoʻliqqan variant soʻzlashuv tiliga xos boʻlib, soʻz birikmasi shaklida ajratib yozilgan soʻzlar asosiy variant hisoblanadi: *qoʻshib yubormoq - qoʻshvormoq, olib ketmoq - opketmoq, olib qochmoq - opqochmoq, bora olmoq - borolmoq* kabi.

Ayrim qoʻshma soʻzlarning har ikki komponentida ham fonetik oʻzgarish boʻladi. Bunga *choldevor* soʻzining *chaldivor* shaklida ishlatilishi misol boʻla oladi (*o>a+e>i*). Soʻnggi imlo lugʻatida *aravachoʻyan* soʻzi *arobachoʻyan, aroba choʻyon* shakllarida ham tavsiya qilingan. Bu variantlarning birinchisiga nisbatan uchinchisida oʻzgachaliklar har ikki komponentda mavjuddir. Aslida hozirgi *arava* hamda *choʻyan* soʻzlari xam eski oʻzbek tilida, xuddi tojik tilidagidek *araba* hamda *choyan*³⁷ shaklida ishlatilgan.

Aniq shakli belgilanmagan, hali normallashtirmagan til birliklari koʻplab variantlarda – shaklda qoʻllanishi mumkinligidan soʻnggi imlo lugʻatida shakli belgilangan *kuyovnavkar* soʻzining 15 shaklda uchrashi misol boʻla oladi.

Juft soʻz variantlari. Juft soʻz komponentlaridan birida fonetik yoki boshqa xil oʻzgarish yuz berishi natijasida koʻplab soʻz variantlari yuzaga chiqadi. Ular koʻproq oxirgi komponentda boʻladigan oʻzgarishlarga bogʻlik boʻladi, *alay-balay - alay-bulay, gina-qudurat - gina-qudrat, uvup-shivir - ivir-jivir, irim-chirim - irim-sirim - irim-dirim, yumaloq-yostiq - yumaloq-yastiq, qiyin-qistiq - qiyin-*

³⁷ Usmonov O., Hamidov SH. Oʻzbek tili leksikasi tarixidan. Toshkent, 1981. 31. 279-bet.

qistov kabi.

Alay-balay degan edi, hovlining o'rtasidan shartta to'sdim-u, o'zim boboy tomonga o'tib oldim, — dedi Muhammadjon (Tosh. haq.). Bu xanjarni maxsus san uchun hozirlaganman, yo'q, agar **alay-bulaying** bo'lsa ayt (Hamza). Endi bu farzand oldida oiladagi barcha mayda-chuyda gaplar, **gina-qudurat** barham topib ketadi (D. Nuriy). U darrov ko'nglidagi **gina-qudratni** olib tashladi (Oybek). Bazm eng cho'qqiga minib, qiyqiriq olamni tutgan bir paytda qandaydir **ivir-shivir** boshlandi (N. Safarov). ... shu yusun **ivir-jivir**, *achchig'* va *chuchuk* holat ichida uxlab ketdi (A. Qodiriy). - Aslida shu **irim-chirim** slgur bema'ni gap ekanligini sizdan o'rgandim, — dedi Zohida Mehrinsaga (R. Fayziy). Chilonchiya **irim-chirim** qilib bog'lagan latta-puttalarga ko'mildi (Sh.Toshmatov). Muhabbat bir oz yurib borgach, dugonasidan so'radi: Bunaqangi **irim-sirimlarga** siz qanday chidaysiz? (V.G'ofurov). **Irim-dirimlar** bajarila boshlandi. ("Mushtum"). Agar chol bironta qari xotinga uylansa edi, ikkalamiz "ittifoq" yasab, uni **yumaloq-yosti**q qilib chetga otar edik (Oybek). Mana shu yo'sinda Parkent qishloqida uch kunda o'ttiz pora qur'onni **yumaloq-yosti**q qilib topshirdik (M. Muhammadjonov). U (Dildor), Nizomjonning shuncha vaqt yo'q bo'lib ketganiga chol uni endi **qiyin-qistoqqa** olyapti, deb o'yladi (S.Ahmad). Bu yil o'tgandan keyin u (Sojida) Sobirning **qiyin-qistovi** bilan Adhamni sudga chaqirtirishdi (H.Ziyoxonova). II komponent boshidagi undoshning o'ziga o'xshash (yaqin) boshqa bir tovush bilan almashinuvi tufayli juft so'z varianti hosil bo'ladi: *to'kin-sochin* – *to'kin-chochin* (*s>ch*) *ivir-shivir* – *ivir-chivir* – *ivir-jivir* – *ivir-sivir* (*sh>ch, j>s*), *unda* – *bunda*, *unda* – *munda* (*b>m*) , *irim-chirim* – *irim-sirim* – *irim-dirim* (*ch>s, ch >d*), *latta-putta* – *latta-lutta* (*p>l*), *gina-qudurat* – *gina-qudrat* – *gina-gudurat* – *gina-gudur* (*k>g*) kabi.

Juft so'zning II komponenti oxirida yuz beradigan o'zgarishlar ham so'z variantini yuzaga keltiradi. Masalan: *qattiq* – *quruq* = *qattiq* – *qurum* (*q>m*) *qiyin-qistoq* – *qiyin-qistov* (*q>v*) kabi.

Ba'zan juft so'zning II komponenti oxirida ham murakkab fonetik o'zgarish

yuz beradi: *yumaloq-yastiq* – *yumaloq-yassi* (*tiq>si*) kabi.

Fonetik o'zgarish juft so'zning ikkinchi komponenti o'rtasida ko'pincha, unli tovushlarda sodir bo'ladi: *ich-tash*, *ich-tish* (*a>i*), *alay* = *balay* – *alay* – *bulay* (*a>u*), *ot* – *arava* – *ot* – *aroba* kabi. So'nggi juftlikda bir unli va bir undosh o'zgarishga yo'liqqan: *av>ob*, aslida esa *ob>av*, ya'ni ilgari **aroba** shaklida ishlatilgan so'z keyincha **arova** deb aytiladigan bo'lib qolgan. *Oriq* – *tiriq* – *oriq* – *tirriq* (+*r*) *oriq* – *to'riq* (*i>o'*) – *oriq* = *turuq* (*ii>uu*) tarzidagi 4 variantli so'zning ikkinchisida bir undosh (*r*) qo'shilganini, uchinchisida bir unli, to'rtinchisida esa bir yo'la ikki unli o'zgarishga yo'liqqanini ko'rish mumkin.

Juft so'zning II komponenti oxirida ham ba'zi o'zgarishlar yuz berishi va buning natijasida juft so'z variantlaridan yuzaga kelishi mumkin: *ota-bobo* – *ota-buva*, *chala-chulpa* – *chala-chulpi*, *qattiq-quruq* – *qattiq-qurum* kabi. Bu misollarning birinchisida so'nggi komponent murakkab fonetik o'zgarishga yo'liqqan, ya'ni uning so'nggi 3 tovushi (*obo*) so'zlashuv tilida bir yo'la o'zgarib *uva* shakliga kirishi tufayli juft so'zning II varianti hosil bo'lgan. Keyingi misollarning II komponentlari oxirida *a>i* va *q>m* tarzida o'zgarish sodir bo'lgan.

Juft so'zning I komponenti ham turli o'zgarishlarga yo'liqadi. Unda, dastavval, I komponent boshida biror undoshning, masalan, **h** va **i** tovushlarining tushib qolishi ko'zga tashlanadi: *hash-pash* - *ash-pash*, *nari-beri* - *ari-beri* kabi. *Dumaloq-sumaloq* - *yumaloq-sumaloq* juftligi esa birinchi karashda ikki tovush (*d*) va *u*) o'zgarayotganday ko'rinsa-da, aslida bu erda ham faqat **d** tovushi o'rnida **y** tovushi ishlatilgan, xolos. Chunki **yu** belgisi **y+u** tovushlaridan iborat bo'lib, *u* unlisi *yu* belgisi (harfi) tarkibida saqlanib qolgan.

Ag'dar-to'ntar - *ontar-to'ntar* so'zlari ham bir so'zning variantlariga o'xshab ketadi. Biroq buni isbotlash uchun ularning I komponenti aslida bir so'z ekanini aniqlash lozim bo'ladi. Bu erda I komponent boshidagi uch tovushda (*ag'd-ont*) o'zgachalik boray ko'rinadi. Agar birinchi komponent boshidagi *a* va *o* unlilari asli bir xil bo'lgani, ya'ni bu so'z ilgari *ag'dar-antar* yoki o'zbek talaffuzida *ag'dar-ontar* tarzida talaffuz qilinganini (taqqoslang: *og'machi*,

og'darma arava) hisobga olinsa, ular asosan faqat bitta tovush **g'-n** bilan farq qiladi, xolos. Shunga qaramasdan, **u** tovushining **n** ga yoki aksincha **n** tovushining **g'** ga o'tish hodisasi o'zbek tilida uchramaydi. Shuning uchun *og'dar-ontar* bir so'zning variantlari ekanini aniqlash masalasi bu so'zlarning bir necha turkiy tillardagi tarixini o'rganish bilan bog'liq degan xulosaga olib keladi.

Juft so'zning I komponenti o'rtasida yuz beradigan o'zgarishlarga misol uncha ko'p emas: *telva-teskari* - *telba-teskari* ($v > 6$), *eran-qaran* - *elan-qaran* ($r > l$), *o'tirish-turish* - *o'ltirish-turish* ($+l$), *arava-ulov* - *aroba-ulov* ($av < ob$) kabi.

Ma'lumki, juft kelgan uyushiq bo'laklar o'zaro va *-u*, *-yu* bog'lovchilari vositasida yoki (yozuvda vergul bilan ifodalanadigan) sanash ohangi bilan bog'lanadi: *kecha* va *kunduz* - *kechayu kunduz*: *kecha*, *kunduz*, *qozon* va *tovoq* – *qozonu tovoq*: *qozon*, *tovoq* kabi. Turli tushunchalarni ifodalaydigan, ammo muayyan bir so'z turkumiga mansub bo'lgan bunday uyushiq bo'laklar, mazmun va talaffuz jihatidan o'zaro zichroq birikib, ma'lum bir tushuncha nomi bo'lib kelganda (masalan, *kecha* va *kunduz* so'zlari ruscha «sutka» - «bir kecha-kunduz» ma'nosida ishlatilganda yoki o'zlari ifodalagan tushuncha yoki predmetlardan bir qanchasini umumlashtirib ifodalanganda, masalan, *qozon-tovoq* so'zi oshxona buyumlarining umumiy nomi sifatida qo'llanganda, ular uyushiq bo'lak holidagi so'z birikmasidan yaxlit bir so'zga - juft so'zga aylanadi. Bunday holda uyushiq bo'laklar orasida bo'ladigan bog'lovchi vositalar: *va*, *-u*, *-yu* bog'lovchilari va sanash ohangi ham yo'q bo'ladi, hatto, birinchi so'zdagi upg'y ham oxirgi so'zdagiga nisbatan kuchsizlanadi: *kecha-kunduz* (sutka), *qozon-tovoq* (shu xildagi hamma idishlar). Bunday so'zlar tilshunoslikda so'z birikmasi holidagi uyushiq bo'laklardan farqli ravishda defis (- belgisi) bilan yoziladi.

O'zbek tilida *-y*, *-yi* bilan bog'lanadigan izofali so'z birikmasi bo'lmagani (bunday birikma faqat eron tillariga xos bo'lgani) uchun u o'zbek tilida bir yaxlit so'z – qo'shma so'z sifatida yuritiladi: *charxifalak*, *baxribayt*, *obiyovg'on*, *obizamzam*, *obihayot*, *gulibeor*, *gulikarnay*, *gulinamozshom*, *gulidovud*, *guliqahqaha*, *gulisalim*, *gulixandon*, *gulmoy*, *gulra'no*, *gulpoya*, *gulsunqalam* kabi.

Bunday birikmalardan ko'pincha izofalik belgisi ham tushib qoladi: *guli*beor – *gul*beor, *namoz*ishom – *nomoz*shom, *joy*inamoz – *joyn*omoz, *po'sti* dumba – *po'st*dumba kabi. Xuddi shuningdek, *rizqi ro'zi* birikmasidan *i* tushar ekan, u yaxlit bir so'z sifatida qo'shib yozilishi lozim edi.

Xullas, besh variantli juft so'z bo'lib ko'ringan *rizq-ro'z* – *rizqi ro'zi* – *risq-ro'z* – *risqi-ro'z* – *risqu-ro'z* birikmalari aslida *rizqiro'zi* – *rizqro'z*, *risqiro'zi* – *risqro'z* shaklida yuritilishi lozim bo'lgan 4 variantli qo'shma so'zdir.

Juft so'zning I komponenti oxiridagi *-lik*, *-li* qo'shimchalari ko'pincha aytilmaydi, tushib qoladi va shu yo'sinda juft so'zning ikki varianti yuzaga keladi: *topishlik-tutushlik* – *topish-tutushlik*, *esli-hushli* – *eslik-hushlik* kabi. Ma'lum, juft so'zning har ikki komponenti ham bir so'z turkumiga mansub bo'lishi lozim: *ota-ona* (ot+ot), *otali-onali* (sifat+sifat), *baland-past* (sifat+sifat), *asta-sekin* (ravish-ravish), *oldi-cotdi* (*fe'l+fe'l*) kabi.

Bu jihatdan qaralsa, keltirilgan juftliklarning birinchisi ikki shaklida ham juft so'zga xos ana shunday xususiyatni har holda saqlaydi, ya'ni, birinchi (asosiy) variant hamda har ikki komponenti *-lik* affiksini saqlagan holda ot turkumiga xos bo'lsa ham, ikkinchi variantda I komponentdan *-lik* tushgan bo'lsa ham, qolgan *tutish* so'zi, harakat nomi bo'lsa ham, har holda ot turkumiga xos bo'lgani uchun juft so'z komponenti bo'la oladi.

Esli-hushli juft so'zning *es-hushli* shakliga kelsak, uni yuqoridagi mulohazalarga ko'ra juft so'z deb bo'lmaydi, chunki I komponentdan sifat yasovchi *-li* qushimchasining tushishi bilan u sifatlik xususiyatini yo'qotib, asliga, ya'ni ot turkumiga xos bo'lib qoladi. Ot bilan sifatning birikuvidan esa juft so'z hosil bo'lmaydi. Shuning uchun ham ba'zi tadqiqotchilar *eshushli*, *otaonali*, *uyjoyli*, *sog'salomatlik* (<*sog'liq-salomatlik*) tipidagi birikmalarni qo'shma so'z hisoblaydilar hamda monolit birlik sifatida qo'shib yozish lozimligini ta'kidlaydilar.³⁸

Bunday birikmalar har ikki shaklda ham (ya'ni I komponentidan *-li*, *-lik*

³⁸ Mamatov N. O'zbek tilida qo'shma so'zlar. Toshkent, 1982. 186 - bet.

affikslari tushganda ham, tushmaganda ham) mazmun (semantik) jihatdan bir-biridan farq qilmaydilar. Shuning uchun filologik lug'atlarda ulardan birini ko'pincha *es-hushli*, *bola-chaqali* kabi I komponenti *-li* qo'shimchasiz shaklini (ya'ni nazariy jihatdan qo'shma so'z hisoblanadigan shaklini) asosiy so'z sifatida izohlanadi, har ikki komponenti bir xil bo'lgan *esli-hushli*, *bolali-chaqali* shaklidagi juft so'zlarni ylarga havola qilinadi. Bir tushuncha sodda so'z, qo'shma so'z, juft so'z, hatto so'z birikmasi bilan ham ifodalanishi mumkin bo'lgani uchun lug'atda ularni bir-biriga havola qilish mumkin. Chunki, lug'atlarda u yoki bu birikmaning shaklan qanday so'z yoki qanday birikma ekanligi emas, balki, qanday ma'no bildirishi ko'rsatiladi.

Gap bir so'zning morfologik variantlari haqida ketganda, tabiiyki, ularni farqlash, ya'ni *esli-hushli* tipidagi birikmalarni juft so'z deb, *es-hushli* shaklidagilarini juft so'z emas, qo'shma so'z va shuning uchun u *esli-hushli* juft so'zining varianti bo'la olmaydi, deb ta'riflashga to'g'ri keladi.

Juft so'zlar ko'pincha har ikki komponentda yuz beradigan fonetik o'zgarish tufayli variantlar hosil qiladi. Bunda, avvalo, har ikki komponentda biror unlining o'zgarishi ko'zga tashlanadi: *sen-men* – *san-man* ($e > a$), *ashqol-dashqol* – *ashqal-dashqol* ($o > a$) kabi. Ba'zan unli o'zgarishi bilan birga biror undosh ham hosil bo'ladi (qo'shib qoladi) – *alpon-talpon* – *alpang-talpang* ($o > ag$) kabi. Har ikki komponent oxiridagi undosh o'ziga yaqin tovush bilan almashinadi: *aloq-chaloq* – *alog'-chalog'* kabi.

Har ikki komponentga biror undosh qo'shilishi bilan ham juft variantlar yuzaga keladi: *u-bu* – *u-bul* ($+l$), *yakka-dukka* – *yakkam-dukkam* ($+m$), *hakka-dukka* – *hakkam-dukkam* ($+m$) kabi. So'nggi ikki juftlik o'zaro 4 variantli guruhni hosil qilishi mumkin: *yakka-dukka* – *yakkam-dukkam* – *hakka-dukka* – *hakkam-dukkam* kabi. *Chalama-chakki* – *chalakam-chatti*, *alay-balay* – *alay-bulay*, *ayqash-uyqash* – *ayqish-tuyqish* kabi murakkab o'zgarishlar tufayli sodir bo'lgan juft so'zlar variantlari ham anchagina bor: *ayqish-tuyqush* – *ayqash-uyqash*, *shosha-shosha* – *shoshib-pishib*, *oshqol-dashqol* – *ashqal-dashqal* kabi.

Badiiy adabiyotlarda ba'zi juft so'z variantlariniig ikkinchi komponentiga ikki bir xil undosh qo'shilishi hodisasi ham uchraydi: *Nimadir dahlizda jiz-biz etib qovurilardi* (Shuhrat). ... *jizz-bizz kaboblar, bug'i burqiragan somsalar ... pishmoqda* (S. Anorboev).

Bir so'zning kitobiy stilga yoki eskirgan shakli ham o'zining hozir aktiv iste'moldagi neytral shakli bilan so'z variantini yuzaga keltiradi: *asta-asta - ohista-ohista, arava-arava - aroba-aroba* kabi. Bu juftliklarning so'nggi variantlaridan biri hozirgi kitobiy, ikkinchisi eskirgan kitobiy uslubga mansubdir.

Ba'zan bir ravishdoshning ikki xil shaklidan tuzilgan juft so'zlar ham o'zaro variant bo'ladi: *shosha-pisha - shoshib-shoshib* kabi. Ba'zan juft so'zning ko'makchi varianti komponentlariga bir qo'shimcha qo'shilganday bo'ladi: *ost-ust - ostin-ustun, yoz-qish - yozin-qushin, ichki-tashqi - ichin-tashin* kabi. Ba'zi asarlarda *oliq-soliq* so'zi savdo-sotiq ma'nosidagi *oldi-sotdi* so'ziga variant sifatida berilgan: *oliq-soliq - oldi-sotdi* kabi. Fikrimizcha, *oliq-soliq* juft so'zi turli soliqlar ma'nosida qo'llanadi.

Juft so'zlar variantigagina xos bo'lgan (boshqa so'zlar misolida uchramaydigan) bir lingvistik hodisa haqida ham to'xtab o'tish lozim bo'ladi. U ham bo'lsa, shundan iboratki, juft so'z komponentlari o'rin almashtirgan holda ham aynan ana shu ma'noda qo'llanadi. Masalan: *quyuq-suyuq - suyuq-quyuq, kuf-suf - suf-kuf, oziq-ovqat - ovqat-oziq, old-orqa - orqa-old, sho'rva-sho'lti - sho'lti-sho'rva* kabi. *Qutidor mehmonlarni ixlos va samimiyat bilan kutar, ziyofat quyuq-suyuqlari bilan to'la-to'kis davom etar edi* (A. Qodiriy).

Bu yalmog'iz kampir qancha bemorlarni «kuf-suf» bilan davolayman deb yostig'ini quritdi (Tosh. oq). *Bir tangani ko'rib, dimog'i chog' bo'lib, og'zini qimirlatib, oldidagi ... yog'ochini qo'lga olib, suf-kuf deb dam solib kitobning ustiga tashlabdi* (Oltin olma). *SHu yo'sin ariq qazila boshlandi. Lekin, ishchi ko'p, oziq-ovqat yo'q edi* (A.Qodiriy). “Ikkinchi nomerning vazifasi ta'minotchilik, u pulemyotga o'q-dori, pulemyotga **ovqat-oziq** tashiyversin», deb hazillashadi (I.Rahim). Eng bemaza, eng arzon *sho'rva-sho'ltini* qaynatish uchun igna bilan

quduq qazish kerak bo'lar ekan (Oybek). *YAxshiki Isoq otaning bog'i bor. Yozda o'rik-uzumga og'izlari tegib turadi. Bo'lmasa sho'lti-sho'rva bilan oyoq cho'zish mumkin* (M.Osim).

Bunday hodisa qo'shma so'zlarda xam ba'zan uchrab turadi: *toypaxta - paxtatoy, simtikon - tikonsim* kabi. Biroq, bunday hollarda ko'pincha qo'shma so'z ma'nosi butunlay o'zgarib ketadi: *shishalampa* – shisha qo'yiladigan lampa, *lampashisha* - lampa (chiroq) uchun maxsus tayyorlangan shisha. Qo'shma so'z asosan aniqlovchili so'z birikmasidan kelib chiqqani uchun birinchi so'z ikkinchisini aniqlayotgani sezilib turadi.

Takroriy so'z variantlari. Biz to'plagan materiallar ichida so'z variantlari asosan mustaqil bo'lmagan so'z turkumlaridan tashkil topgan takroriy so'zlardan hosil bo'ladi, biroq mustaqil so'z turkumiga mansub bo'lgan takroriy so'zdan variantlar hosil bo'lishi kam uchraydi: *hazil-hazil - hazil-huzul, hazil-pazil, xil-xil - xilma-xil, bir-ikki - bitta-ikkita, qancha-qancha qanchadan-qancha birin-birin – birin-sirin* kabi.

Hazil-hazil bilan bo'lib ketgan bu ishning butun dahshati o'sha yili kuzda badavlat bir xonadondan sovchi keladigan bo'lganda bilindi (A.Qahhor). Hofiz shu tariqa **hazil-huzul** bilan Balxga ketishga ijozat oldi (M.Osim). Bunday hazillarni darrov ilib oladigan Abdusamat jiddiy; uyoq-buyoqqa alanglar, aftidan, **hazil-pazilga** tobiyo'q edi (A.Muxtor).

Poygakda echilgan xil-xil poyabzal,

Mening nazarimda o'zi bir dunyo.

Har biri o'zida mehnat va go'zal

Eli tuprog'ini keltirgan go'yo.

(Zulfiya)

Uch tomoni xilma-xil meva daraxtlari bilan o'rab olingan keng hovlining o'rtasi to ko'z etguncha ishqom edi (M.Ismoilijoy). Bu odam shuncha darg'azab

*bo'ldiki, Nabigul shu erda bo'lsa **6ir-ikki** tarsaki uradiganday edi (A.Qahhor). Har mahallada **bitta-ikkita** «qo'tir echki» bo'ladiku, bu erda ham bittasi o'tirgan edi (A.Qahhop). (Hasan aka) Bu ... urushda.. **qancha-qancha** aka-ukalar, otalarimiz dom-daraksiz ketmadi (E.Rahimov). Kasofat urush **qanchadan-qancha** xonadonlarning chirog'ini o'chirib ketdi (N.Safarov). Xotin-xalaj, hamma yo'lakka yig'ilib, Oftob oyim **birin-birin** kuzatuvchi xotinlar bilan ksrishib chiqdi (A.Qodiriy). Kichiklari esa tancha atrofida **birin-sirin** cho'zilishib uxlab qolishdi (Oybek).*

Mustaqil so'zlarning *-ma* yoki *ba-* elementini olgan holda takrorlanishi bilan ham qator so'z variantlari hosil bo'ladi: *tarafma-taraf – taraf-bataraf, darajama-daraja - daraja-badaraja, damma-dam - dam-badam, nomma-nom - nom-banom* kabi. Hozirgi imloda asli bir xil bo'lgan bu elementlar - *ma* (*ba-ni m* bilan aytilganda I komponentga, *b* bilan aytilganda, keyingi komponentga qo'shib yozish qoidalashtirilgan. Shuning uchun ularni hozircha orfografik variantlar deb yuritish ham mumkin. Lekin, modomiki, bir so'zning ikki shaklda yozilishini, ammo bir ma'noda ishlatilishini so'z varianti deb e'tirof etar ekanmiz, ular bir xil yozilishi ham kerak deb tushunamiz. Faktlar ko'rsatadiki, o'zbek tilida bu xil juft so'zlar asosan *-ma* elementi bilan birinchi komponentga qo'shilgan holda yuritiladi: *yo'lma-yo'l, ko'chama-ko'cha, shaharma-shahar, birma-bir, oyma-oy, kunma-kun* kabi.

Imlo lug'atida bunday so'z *-ma* bilan birinchi komponent qo'shilgan holda berilgan: *dastama-dasta, bittama-bitta, boshma-bosh, burchakma-burchak, dalama-dala, darchama-darcha, lug'atma-lug'at, minzilma-manzil, orqama-orqa, peshma-pesh, polizma-poliz, rastama-rasta, so'zma-so'z, tarafma-taraf, uyma-uy, chakalakma-chakalak, yuzma-yuz, harfma-harf* kabi, faqat bir nechta so'zgina *ba-* bilan II komponentga ko'shilgan holda berilgan: *nuqta-banuqta, rang-barang, dam-badam - dam-dam - damodam, taraf-bataraf* kabi. Bu hol *ba-* elementi takroriy so'zlarni ham o'zbek tili uchun norma hisoblangan *-ma* li so'zlar qolipida (I komponentga qo'shilgan holda yozish lozimligini ko'rsatadi: *nuqtama-nuqta,*

rangma-rang, tarafma-taraf, damma-dam kabi. Bunday qilish, birinchidan, imlo qoidalarini o'zlashtirishni osonlashtiradi, imloda xilma-xillikka chek qo'yadi. Ikkinchidan, bunday yozish nazariy jihatdan ham asoslidir, chunki, *-ma* bilan uning eroncha shakli *ba-* o'zbek tilida na ma'no va na grammatik jihatdan farq qilmaydi. O'zbek tilida *ba-*, *bar-*, *-dar*, *az-* kabi old qo'shimchalar yo'q. O'zbek tili uchun *ba-* ham xuddi *-ma* kabi faqat takrorlanuvchi o'zaklarni biriktiruvchi element, xolos.

Juft so'zlarning *-ma* va *ba-* elementlari vositasida hosil bo'lgan variantlari asosan ravish turkumiga xos bo'ladi: *dalama-dala kezdik, tomma-tom quvdi, qo'lma-qo'l uzatildi, yuzma-yuz uchrashdi (gaplashdi, keldi...)* kabi. Ba'zi *-ma* va *ba-* elementi bilan keladigan takroriy so'zlar komponentlari tarkibida sodir bo'ladigan fonetik o'zgarishlar oqibatida ham variant hosil bo'ladi: *qabatma-qabat - qavatma-qavat (b>v)* kabi. Bu juftlikning *qabatba-qabat* kabi uchinchi varianti ham uchrashi mumkin. Keyingi misol *-ma* bilan takrorlanadigan takroriy so'zlar sifat turkumiga mansub bo'lishi ham mumkinligini ko'rsatadi (*ro'parama-ro'para uy, rango-rang bo'yoq, tarafma-tarafkurash* kabi).

Lonna-loyiq – lop-loyiq, dum-dumaloq - yum-yumaloq, tap-tayyor – tappa-tayyor kabi so'zlarning birinchi komponentlari, garchi, hozir mustaqil ishlatilmasa-da, ularni ham takroriy so'z variantlari qatorida ko'rib o'tishga to'g'ri keladi, chunki, ko'pgina olimlarning aytishicha, ularning birinchi komponenti bunday so'zlarning acociy qismi bo'lishi mustaqil so'zlarning (yoki ularning bir qismi) takroridan (takrorlanishidan) hosil bo'lgan: *sap-sariq, qip-qizil, ko'm-ko'k, yum-yumaloq, qop-qopa, yap-yapaloq, yam-yashil, soppa-sog'* kabi.

Bu xil takrorlarda sifatning bosh bo'g'ini yoki bosh qismini olib sifat oldidan qo'llash bilan belgining ortiqligi ifodalanadi³⁹ Oddiy (bosh darajadagi sifatni takrorlash bilan: *uzundan-uzun, bemazadan-bemaza, shirindan-shirin*⁴⁰ kabi ham takrorlar hosil bo'ladi.

Birinchi komponentida kuchaytiruvchi element bo'lgan so'zlardan ham

³⁹ Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. Toshkent: O'qituvchi, 1980. 254-bet.

⁴⁰ Ikromova R., Azizova A., Muqamedova D. O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1983.11-bet

ko'plab so'z variantlari hosil bo'ladi: *top-toza* - *toppa-toza* kabi. Bunday variantlar asosan kuchaytiruv element komponentining turli shaklda o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Bunda, ko'pincha, birinchi komponentning bir bo'g'inli va ikki bo'g'inli shaklda kelishi variant yasovchi vosita bo'lib xizmat qiladi: *lop-loyiq* - *loppa-loyiq*, *tep-tekis* – *teppa-tekis*, *to'p-to'g'ri* – *to'ppa* – *to'g'ri* kabi.

Kuzatish ko'rsatadiki, aslida belgini kuchaytirish uchun *to'la* sifatida yoki *to'lmoq* fe'liga bog'lanib keladigan *lim* elementi (taqqoslang: *lim-to'la*, *lim-to'ldi* kabi)ning o'zi ham mustaqil ravishda takror so'z sifatida qo'llanadi va o'z variantiga ega bo'ladi: *limma-lim* – *limmo-lim* kabi. Bu takroriy so'zning uchinchi varianti ham uchraydi: *lim-lim* kabi. Bu takroriy so'z har uch variantda ham belgini kuchaytiruvchi element ma'nosida qo'llanadi:

Bunker paxtaga limmo-lim to'lgan chog'larda muvozanati yo'qolib yonboshiga ouyardi-yu, mashina egatdan chiqib ketardi (N.Safarov). *Uch qopni lim-lim to'ldirib ortdi.* (gazetadan).

Takroriy so'z variantlarining asosiy qismi taqlidiy so'zlardan, ayniqsa, tovushga taqlidlardan (zvukopodrajatelnye slova) tuzilgandir. Bunda, ko'pincha, takpopiy so'zlarning ikkinchi komponenti turli o'zgarishga yo'liqadi. Masalan, ikkinchi komponent boshidagi bir undov bilan almashingan holda qo'llanadi: *jaz-jiz* - *jiz-biz* ($j > b$), *g'idi-bidi* - *g'idi-g'idi* ($g < b$), *g'ing-g'ing* – *g'ing-ping* ($g' < p$), *g'iring-g'iring* - *g'iring-piring* ($g' < p$) kabi.

Takroriy so'zlarning ikkinchi komponenti o'rtasida xilma-xil fonetik o'zgarishlar yuz beradi. Chunonchi, bir bo'g'inli taqlidlardan tuzilgan takrorlarning ikkinchi komponenti o'rtasida **a** unlisi odatda **u** ga o'tadi: *taq-taq* - *taq-tuq*, *tars-tars* - *tars-turs*, *hars-hars* – *hars-hurs*, *kars-kars* - *kars-kurs*, *jaz-jaz* - *jaz-juz* - *jaz-buz*, *bag'-bag'* - *bag-bug'*, *shan-shan* - *shap-shup*, *chars-chars* - *chars-churs*, *g'aq-g'aq* - *g'aq-g'uq*, - *g'at-g'at* – *g'at-g'ut*, *g'arch-g'arch* – *g'arch-g'urch*, *g'art-g'art* – *g'art-g'urt*, *qag'-qag'* – *qag'-qug'*, *shaq-shaq* – *shaq-shuq*, *chag'-chag'*, *chag'-chug'*, *paq-paq* - *paq-puq* kabi.

Bir bo'g'inli taqlidlardan tuzilgan takroriy so'zning I va II komponent

boshida fonetik o'zgarish sodir bo'lishi mumkin: *yalt-yalt* - *yalt-yult*, *yarq-yarq* – *yarq-yurq* kabi.

Ikki bo'g'inli taqlidlardan tuzilgan takroriy so'zlarda I komponentdagi har ikki unli (*a* va *i*) II komponentda *u* ga (*uu*) aylanadi: *qasir-qasir* - *qasir-qusur*, *patir-patir* - *patir-putur*, *vaqir-vaqir* – *vaqir-vuqur*, *shaqir-shaqir* – *shaqir – shuqur*, *chag'ir-chag'ir* – *chag'ir-chug'ur*, *g'ij-g'ij* – *g'uj-g'uj* kabi. Ba'zan bu takrorlarning II komponentidagi *o* unlisi *u* tarzida talaffuz qilinadi: *g'ovur-g'ovur* – *g'ovur – g'uvur* kabi. Ba'zan bu xil juft so'zlarning I komponentidagi *i* unlisining *u* ga o'tish hodisasi ham uchraydi: *g'adir – budur* – *g'adur-budur* kabi.

Hamma bo'g'ini *a* unlisi bilan yasalgan (*sharaq-sharaq* kabi) ikki bo'g'inli taqlidlardan tuzilgan takrorlar ancha murakkab fonetik o'zgarish bilan yangi variant hosil qiladi. Bunda, avvalo, II komponentdagi ikki *a* ikki *u* ga aylanadi: *shapaq-sharaq* – *sharaq - shuruq*, *taraq – tarraq – tarraq – turuq*, *valaq - valaq – valaq - vuluq*, *vag'ir-vag'ir – vag'ir-vug'ur* kabi. Ba'zan *shalop-shalop – shalop – shulup* (*ao>uu*) kabi fonetik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Keyingi bunday variantlarning I komponenti *a* qo'shilgan holda ham talaffuz qilinadi: *sharaq-sharaq - sharaq-shuruq – sharaqa-shuruq*, *gupir-gupir – gupur-gupur - gupura-gupur*, *tapir-tapir – tapir-tupur – tapira-tupur* kabi.

Takroriy so'zning I komponentida sodir bo'ladigan fonetik o'zgarish tufayli ham so'z variantlari yasaladi. Bu xil takrorlar asosan ikki bo'g'inli taqlidlardan tuziladi. Masalan, *shatir-shutur* - *shatira-shatir*, *kasir-kusur* - *kasira-kusur* kabi. Biroq yuqorida ko'rib o'tilganidek, bu xil juftliklarning acociy varianti aslida *shatir-shatir*, *kasir-kisir* tipidagi dastlabki takrorlardan, ularning II komponentidagi *a* va *i* tovushlarining baravar *u* ga o'tishi tufayli yuzaga kelgan. Demak, bular ham aslida uch variantli so'zlardir: *shatir-shatir> shatir-shutur > shatira-shutur* kabi.

Filologik lug'atlarda bunday 3 yoki 4-5 variantli so'zlarning hamma varianti bitta lug'at maqolasida berilmaydi. Lug'atlarda ulardan faqat ikkitasigina lug'at maqolasida aks etadi: odatda, ko'makchi variant asosiy variantga havola qilinadi:

kasir-kasir ayn. *kasir-kusur kasira-kusur* ayn. *kasir-kusur* kabi. Bunday faktlarni to'plab, ularning variantlari miqdorini to'laroq belgilash tadqiqotchining vazifasidir. Yuqorida uch izohli lug'atning ikki maqolasidan olingan ikki misol ular *kasir-kisir - kasir-kusur - kasira-kusur* kabi uch variantli juft so'zlar ekanini ko'rsatadi.

RO'L-59 da *shildir-shildir* sm. *shaldir-shuldir* deyilgan. Bundan birinchi juft so'z ikkinchisining ko'makchi variantiga o'xshab qolgan. Fonetik qonuniyat, ayniqsa, bu so'zlar ifodalagan ovoz farq *shaldir-shuldir* aslida *shaldir-shaldir* so'zining ko'makchi varianti bo'lishini va uning II komponenti **u** – **i** tarzida emas, balki yuqorida ko'rsatilganidek, **u** – **u** tarzida bo'lishini taqozo qiladi: suvning oqishi bir maromda kuchsizroq ovoz chiqarib oqishni ifodalovchi *shildir-shildir* so'zining ko'makchi varianti esa *shildir-shuldur* tarzida bo'lishini ko'rsatadi: *shaldir-shaldir-shaldir-shuldur, shildir-shildir – shildir – shuldur* kabi. Bunda ko'makchi variantlar ovoz kuchida farq qilgan holda bir maromda yana o'zgaroq ovoz qo'shilganini bildiradi.

Shivir-shivir – shivir-kichir juftligida ikkinchi komponentdagi ikki undosh fonetik o'zgarishga uchragan: *sh-v>k-ch*. O'zbek adabiy tilida bunday hodisa g'oyat kam uchraydi.

Bunday takroriy so'z variantlari ichida xarakatning kechish tarzi taqlid so'zlaridan (slovopodrajatel'nye slova) tuzilganlari ham juda oz uchraydi: *g'ivir-g'ivir – g'ivir-shivir* (*g' >sh*) kabilar tufayli juda ko'p so'z variantlari vujudga keladi. Masalan, komponentlar oxiridagi biror tovush o'ziga yaqin boshqa tovush bilan almashadi: *g'ij-g'ij – g'ich-g'ich* (*j>ch*) kabi. Ba'zan bir tovush o'rniga ikki tovush paydo bo'ladi: *jik-jik – jigi – jigi* (*k>gi*) kabi. Yoki bir unli ikki tovush (unli va undosh) bilan almashadi: *g'iji-g'iji – g'ujur-g'ujur* (*i>ur*) kabi.

Har ikki komponent oxiriga biror tovush, ko'pincha **q** yoki **g'** undoshi qo'shiladi: *qul-qul – qulq-qulq, qu-qu – quq-quq* (+*q*) *g'a-g'a – g'aq-g'aq* (+*q*) kabi. Ba'zan esa biror tovush, chunonchi **r** undoshi tushadi: *qirr-qirr – qir-qir* kabi.

Har ikki komponent oxiriga bir yo'la ikki tovush, ko'pincha, bir unli va bir undosh qo'shilishi hodisasi ham ko'p uchraydi: *g'ir-g'ir – g'irra-g'irra (+ra)*, *g'iz-g'iz – g'izza – g'izza (+za)*, *ting'-ting' – ting'ir-ting'ir (+ir)*, *ho'ng-ho'ng – ho'ngir-ho'tgir (+ir)* kabi. Asosiy variant komponentlarida lablangan undoshlar bo'lsa, bu qo'shimcha (-ir) ur tarzida qo'shiladi: *g'uv-g'uv – g'uvir-g'uvir (+ur)*, *gurs-gurs – gusur-gusur (+ur)* kabi. Ba'zi asosiy variant komponentlari lablangan va lablanmagan unli (masalan, a-u) ishtirokida tuzilgan bo'ladi. SHunga muvofiq ko'makchi – variant ham ikki xil unli bilan yuzaga keladi: *dang-dung (a-u) – dang'ir-dung'ur (+ir - ur)* kabi.

Takroriy so'zning har ikki komponenti o'rtasidagi fonetik o'zgarishlar bilan ozroq so'z variantlari maydonga keladi: *g'at-g'at - g'o't-g'o't (a-a>o'-o')*, *g'ajir-g'ujur - g'achir-g'uchur (j-j>ch-ch)* kabi.

Takroriy so'zning har ikki komponenti boshida ko'proq bir undosh boshqa o'ziga yaqinroq tovush bilan almashinadi, bunda, odatda, *jarangsizlanish* hodisasi: *jaraq-jaraq - charaq-charaq (j-j>ch-ch)*, *bij-bij - vij-vij (b-b>v-v)*, *bijir-bijir - vijir-vijir (6-6>v-v)*, yoki aksincha *jaranglilanish* hodisasi yuz beradi: *to'q-to'q – do'q-do'q (t-t>d-d)* *pilch-pilch - bilch-bilch (p-p>b-b)*, *qult-qult – g'ult-g'ult (q-q>g'-g')* kabi.

Bu misollar *bijir-bijir* so'zi *bij-bij* so'ziga up elementini ko'shish tufayli yuz berganligini hisobga olsak, ular o'z ko'makchi variantlari bilan birga 4 komponentli so'z varianti tashkil qilishi ma'lum bo'ladi: *bij-bij - vij-vij (6>j) - bijir-bijir - vijir-vijir (+ir)* kabi.

Takroriy so'z komponentlari boshidan biror tovush tushib qolishi: *vang-vang - ang-ang (-v)* ham, tovushlarning o'rin almashtirish (metateza) hodisasi ham oz bo'lsa-da, uchraydi: *hiring-hiring - hingir-hingir (r-ng>ng-r)* kabi.

So'z variantlari undovlardan tuzilgan takroriy so'zlarda ham ko'zga tashlanadi. Masalan, izohli lug'atda ko'rsatilishicha, *voy-voy* so'zi *vay-voy (o-o>a-o)* shaklida ham ishlatilgan. *Hayyo-hay* so'zi esa *hayyo-hayot* va *hayto-hayt* shakllarida uchraydi. So'nggi misolda takroriy so'zning oxirgi komponentiga bir

undosh (t) qo'yilgan, uchinchi variant esa ikkinchi variantnint I komponenti oxiridagi *yo* o'rniga *to* elementi qo'shilganini ko'rsatadi. Bu misolning bosh (asosiy) varianti (*hayyo-hay*) *hayyo-huv* shaklida ishlatilishi uning o'zi *hayyo-huyt* variantlariga ega bo'lishi mumkin.

Undovlardan tuzilgan ikki komponentli ba'zi takroriy so'zlar ba'zan uch komponentli bo'lgani holda qo'llanib, g'ayri odatiy so'z variantini yuzaga keltiradi: *hay-hay* – *hay-hay-hay*, *ho'-ho'* – *ho' – ho' - ho'* kabi. Buning g'ayri odatiyligi shundaki, odatda takroriy so'zlar ikki komponentli bo'ladi. Lekin, bu misollar ba'zan uch komponentli takroriy so'zlar ham bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Buning aksincha, ba'zi ikki komponentli takroriy so'z holidagi undovlar (masalan, *oh-ho*) o'rni bilan yaxlit bir so'z holida aytilib, takroriy so'z va qo'shma so'zdan iborat so'z variantini yuzaga keltiradi. Bu xil so'zlarni bir so'zning varianti deb aytishga asos shuki, takroriy so'z holidagi undovlar qo'shib aytiladigan va qo'shib yoziladigan shaklda ham ikki undovdan tuzilgan birikma ekanligi bilinib turadi, *aho* so'zi aslida ikki undovdan (*oh* va *ho*) iborat bo'lib, yonma-yon kelib qolgan ikki **h** dan biri bo'lib ko'pincha talaffuz qilinmaydi.

II BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA SO'Z VARIANTLARI VA UNGA YONDOSH HODISALARNI O'QITISH

2.1. So'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'qitish jarayonida shaxs (o'qituvchi-o'quvchi), qurol-vosita (dastur, darslik) va metod munosabatlari

«Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir».⁴¹ Bu fikr, aynan, ona tilini o'qitish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarga: darslarga, darsliklarga, nazorat ishlariga, mustaqil ishlar va topshiriqlarga, hatto o'quvchining bilimini baholashga ham taalluqlidir.

Bugungi kunda o'quvchilarimizni ma'naviy etuk qilib tarbiyalashning samarali usullarini topish milliy pedagogikaning eng dolzarb muammolaridan biridir. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayoni esa ko'p qirrali bo'lib, uni barcha fanlar bilan o'zaro bog'liq tarzda rivojlantirib, takomillashtirib borish kerak.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari uchun tuzilgan ona tili darsliklari oldiga quyidagilarni amalga oshirish asosiy vazifa qilib qo'yilgan:

a) u yoki bu til qonuniyati haqida o'quvchiga bilim berish, ona tilining boy imkoniyatlaridan xabardor qilish;

b) nazariy bilimni matn, mashq, topshiriqlar asosida tushuntirish va mustahkamlash;

v) maxsus vazifalar orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini takomillashtirish;

⁴¹ Karimov I.A.- Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, -Toshkent: SHarq, 1998. 16-b.

g) berilgan har bir vazifani bajarishda o'quvchini ijodiy fikrlashga yo'naltirish va ijodiy matn tuzish malakasini hosil qilish;

d) berilgan bilimlarning o'quvchi tomonidan qay tarzda o'zlashtirilganini nazorat qilish.

Istiqloldan oldin ham ona tili fani bo'yicha umumta'lim maktablar uchun turli dasturlar, darsliklar yaratilgan. Ana shu dastur va darsliklar, shuningdek, boshqa qo'shimcha adabiyot, qo'llanma, uslubiy ko'rsatma, tavsiyalar o'quvchilarning ona tili fanining nazariy jihatlarini o'zlashtirishlari uchun xizmat qildi. Yordamchi vositalar: qo'llanmalar, metodik ko'rsatmalar, tavsiyalar, ayniqsa, mashqlar to'plamlari, bayon, diktant to'plamlari ana shu nazariy bilimlarni mustahkamlash omillari vazifasini bajardi. Ularning sifati haqida o'z vaqtida ko'plab fikrlar aytilgan va aytilyapti.

O'qitish jarayoni ma'lum darslik va dasturlarga asoslanib olib boriladi. Mohir o'qituvchi ba'zan ana shu dastur va darsliklardan ma'lum maqsadlarni ko'zlab chekinadi, ijodiy yondashgan holda ularni to'ldiradi, qisman o'zgartiradi. Biroq bunday murakkab vazifani o'qituvchi muayyan qiyinchiliklar bilan amalga oshira oladi.

Milliy istiqlol tufayli qarashlarimiz, ma'naviy dunyomiz tubdan o'zgarmoqda. Bugungi ona tili darslari uchun tavsiya qilinadigan qo'llanmalar, mashqlar va diktantlar to'plamlari ham tubdan yangilanyapti. Albatta, yillar davomida o'quvchilarga saboq berishda qo'llanib kelingan darsliklarning ilmiy salohiyatini inkor etmaymiz. Biz bugun mazkur ilmiy bilimlarni o'quvchiga yangi davr nuqtai nazaridan yondashgan holda etkazish zamon talabiga, ehtiyojiga aylanganini ta'kidlamoqchimiz.

«Maktabda ona tili ta'limiga qo'yilgan muhim talablardan biri o'quvchilarni o'z fikrlarini bayon qilish faoliyatiga tayyorlashdir».⁴²

O'quvchini o'z fikrini izchil bayon qilishga o'rgatish uchun darsliklarda grammatik topshiriqlar sirasida milliy qadriyatlari-miz, ma'naviy va moddiy boyliklarimiz, xalqimiz tarixi, xalq og'zaki ijodi, o'lkashunoslik, hayvonot va tabobat olami haqida qiziqarli matnlar ko'p bo'lishi kerak. Bu bilan biz fanlararo bog'liqlik hamda ta'lim va tarbiyaning o'zaro aloqadorligi tamoyillarini hayotga tatbiq qilishni amaliy ta'minlashimiz mumkin.

Agar shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, keyingi darsliklarda bu talabga alohida e'tibor berilganligi kuzatiladi. Matnlar tanlanishi mavzularga mos, shuningdek, ularda davr ruhi sezilib turadi. Ularda mustaqilligimiz va Vatanimiz, milliy qadriyatlarimizga oid materiallar jamlangan.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da talab qilinganidek, bugungi kunda tilshunos olimlar tomonidan ham yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan darsliklar yaratilmoqda. 2004-2005 o'quv yillaridan boshlab umumta'lim maktablari 5-sinfi uchun N.Mahmudov va boshqalar muallifligidagi yangi darslik qabul qilindi.⁴³

Ushbu darslik mualliflari grammatik qonuniyatlar bilim asosi ekanligini inkor etmagan holda, ona tili fanini o'rganishda amaliy ishdan nazariy xulosa chiqarish yo'nalishini tanlaganlar.

Darslikda: a) berilgan topshiriqlar o'quvchini mustaqil ravishda «O'zbek xalq maqollari», «Hikmatli so'zlar» kabi kitoblarni ko'rib chiqishga majbur qiladi; b) qoidalar o'quvchilarga tushunarli bo'lishini nazarda tutib, ancha soddalashtirilgan; v) mavzu bo'yicha o'quvchilar bilan ishlash samarali bo'lishi uchun mavzu qiziqarli va zamonaviy matnlar, mustaqil

¹ Gulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. -Toshkent: O'qituvchi, 1995. 18-b.

⁴³ Mahmudov va b. Ona tili. 5-sinf uchun - T. : Ma'naviyat. 2003.

ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi qiziqarli mashqlar, topshiriqlar berilgan, topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchining ma'lum bir til qoidasiga, hodisasiga taalluqli bilimlarni o'zlashtirib olishi nazarda tutilgan;

g) darslik o'quvchini darslikdan tashqari turli xil lug'atlar, adabiyotlar ustida ishlashga chorlaydigan, majbur qiladigan mashq va topshiriqlarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Biroq darslik «Katta tanaffusda», «Maktab muzeyi», «Dugonalar», «Kuz», «Maktabimiz hovlisi» kabi rasm asosida tuziladigan matnlar yoki bunday matnlarni yaratishga asos bo'luvchi rangli suratlar bilan boyitilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shuningdek, amaldagi darslikda o'quvchiga og'zaki va yozma nutqni shakllantirishda bilishi zarur bo'lgan grammatik qoidalar haqida umumiy tushuncha berilgan, ulardan o'rinli foydalanish yo'riqlari mashqlar, tarbiyaviy, ma'naviy va ma'rifiy ahamiyati katta bo'lgan matnlar orqali etkazishga harakat qilingan.

Biz darslikning xususiyatlarini keng sharhlashni maqsad qilib olganimiz yo'q. Faqat, yuqorida aytganimizdek, darsliklar o'quvchilarning milliy dunyoqarashini shakllantirishga, ona tiliga muhabbatini orttirishga, ularda ijodiy fikrlashni shakllantirishga mo'ljallab tuzilgandagina, ulardan o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham samarali foydalanishi mumkinligini asoslash uchun bu masalaga qisman to'xtalib o'tdik, xolos. Agar darslik tahliliga astoydil to'xtaladigan bo'lsak, albatta, ularda yutuqlar bilan birga, kamchiliklar mavjudligini ham ko'rsatish mumkin.

Bizningcha, darslikda mavzu mohiyatini o'quvchiga etkazishning, darsni tashkil etishning asosan bir shakli tanlangan. Biror matn, topshiriqdan keyin mavzu haqida ma'lumot va uni mustahkamlovchi material berilgan. Bunday yo'l bir yoqlama bo'lib, yana mashg'ulotning bir qolipda o'tishiga, o'quvchining esa bir qolipda fikrlashiga olib keladi. Binobarin, mavzular turli

shakllarda, turli uslublarda, xilma-xil ohangda etkazilsa, o'quvchilar ham turli xilda fikrlaydigan bo'ladi.

Ona tili darslari faqat grammatik bilim berish, yozma va og'zaki nutqni shakllantirish bilangina chegaralanmaydi. Yoshlarda milliy g'urur, Vatanga muhabbat hislarini tarbiyalashda, ularning ma'naviy etuk bo'lib etishishlarida ona tili darslarining tutgan o'rnini unutmaslik lozim.

Agar o'qituvchi darslik va dasturlarga ijodiy yondashib, uni dars davomida kundalik siyosiy va dolzarb mavzulardagi matnlar bilan boyitib borsa, darslik mualliflari ilgari surgan maqsadga birgalikda erishadilar.

Mualliflarning maqsadga erishish yo'llarini quyidagi bosqichlar bilan belgilash mumkin:

1. O'quvchini topshiriq asosida mavzuga olib kirish va mavzu haqida ma'lum tasavvur hosil qilingandan so'ng qoidani bayon qilish.
2. O'quvchini mustaqil mashq ishlashga o'rgatish. Unga kichik topshiriqlar berish orqali mavzuni o'zlashtirish imkoniyatini yaratish.
3. Dars mashg'ulotlarida so'zlarning ma'nolariga e'tibor berib, ularni yozma va og'zaki nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmasini hosil qilish.

Til ta'limi o'quvchilar tafakkurini, nutq madaniyatini rivojlantiruvchi, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Ona tili darslarida «Leksikologiya» bo'limi yuzasidan berilgan bilimlarni amaliyotda yozma va og'zaki nutqda to'g'ri qo'llay bilish o'quvchi tafakkuri va mantiqiy fikr darajasini rivojlantirishga yo'naltiradi. Kichik hajmdagi matnlar yordamida mantiqiy fikrlash jarayonida umumiy xulosalar chiqarish orqali grammatik ta'rif yaratishga o'rgatiladi. Mashqlar yordamida olingan bilimlar mustahkamlanadi. O'z xulosalari orqali nazariy bilimni kashf eta bilgan, umumiy kuzatishlaridan xususiy xulosa chiqara olgan o'quvchi grammatik qoidani yoddan biladigan, lekin uni amaliyotga tatbiq etishga

qiynaladigan o'quvchidan ko'ra mustahkamroq bilimga ega bo'ladi. To'g'ri, o'quvchiga avval qoidani yodlatib, shu qoida asosida mashqlarni bajarish o'qituvchi uchun ancha qulay. Zero, bunga dars uchun ajratilgan vaqt ham etarli bo'ladi, o'quvchilarni baholashga ham erishiladi. Lekin ustoz shu ajratilgan vaqt ichida o'quvchiga keyinchalik unutib yuboradigan qoidalaridan tashqari yana nima o'rgatdi? Insonning doimiy boyligi bo'lmish lug'at boyligi, nutq madaniyati, yozma va og'zaki nutqni tuza bilish malakalarini yarata oldimi? Har safar o'quvchilarining ma'no va grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan nutqlari ustida fikr yuritilar ekan, uning zaminida o'rgatuvchi va o'rganuvchining birgalikda olib borgan og'ir va tinimsiz mehnati borligini unutmaslik darkor.

Darsliklarga raqobatlashadigan yoki ularga ko'makchi bo'lib xizmat qiladigan turli qo'llanmalar, tavsiyalar, o'quvchilarning o'z ona tilining imkoniyatlarini chuqur anglab etishiga yordam beradigan boshqa vositalarni ham dars jarayonlariga olib kirish masalalari borki, bular haqida ilmiy ishimizning keyingi qismlarida batafsil to'xtalib o'tamiz. Ona tilini o'qitish shu fan bo'yicha o'quvchilarga turli nazariy bilimlarni berishgina emas, balki ularni amaliyotga tatbiq qila bilish, mustaqil qo'llash ko'nikmalarini uzluksiz tarzda shakllantirib borishini ham nazarda tutadi.

Sharoit etarli bo'lmasa, o'qituvchi va o'quvchi qanchalik iqtidorli bo'lmasin, darsdan kutilgan maqsadga to'la erishib bo'lmaydi. Darsliklar, qo'llanmalar kamchilik, qusurlarga to'la bo'lsa, ularning mundarijasida bosh maqsad mohiyati o'z ifodasini topmasa, bunday paytda ham ko'zlangan natijaga erishish qiyin. O'qituvchi tajribali, iqtidorli, darslik va qo'llanmalar mukammal, o'qitish metodikasi to'g'ri tanlangan bo'lsa-yu, o'quvchi shaxsi tayyor bo'lmasa ham natija kutilgandek bo'lmaydi. Ko'rinadiki, ular orasida doimiy uyg'unlik, muvofiqlik bo'lishi kerak. Uyg'unlikni ta'minlash esa,

yuqorida aytganimizdek, bosh maqsad mohiyati bilan belgilanadi. Bizningcha, hozirgi kunda mustaqil mamlakatimiz ta'lim tizimida ona tili fanini o'qitish oldiga qo'yilgan bosh maqsad to'g'ri belgilandi. Ta'lim jarayonida bu holat turlicha shakllarda bayon qilinayotgan bo'lsa-da, asl maqsad shu ekanligi barcha hujjatlarda ta'kidlanyapti.

Keyingi paytlarda qanday o'qitish masalasiga ko'proq e'tibor qaratilib, u yoki bu metodda o'qitish, qoidalarni yodlatish yoki yodlatmaslik, mashqlarni uyga vazifa qilib berish yoki sinfda ishlatish, misoldan qoidaga borish kabi muammolarga ko'pchilikning diqqati jalb qilinyapti. Ammo o'quvchilarga bilimlarni qanday etkazish masalasiga e'tibor jiddiy qaratilgani holda, ularga nimani o'qitish masalasiga juda kam e'tibor berilmoqda. Jumladan, ona tili darslarida lug'at bilan ishlash ko'ngildagidek emasligi hammaga ma'lum. Chappa lug'at, morfem lug'at kabilarni, fan sohalari lug'atlarini ko'rmagan o'qituvchilar borligi qator tadqiqotlarda ta'kidlangan.

Gap, modomiki, o'qituvchi, o'quvchi, qurol va vositalar, metodlar, sharoit kabi dars jarayoni, ta'lim tizimining zaruriy elementlari -tarkibiy qismlari uyg'unligi va uzviyligi haqida borar ekan, yana bir omilga alohida e'tibor berish zarurligi oydinlashadi. Bu maktab o'quv dasturi masalasidir. Albatta, ta'lim tizimida o'quv dasturiga, ayniqsa, uning mundarijasiga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki mavzular, sathlar uchun soat-vaqt taqsimoti ham doimo jiddiy muammo bo'lganligi ma'lum.

1947 yil nashr etilgan 6- sinf «Ona tili» dasturida leksikologiyani o'rganishga 2 soat ajratilib, u morfologiyadan keyin o'rinashtirilgan; 1950 yilgi 6- sinf dasturida ona tilining leksikologiya sathini o'rganishga 6 soat vaqt ajratilib, bunda «So'z va uning ma'nolari», «So'zning umumiy va xususiy ma'nosi», «So'zning ko'p ma'noda qo'llanish hollari», «So'zning o'z va ko'chma ma'nosi», «So'z ma'nolarining o'zgarishi, buning turli

ko'rinishlari», «Sinonim, omonim va antonimlar», «Arxaizm va neologizm», «So'z va termin» mavzularini o'tish rejalashtirilgan.

1951 yilda tuzilgan «Ona tili» dasturida bu bo'lim «O'zbek tilining lug'at boyligi haqida» deb nomlanib, 5- sinfda «Fonetika» bo'limidan keyin o'tish rejalashtirilgan va 10 soat vaqt ajratilgan. Mavzular doirasiga «So'z yasalishi», «So'z o'zlashtirish» masalalari ham kiritilgan.

1952-56-yillarda tuzilgan dasturlarda bu qism «O'zbek tilining lug'at boyligi haqida» deb nomlanib, quyidagi mavzular o'rganilgan: «O'zbek adabiy tilining lug'at boyligi», «So'z yasash o'zbek tili lug'atini boyitishining asosiy manbalaridandir», «Sinonim va antonimlar», «So'zning o'z va ko'chma ma'nolari», «Omonimlar haqida tushuncha», «O'zbek tili so'z boyligini orttirishda rus tilining ahamiyati» kabilar.

1957 yili tuzilgan «Ona tili» dasturida mavzu «So'z haqida ma'lumot» deb nomlangan va uni o'rganishga 12 soat ajratilgan. 1966 yilgi dasturda esa mavzu «So'z haqida umumiy ma'lumot» tarzida atalib, uni o'tish uchun 16 soat ajratilgan. Bunday turli-tumanlik keyingi davrlarda ham davom etgan. Ammo amal qilib kelingan bu dasturlarda o'quvchilarning ijodiy savodxonligiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi hamda ularning mustaqil va ijodiy fikrlashlari uchun yaxshi imkoniyat yaratuvchi, ayniqsa, mustaqil fikrlash zarurligini taqozo etuvchi «Paronimlar», «Variantlilik» yoki «Parallelizmlar» haqida, shuningdek, affikslardagi ko'p ma'nolilik, omonimiya, sinonimiya, ko'p vazifalilik kabi hodisalar yuzasidan ma'lumotlar berish umuman ko'zda tutilmagan. Keyingi davrda tuzilgan «Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturi»da bu mavzularga ham e'tibor qaratilgan.

Metodist-olima K. Qosimova: «O'qituvchilar ma'nosi, to'g'ri talaffuzi va yozilishi, nutqda qo'llanishi tushuntirilgan so'zlarni o'quvchilarning aktiv lug'at boyligiga aylantirish ustida bo'sh ishlaydilar. O'rganilgan so'zlarni

o'quvchilarning aktiv lug'at boyligiga aylantirish uchun shu so'zlarni og'zaki va yozma bog'lanishli nutkda qo'llashni o'rgatish-o'rganishga, undan to'g'ri foydalanish malakasini hosil qilishga qaratilgan mashqlarni tanlash, lozim bo'lganda tayyorlash va o'tkazish talab etiladi»,⁴⁴ - deydi. Bu fikr juda o'rinlidir. K. Qosimova rus tilshunosligida lug'at bilan ishlash, so'z va boshqa birliklar ma'nolarini izohlashga e'tibor 60-yillardayoq kuchayganini ta'kidlab: «...G.I.Gorskaya o'zining rus tili darslarini yangi metod bilan olib borishga bag'ishlangan ishida o'qitishning asosiy formasi bo'lgan darsning yangi strukturasi, programma materiallarini planlashtirish, darsda o'quvchilarning mustaqil ishlari, lug'at ustida ishlash, o'quvchilar nutqini o'stirish yuzasidan mulohaza yuritadi; barcha masalalarni bayon etishda lug'at ishiga, nutq o'stirish ustida ishlashga alohida ahamiyat beradi», - degan fikrga e'tiborni jalb qiladi.

Sharq ta'lim usulida lug'atlar bilan ishlashga e'tibor XI asrdan boshlangan. O'tgan asrlarda ko'plab lug'atlar tuzilganligining o'zi ham buni tasdiqlaydi. Afsuski, sho'ro davrida o'quv dasturlarida lug'atlar bilan ishlashga e'tibor berilgani bilan ulardan bevosita dars jarayonida foydalanish deyarli kuzatilmadi. Bu masala ilmiy maqolalar, dissertasiyalar doirasida qolib ketdi. Lug'atlar bilan dars jarayonida ishlash zarurligi ba'zi qo'llanmalarda ta'kidlanganiga qaramay, lug'atlar darslarga deyarli olib kiritilmadi. Shu bois ham yangi darsliklarda lug'at bilan ishlashga ahamiyat berilganligi quvonarlidir. Ammo darslikning ilova qismida tavsiya etilgan lug'atlar bilan ishlashning o'zi kifoya emas. To'g'ri, darslikdan bevosita lug'at bilan bajariladigan bir qator mashqlar va topshiriqlar o'rin olgan. Bu ham ma'lum darajada lug'atlar bilan maxsus ishlash uchun ehtiyoj hosil qiladi.

⁴⁴ Qosimova K. O'zbek maktablarining 5- sinfida ona tili darslarida lug'at ustida ishlash. -Toshkent: Ped fan.nomz...diss. 1966. 47-b.

Ma'lumki, ona tili darslarining maqsadga yo'naltirilgan holda o'tkazilishi, uning sifat darajasi, o'quvchilarning o'z tili so'z boyliklarini va bu tilning serqirra imkoniyatlarini yaxshi bilishi, o'zlashtirib olishi, mustaqil tarzda idrok etishi maktablarda o'qitiladigan boshqa fanlarning ham yaxshi o'zlashtirilishini ta'minlashga asos yaratadi. Ona tili o'qitishning bu jihati ko'pchilik tomonidan tan olingan, e'tirof etilgan. Chunki har bir fan sohasining o'ziga xos minglab atamalari bor. Bu atamalarning lug'aviy ma'nolarini to'g'ri tushunmagan o'quvchi o'sha fan tushunchalarini to'la anglashi gumondir. *Morfologiya, operasiya, qo'shuv, oluv, ko'paytiruv, ildiz, ijtimoiy, tasodif, oqibat, kasallik, uchlik, botanika, zoologiya, ekologiya, etika, estetika* kabi so'zlarning qaysi fan sohalarida qanday tushunilishini bilmay turib, o'sha fan sohalarini anglab bo'lmaydi. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki, maktablarda ona tili darslari, ularga ajratilgan soatlar, ularning mavzular va sathlararo taqsimoti masalalari, dastur va darsliklar uyg'unligi va muvofiqligi, boshqa vositalar (EHM, tele va video vositalar, ko'rgaz-mali qurollar, tarqatmalar, o'yinlar tashkil etish mo'ljallanadigan uskunachalar) sifati bosh maqsadni to'la amalga oshirishga qaratil-sagina, ona tili o'qitish yaxshi samara beradi. Ona tili o'qitishda ma'lum bir metodga qat'iy tarzda to'la «yopishib» olib bo'lmaydi. Til o'qitishning o'ziga xos jihatlari va o'ziga xos murakkabligi shundaki, har bir mavzu uchun alohida metod tanlashga to'g'ri keladi.

Ona tili darslarining samaradorligi mavzu xarakteriga qarab ish tutish, metod tanlash, darsni tashkil etish kabilar bilan chambarchas bog'liqdir. Barcha mavzularni, barcha hodisalarni o'quvchiga etkazishda bir xildagi shablon yo'ldan borib bo'lmaydi. Uyga vazifa berish, mustaqil bajarish uchun beriladigan topshiriqlar ham ana shu talabdan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi muhimdir. Chunki har qanday topshiriqni ham uyga vazifa

tarzida yoki mustaqil bajarish uchun berib bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, har qanday topshiriqni ham sinfda bajartirish maqsadga muvofiq emas. Har qanday mavzuni topishmoq yoki o'yinlar tarzida o'tib bo'lmaganidek, har qanday darsni ham asosan matn ustida ishlash tarzida tashkil etish bilan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Mana shular nazarda tutilgandagina o'qituvchi-o'quvchi, qurol-vositalar, metodlar va topshiriqlar, yordamchi vositalar uyg'unligi o'z samarasini beradi. Bu uyg'unlik va uzviylikning buzilishi darsga, ta'lim jarayoniga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xullas: a) ona tili darsi jarayoni shunday murakkab jarayonki, unga bir qolipda, bir xil yo'nalishda yondashib bo'lmaydi; b) dasturlar, darsliklar, boshqa qo'llanmalar o'quvchining mavzular va ulardagi hodisalarni faqat o'zlashtirib olishlarinigina nazarda tutib emas,

balki bilimlarni idrok etishga o'rgatish darajasida tuzilishi shart; v) dars jarayoni uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan barcha vositalar xo'jako'rsinga emas, o'quvchi idrokini nazarda tutib tayyorlanishi va tavsiya etilishi zarur; g) o'qituvchi va o'quvchi shaxslarining faoliyati, mas'uliyati, ularning dars jarayoni yoki umuman mavzuni, bilimlarni o'zlashtirish yoki o'zlashtirishdagi ishtiroki, ta'lim tizimiga, kasbiga, vositalar va metodlarga munosabati, ayniqsa, o'zaro ichki va tashqi munosabat (o'quvchi yoki o'qituvchining o'z-o'ziga munosabati - ichki munosabat; o'qituvchi va o'quvchiga ma'muriyatning, boshqalarning, tizimning munosabati - tashqi munosabat) kabilar ona tili o'qitish samaradorligini oshirishga, o'quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlay oladigan komil insonlar sifatida tarbiyalashga xizmat qiluvchi uzviylik va uyg'unlikni ta'minlovchi muhim omillardir; d) «Ma'rifat» gazetasida, «Til va adabiyot ta'limi» jurnalida ona tili o'qitish metodikasiga bag'ishlangan bir soatlik dars ishlanmalari yoki ma'lum

mavzuni o'tishga bag'ishlangan tavsiyalar, teledarslar amaldagi o'quv dasturining kundalik rejasi bilan mos bo'lishi kerak.

2.2. So'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'rgatishda lug'atlar bilan ishlash

A.Avloniy: «... bolalarga harflarni ovozlari bilan tanishtirmak o'qilgan so'zlarni yozdirib ma'nosini bildirmak..., imlo, insho husnixat kabi ilmlarni har kimning o'z tilida yozilmish kitoblardan o'qitib bildirmakdan iborat...»,⁴⁵ -degan edi.

Maktablarda ona tilini o'qitish bilan bog'liq bo'lgan yuqoridagi fikrda katta va chuqur mazmun ifodalangan. Shu bilan birga, unda o'qitishning eng muhim jihatlari, muammolariga e'tiborni qaratish lozimligi ta'kidlangan: «...Bolalarga harflarni ovozlari bilan tanishtirmak...» Maktablarda o'quvchilarni ovoz chiqarib o'qishga o'rgatish masalasi alohida tadqiqot ob'ektidir. Biroq uning muhim ekanligi, «ovoz chiqarib tanishtirish» bola nutqining, umuman, tafakkurining o'sishida katta ahamiyatga ega ekanligi ma'lum. Maktab ta'limida so'zlarning «ma'nolarini bildirmak» masalasi ham nihoyatda muhim bo'lib, Abdulla Avloniy o'z davrida ko'tarib chiqqan bu masala hozirgi kunda ham dolzarb muammodir. Chunki oldingi bobda ham ta'kidlab o'tganimizdek, maktablarda o'quvchilar bilan birgalikda tilning so'z boyligi, so'z ma'nolari bo'yicha olib borilayotgan ishlar, mashg'ulotlar saviyasi va natijalari ko'ngildagidek emas. Buni tadqiqotchilar, tajribali metodistlar ham ta'kidlashgan.⁴⁶ Ushbu holni o'quvchilar va o'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar ham tasdiqlaydi.

Shu o'rinda tilshunos olim N.Mahmudovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish ma'qul: «Tilning mohiyati, vazifasi ko'pincha benihoya jo'n talqin etiladi. Go'yoki til - eng muhim aloqa vositasi bo'lgan ijtimoiy hodisa. Tilning aloqa vositasi ekanligi uning til, eng avvalo, dunyoni ko'rish, eshitish, bilish, idrok etish

⁴⁵ Qarang: Maqsumov A. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari va ma'rifatparvarlik faoliyati. Ped.fan.nomz... diss.-Toshkent. 1967.- 16-b.

⁴⁶ Qosimova N. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitish, Ped.fan.nomz...dis.avtoref,-Toshkent: 1998. 13-b.

vositasidir. Ayni paytda til ruhiy, estetik hodisa ham ekanligini unutmaslik kerak».⁴⁷

Abdulla Avloniyning fikrlariga hamohang bo'lgan bu fikrda tilning mohiyati to'laligicha ochib berilgan. Tilning ana shunday keng va teran mohiyati antik davrdan boshlab xuddi shu tarzda talqin etilgan. Keyingi davrlarda Evropa tilshunoslari orasida ham bunday qarashlarning mavjudligi kuzatiladi. Bu borada Dekart, Gumboldt kabi olimlarning fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. «Siz odamlarga so'zlarning ma'nolarini tushuntirib bering, shunda ularni barcha anglashilmovchiliklarining yarmidan xalos etgan bo'lasiz», - deydi Dekart.

Tilning asosiy vazifasi uning faqat aloqa vositasi bo'lishi emas. G'arbda Geraklit, Demokrit, Aristotel, Epikur, Bekon, Gobbs, Lokk kabi mashhur olimlar, Sharqda al-Farg'oniy, al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy kabi allomalar tilning ijtimoiy vosita sifatidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratishgan. Bundan ayon bo'ladiki, til o'qitish, eng avvalo, o'quvchining tafakkurini rivojlantirish, fikrlash qobiliyatini o'stirishni ko'zda tutadi. Ma'lumki, har bir millat o'ziga xos dunyoqarashga ega bo'lib, ular hodisalarni turlicha talqin qilishga, fahmlashga, idrok etishga intilishadi. Vil'gelm fon Gumboldt ana shu haqiqatdan kelib chiqib: «Tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning turlichaligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko'rishning farqliligi natijasidir»⁴⁸, - deydi.

Zero, milliy fikrlashni shakllantirish, umuman, milliylikni saqlab qolish ham til bilan bog'liqdir.

Tilning milliy ong, milliy tafakkur, milliy tuyg'u, milliy g'urur kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liqligi, ayniqsa, shu tilning lug'aviy birliklari, so'zlarini chuqur his qilishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki inson ongidagi tushunchalar qotib qolgan holda emas, balki doimiy harakatda bo'ladi, o'zgaradi, biri ikkinchisi bilan al-mashadi va hokazo. Qarashlardagi ana shunday doimiy va tabiiy harakat va o'zgarishlar, yangi paydo bo'layotgan tushunchalarning hammasi

⁴⁷ Mahmudov N. Til. O'zbeknoma. -Toshkent: YO'zuvchi, 1998. 10 -b.

⁴⁸ Qarang: Mahmudov N. Ko'rsatilgan risola. 9-b.

ham, avvalo, tilning lug'at tarkibida o'z ifodasini topadi. So'zlar paydo bo'lganida, hatto boshqa tillardan olinganida ham, odatda, bir ma'noli bo'ladi. Biroq taraqqiyot jarayonida ularda o'nlab yangi ma'nolar paydo bo'ladi. O'zbek tilining dunyo tillari ichida eng boy tillardan biri ekanligi ham, nazarimizda, undagi so'zlarda ko'p ma'nolilikning yuqori darajada rivojlanganligidadir. Tildagi so'zlarning ma'nolarini o'rganish va o'rgatish masalasi esa maktablarda qoniqarli darajada emas. Bu muammo o'quvchi va o'qituvchilarning lug'atlar bilan ta'minlanishi, qolaversa, umuman, lug'atchilikning ahvoli bilan bog'liqdir. SHarq olimlari lug'at tuzish ishi bilan ancha qadimdan boshlab shug'ullanishgan. Bu o'rinda M.Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» (XI asr), M.Zamaxshariyning «Muqaddimatul-adab» (sof lug'at emas), Abu Hayyonning «Kitob al idrok li-lison al-atrok» (XIV asr), Jamoliddin ibn Muxanna, Jamoliddin at-Turkiy (XIV-XV asrlar) kabi olimlarning lug'atlari, muallifi noma'lum bo'lgan «Kitob-at-tuhfat-uz-zakiyatu fi-l-lug'at-it turkiya» (XIV asr) kabi juda ko'plab lug'atlarni sanash mumkin. «XV asrdan XIX asrning 2-yarmigacha o'tgan davrda O'rta Osiyoda pedagogik, metodik fikrlar rivojlandi. Bu davrda o'nga yaqin lug'atlar va tilshunoslik asarlari (Tali Imomiyning «Badoe al-lug'at»i (XV asr), Muhib Ali Shamulning «Lug'ati Navoiy»i (XVI asr), Mustafo binni Sodiqning «Abushqa»si (XVI asr), Fazullohning «Lug'ati turkiy» (XVIII asr), Mirza Mehdixonning «Sangloh»i (XVIII asr), Fath Alixonning «Kitobi lug'ati atrokiya»si (XIX asr) yuzaga keldi. Ularda tovush, harf, imlo va talaffuz, so'z ma'nosi va tarjima kabi masalalarni o'zlashtirishga qaratilgan metodik fikrlar mavjud».⁴⁹

XX asr o'rtalarida ham o'zbek lug'atchiligi ma'lum yutuqlarga erishdi, ko'plab lug'atlar nashr qilindi. Biroq lug'atchilik ishlari hali zamon talabidan ancha orqadadir. Maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan imlo, talaffuz va turli izohli lug'atlar yaratishga e'tibor qaratilmayapti.

Mustaqillik sharoitida o'qitishga bo'lgan talab yangilanyapti. Barkamol insonni tarbiyalash esa o'quvchi tafakkurini rivojlantirishni, uning erkin va ijodiy

⁴⁹ G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent: Universitet, 2001. 7-b.

fikrlashini shakllantirishni talab etadi. O'quvchining so'z boyligi uning mustaqil va ijodiy fikrlash darajasini aks ettirib, tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ***maktab o'quvchilariga mo'ljallangan maxsus lug'atlar yaratish vaqti keldi***. Yangi o'quv dasturi va darsliklarda turli lug'atlar bilan ishlashga alohida ahamiyat berilgan, vaqt ajratilgan. Lug'atlar o'quvchilarni ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida qabul qilinib, «Ona tili o'qitishning asosiy vositalari» sirasiga kiritilgan. Maktab dasturida lug'atlar bilan ishlashga qaratilgan bunday e'tibor o'zbek lug'atchiligi oldiga juda tezlik bilan hal qilinishi lozim bo'lgan katta muammoni qo'ydi. Bu muammo avvalgi lug'atlarni qayta nashr ettirish bilangina hal etilmaydi. Ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun maktab o'quvchilari qo'lida «O'zbek tilining izohli lug'ati», «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati», «O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati», «O'zbek tilining frazeologik lug'ati», «Uyadosh so'zlar lug'ati», «Tilshunoslik atamalarining izohli lug'ati» bo'lishi hayotiy zaruratdir. Ammo bunday lug'atlar yaratilmagan ekan, ular bilan ishlamasa ham bo'ladi, degan fikrga bormaslik kerak. Amaldagi darslikda topshiriqlarning ko'pchiligi lug'atlar bilan ishlashni talab etadi.

M.Maksumov «A.Avloniyning pedagogik qarashlari va ma'rifat-parvarlik faoliyati» mavzusidagi nomzodlik dissertastiyasida Abdulla Avloniy o'quvchi dunyoqarashi shakllanishiga alohida e'tibor berganligini ta'kidlab: «Hijjalab o'qitishdan izohlab o'qitishga o'tishning o'ziyoq bolalar savodxonligini hosil qilish bilan birga, ularning tasavvuri, dunyoqarashi, mushohada qilishini rivojlantiradi. O'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatadi»⁵⁰-deydi.

Ko'rinib turibdiki, ushbu fikr bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, milliy tafakkurni o'stirish, lug'atlar bilan ishlashni taqozo etishi to'g'ri ta'kidlangan.

Yuqorida bayon etgan fikrimizni ona tili darsligidagi bir mavzu misolida dalillashimiz mumkin.⁵¹

⁵⁰ Maksumov, A. Avloniyning pedagogik qarashlari va ma'rifatparvarlik faoliyati. Ped. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1967. 84- b.

⁵¹ Mahmudov va b. Ona tili. 5-sinf uchun - T.: Ma'naviyat. 2003.

Darslikning 172-sahifasida «Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolari» deb atalgan mavzu berilgan. 2-topshiriq. Quyida berilgan birikmalar tarkibida kelgan koʻz, temir, quloq soʻzlarining qaysi maʼnoda kelganini ayting. Keltirilgan birikmalardagi soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnoda qoʻllanilishini aniqlash oʻquvchining ixtiyoriga havola etilgan.

Masalan: Temir yoʻl (oʻz maʼnosi)

Temir intizom (koʻchma maʼnoda)

Birinchidan, tavsiya etilgan mashqlar oʻquvchilar tomonidan bajarilgandan keyingina soʻzning qaysi hollarda oʻz maʼnosida qoʻllanishi koʻrsatilgan taʼrif oʻrin oladi. Bunday usul bilan oʻquvchiga oʻtilishi lozim boʻlgan mavzu taʼrifdan oldin anglatiladi.

Ikkinchidan, 487-mashqning topshirigʻida 488-489-mashqlardagi topshiriqlar murakkablashtirib boriladi. Gaplarni oʻqing. Soʻzlarning qaysi maʼnoda qoʻllanganligini aniqlab, oʻzlari bogʻlangan soʻzlar bilan birgalikda oʻz maʼno va koʻchma maʼno sarlavhasi ostida ikki ustunga ajratib yozing.

Bu mashqni bajarishda oʻquvchi oʻz maʼno sarlavhasi ostida; 1. Qattiq ovoz eshitildi; 2. Uy supurilgan, toza. Koʻchma maʼno sarlavhasi ostida: 1. Osmon uzoq, yer qattiq; 2. Doʻstimning qalbi pok, toza gaplarini yozadi. Natijada oʻquvchi mashq bajarish jarayonida soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolarda koʻllanilishi mumkinligi haqida tushunchaga ega boʻladi.

Uchinchidan, keltirilgan mashqlar oʻquvchining har bir soʻzni oʻz oʻrnida, aniq maʼnosini nazarda tutgan holda koʻllash lozimligi haqidagi tushunchasini kengaytiradi. Sinf oʻqituvchisi dars jarayonida *temir yoʻl* birikmasida *temir* soʻzining oʻz maʼnosida qoʻllanganligini aytar ekan, *temir iroda*, *temir odam...* birikmalarini ham eslatadi. Shu oʻrinda Abdulla Oripovning «Temir odam» sheʼrini oʻqish va nima uchun sheʼrga «Temir odam» deb nom qoʻyilganligini izohlash mumkin. Maʼlumki, Abdulla Oripovning bu sheʼrida murakkab matematik tenglamalarni osongina echa oladigan, elektron hisoblash mashinalari bilan ikkilanmay muomalada boʻlish iqtidoriga ega boʻlgan shaxsning yigʻ layotgan

bolaga befarq qarashi mumkinligi va bunday odamni temir odam deb atash lozimligi ko'rsatiladi. O'qituvchi bu o'rinda o'z so'zida muqim turadigan, so'zi bilan amali mos keladigan temir irodali odamlarni xalq ijobiy ma'noda temir odam deb atashini esga soladi. Abdulla Oripov esa o'z she'rida o'zgalar g'amiga befarq qarovchi hissiz, bag'ritosh odamlarga nisbatan temir odam atamasini qo'llagan. Ma'lum bo'ladiki, bitta so'z birikmasi - ikki vaziyatda tamomila zid ma'nolar anglatishini o'quvchilarga tushuntirish imkoni paydo bo'ladi.

Amaldagi o'quv dasturida maktabda «Ona tili o'qitishning vazifalari va maqsadlari», «Ona tili fanining tarkibiy qismlari va tuzilishi asoslari», «Ona tili o'qitishning asosiy vositalari», «Ta'lim usuli», «O'zbek tili qurilishining talqinidagi o'zgarishlar», «Ona tilidan yangi dastur va darsliklarning konseptual asoslari», «Ona tilidan UO'T DTS haqida» kabi qismlar o'rin olgan bo'lib, undan so'ng ona tili kursi uchun ajratilgan umumiy soatlar hajmi sinflar va mavzular bo'yicha taqsimlangan, dastur mundariyasi belgilangan. Umumta'lim maktablarida ona tili o'qitish uchun jami 646 soat ajratilgan. Bu soatlar sinflar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan:

Sinflar	O'quv yilida	Haftada
V sinf	204 soat	6 soatdan
VI sinf	169 soat	5 soatdan
VII sinf	102 soat	3 soatdan
VIII sinf	102 soat	3 soatdan
IX sinf	68 soat	2 soatdan

5-sinfning I choragida «So'zning ma'nosi, uyadosh, ma'nodosh, zid ma'noli va shakldosh so'zlar» mavzularini o'tish uchun 12 soat va iboralarni o'tish uchun 3 soat ajratilgan. Dasturdagi 5-sinf uchun mavzular berilgan qismning II bo'limida, ya'ni o'quv yilining IV chora-gida «Leksikologiya» mavzusi beriladi. Unga 48 soat ajratilgan bo'lib, 8 hafta davomida o'tiladi. Bunda mavzular quyidagicha belgilangan: **«Leksikologiya», «So'zning o'z va ko'chma ma'nolari», «Ma'nodosh so'zlar», «Uyadosh so'zlar», «Zid ma'noli so'zlar», «Shakldosh**

so'zlar», «Atamalar», «Shevaga xos so'zlar», «Tarixiy so'zlar», «Olinma so'zlar», «Iboralar».

Boshqa sinflarda bu mavzularga qaytilmaydi. Bu ma'lumotlarni keltirishdan maqsad shuki, o'quvchi tilning lug'at tizimi bilan bog'liq bo'lgan mavzular, ulardagi hodisalar bilan asosan 5-sinfda tanishadi. 6-9- sinflarda bu mavzularga aynan qaytilmasa-da, darsliklarda o'quvchilarning «Leksikologiya» bo'limida olgan bilimlarini muntazam ravishda amaliyotga tatbiq etish, takomillashtirish uchun takrorlash mashg'ulotlari ko'zda tutilgan, shuningdek, morfologiya va sintaksis mavzulari bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratilgan. Lekin dasturda paronim so'zlar haqida ma'lumot berish ko'zda tutilmagan. Bizningcha, paronimlar uchun dasturda kamida 1 soat vaqt ajratilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi, darslikda bu kamchilik to'ldirilgan.⁵² So'z variantlari mavzusi dasturga ham darslikka ham kiritilmagan.

Dasturda yuqoridagi mavzularning 5-sinfning IV choragida 48 soat hajmida izchil kurs sifatida o'tilishi belgilangan. O'quvchilarning so'z ma'nolarini qiyoslashi, so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini farqlashi, ular haqida ma'lum xulosalarga ega bo'lishi, berilgan so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llab, gaplar tuzishi, ajratilgan so'z va so'z birikmalari, iboralarni to'g'ri yoki ko'chma ma'nolari bilan qiyoslashi, ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llay olish malakasini shakllantirish ona tili darslarining asosiy maqsadidir. Umuman, ona tili darslarida o'quvchida mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ko'zda tutilsa ham, keyinroq mavzularning takrorlanishini nazarda tutib, o'quvchilarga shu mavzular bo'yicha dastlabki bilimlar singdirilishini ta'minlashga erishish lozim. Uyadosh, ma'nodosh, zid ma'noli, shakldosh so'zlar, iboralar mavzularini o'tish jarayonida ham shu maqsad etakchilik qiladi.

Sharoitdan kelib chiqib, mavzular mundarijasi va soatlar hajmi qisman o'zgartirilishi, almashtirilishi mumkin.

⁵² Mahmudov va b. Ona tili. 5-sinf uchun - T. : Ma'naviyat. 2003

Ona tili darslarida o'quvchilarga bilim berish maqsadida, eng avvalo, ularning lug'at boyligiga e'tiborni qaratish lozim. O'quvchining so'z boyligi uning o'qigan badiiy asarlari, turli ilmiy-ommabop adabiyotlar, darsliklar, ommaviy axborot vositalari orqali to'plangan ma'lumotlari orqali belgilanadi. So'z boyligi yillar davomida ongli va ongsiz tarzda to'planadi. Ona tili darslarida o'quvchi xotirasida to'plangan so'zlardan to'g'ri foydalanish, ularni talaffuz qilish, xatosiz yozish bo'yicha metodik tavsiyalar beriladi. Nutqni rivojlantirish bilan birga bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri savodxonlik – imloviy xatolarni kamaytirishga ham erishish mumkin.

Agar «Imlo lug'ati» va boshqa lug'atlar bilan ishlash shu tarzda yo'lga qo'yilsa, biz ona tili ta'limidagi uzluksizlikning bir jihati-ni ta'minlashga erishamiz. Mazkur faslda o'quvchining so'z boyligini oshirishni nazarda tutib, lug'atlar bilan ishlash yuzasidan berilgan metodik tavsiyalar yuqori sinflarda takomillashtiriladi. «Ona tili ta'limidan asosiy maqsad «O'quvchilarda tilning ichki imkoniyatlaridan, uning tasviriy vositalaridan nutq jarayonida samarali va o'rinli foydalanish ko'nikmalarini, fikrni turli yo'sin va shakllarda ifodalay olish malakalarini hosil qilishdan iborat ekan, bunga erishishni boy va barkamol so'z xazinasiz tasavvur etib bo'lmaydi. SHuning uchun so'z boyligi omili davlat standartida muhim o'rin egallashi lozim»⁵³, deya mutaxassis olimlar akademik listey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining so'z boyligini oshirishda lug'atlar bilan ishlash omilining muhimligini bayon qiladilar.

O'quvchilarni lug'atlar bilan ishlashga o'rgatishni ko'p hollarda 5-sinfdan boshlash lozimligi ta'kidlanadi. Bizningcha esa, lug'at bilan ishlashga o'rgatishni tizimiy bir shaklda boshlang'ich ta'limdayoq boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu davrda lug'atlardagi umumiste'molda eng ko'p qo'llanuvchi, talaffuzi qiyin so'zlarga e'tibor qaratgan ma'qul. Umuman olganda, o'quvchilarning lug'at ustida ishlashi, lug'atlar darsliklarning ajralmas qismiga aylanishi (shunday bo'lishi zarurligini biz qat'iy tavsiya qilmoqchimiz), lug'atlar umumta'lim maktablaridagi

⁵³ Ne'matov H., G'ulomov A., Ziyodova T. Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda o'quvchilar so'z boyligini oshirish. – Akademik listey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun qo'llanma. – Toshkent: «Xalq merosi». 2000.7-b.

har bir dars, mashg'ulotlarning tarkibiy qismi bo'lib qolishi lozim. Buning uchun, **birinchidan**, har bir fan o'qituvchisi o'z sohasi doirasida lug'at daftari yuritishni tashkil qilishi juda muhimdir. Buning boshqa bir jihati ham borki, bunda o'quvchi o'z lug'at zaxirasiga ega bo'lib boradi. *So'zlarni yozib borish o'quvchilarning lug'at boyligini ko'paytirish bilan birga, savodxonligini ham oshiradi.* Bunga erishmaslik hozirgi kun ta'lim tizimi talablarida ko'zda tutilayotgan maqsadni to'la amalga oshirishga monelik qiladi.

Chunki o'quvchi o'zi o'qiyotgan fanlar, ularning sohalari bo'yicha ko'plab atamalarni yaxshi ajratib berolmaydi, ularning ma'nolarini aniq bilmaydi. O'qituvchi maktabda lug'at bilan ishlashni, birinchi navbatda, o'quvchiga lug'at tuzdirishdan boshlasa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Dars jarayonida matn o'qilganda, darslikda biror izoh talab qilinadigan so'z bo'lsa, uni muntazam ravishda lug'atga kiritish an'anaga aylantirilsa, bu, albatta, yaxshi natija beradi. Masalan, matnda *maqom* so'zi uchrab qoldi. Agar o'quvchi uning matndagi ma'nosini bilmasa, bu matnni to'g'ri anglamaydi. Shunga ko'ra, bu so'zni darhol izohlab, lug'at daftariga yozdirib qo'yish lozim. **Maqom.** 1. joy, o'rin, turar joy; 2. daraja, bosqich; 3. musiqada asosiy kuy, ohang.⁵⁴

O'quvchi ana shu so'zning ma'nolarini yaxshi anglasagina, "Ularning oilasi shu maqomda yashaydi" jumlasini mazmunini to'g'ri anglashi mumkin. Ya'ni "Ularning oilasi shu **joyda** yashaydi" deb anglashga imkoniyat yaratilgan bo'ladi. **Maqom** so'zi boshqa manbada quyidagicha izohlanadi:²

1. Musiqiy ohang, kuy.
2. Tartib, o'lchov.
3. O'yinda usulga, ritmga mos qo'l, oyoq... harakati.
4. Xatti-harakat, usul.
5. O'rin, joy (kam qo'llaniladi).
6. Martaba, mavqe (kam qo'llaniladi).

⁵⁴ O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at, -Toshkent: Fan, 1953. 190-b.

⁵⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. Moskva: Russkiy yazyk. 1981. I tom. - 456-b.

Keltirilgan izohlardan ko'rinib turibdiki, bu gapdagi **maqom** so'zini «Ularning oilasi shu tartibda yashaydi» deb ham tushunish mumkin. Binobarin, o'quvchini so'z ma'nolarini izohlash bilan birga, uning kontekstdagi ma'nosini ilg'ay olishga o'rgatish kerak.

Darslikda ilova qilingan lug'atlardan foydalangan holda, avvalo, har bir o'qituvchi o'zi uchun o'tiladigan mavzularga mo'ljallab metodik qo'llanma shaklidagi lug'atlar to'plamini yaratishi kerak. So'ng dars davomida o'quvchilar tomonidan yuritiladigan «Lug'at daftari»ga kerakli so'zlar yozib borilsa, ular darslikda berilgan mashqlarni, vazifa va topshiriqlarni bajarish uchun tayanch material bo'ladi. Lug'at daftarlaridagi so'zlarni ko'paytirish maqsadida guruhlararo, sinflararo tashkil qilingan musobaqalar o'quvchilarni mustaqil ishlashga, kutubxonalardan foydalanishga o'rgatadi, kitobga bo'lgan ma'naviy ehtiyojni kuchaytiradi. Tajriba-sinov darslari o'tkazilgan maktablarda uyadosh so'zlar lug'ati, ma'nodosh so'zlar lug'ati, izohli lug'at, iboralarning izohli lug'ati maxsus taxtaga joylashtirilib, vaqti-vaqti bilan ular yangisiga almashtirib turildi.

Xullas, **birinchidan**, o'quvchida ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish maqsadida, maktablarda ona tili o'qitishning yangi shakllarini izlash bilan birga, oldingi ta'lim tizimida mavjud bo'lgan va bugungi kunda yaxshi samara berayotgan lug'at bilan ishlash usuli o'qitish tizimining tarkibiy qismi, muhim elementiga aylantirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot darslarida bunga alohida e'tibor qaratish zarurati hozirgi kunning bosh talablaridandir.

Ikkinchidan, o'quvchilar bilan birgalikda o'zbek tilining omo-nim, sinonim, antonim, paronim, so'z variantlari, frazeologizm lug'atlari bilan har dars jarayonida, ma'lum muddat ishlab borishni tashkil etish, notanish shunday birliklar uchraganda ularni maxsus, uyadosh so'zlar lug'ati shaklida yozib borish yo'lini tutish maqsadga muvofiqdir. Masalan, bir o'quvchi *shoshdim* fe'lini ishlatib qolsa, darhol uning ibora shaklidagi ma'nodoshlarini toptirish, ularni qayd qildirish kerak: *oyog'ini qo'lga olib chopmoq*, *oyog'ini qo'ltiqlab chopmoq*, *oyog'i kuygan tovuqday pitirlamoq*, *o'pkasini qo'ltiqlamoq* va hokazolar. Yoki, aksincha, biror

asarda uchragan frazeologizmni boshqalari bilan almashtirish kabilar mashg'ulotlar jarayonida e'tiborga olinsa, bu nutq o'stirishda yaxshi samara beradi. Bunday ishni tashkil qilish uchun lug'atlar etarli bo'lmagan taqdirda ham, o'quvchi va o'qituvchi hamkorligida anchagina lug'at zaxirasini yaratish mumkin.

Jumladan, bir o'quvchi **o't** (*maysa*) so'zini aytsa, darhol shu so'z bilan shakldoshlik hosil qiluvchi so'zlarni toptirish zarurati paydo bo'ladi: **o't(moq)** - fe'l, **o't** - a'zo, **o't** - olov; **ot** - ism, **ot** - fe'l, **ot** - hayvon; **kul** - fe'l, **kul** - narsa; **chang** - cholg'u asbobi, **chang** - g'ubor kabi. SHakldosh so'zlarni shu tarzda davom ettirish mumkin qadar har bir darsning tarkibiy qismiga aylantirib borish natijasida o'quvchilarning so'zlarni ma'no jihatdan farqlab qo'llash malakalarini takomillashtirishga erishish mumkin.

5-sinf darsligida⁵⁶ «Shakldosh so'zlar» (omonimlar) mavzusini o'zlashtirish uchun 493-495-mashqlarda bir qancha topshiriqlar berilgan bo'lib, ular, asosan, biz tavsiya qilgan mashg'ulotlar (o'yinlar)da hosil bo'lgan ko'nikmalarni umumlashtiradi.

Uchinchidan, kishi ismlari, joy nomlarining variantlariga alohida e'tibor berib, darsdan tashqari bo'lsa-da "So'zning variantlari" tarzidagi turli-tuman mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda jumladan, R.Shukurovning "So'z variantlarining leksik-semantik differensiasiyasi"⁵⁷ va shu tarzidagi boshqa ilmiy-ommabop asarlardan foydalanish mumkin. Ushbu kitob, haqiqatan ham, o'quvchilar bilan xuddi shu maqsadda, shu yo'nalishda ishlar tashkil etish uchun tuzilgan bo'lib, unda darsliklarda berilgan so'zlarning variantlarini qo'llash lozim bo'lgan so'zlar tushunarli izohlab berilganki, bu qo'llanma bilan ishlashda o'quvchilar so'z boyligini ortirib qolmasdan, so'z variantlarini unga yondosh hodisalardan ma'nodosh va paronim so'zlardan farqlashga o'rganadilar.

Bunday mashg'ulotlarni tashkil etish natijasida o'quvchi tilimizning boyligidan hayratga tushadi, so'zlar sir-sinoatidan bahramand bo'ladi.

⁵⁶ Mahmudov va b. Ona tili. 5-sinf uchun - T. : Ma'naviyat. 2003, 173-174 b.

⁵⁷ Shukurov R. So'z variantlarining leksik-semantik differensiasiyasi. T. Fan. 2006

Shuni aytish kerakki, bunday ishlar yuzakilik (yo'l-yo'lakaylik) tarzida o'tkazilsa, uzviylik, izchilik saqlanmasa, kutilgandek natija bermaydi. Demak, lug'at bilan ishlashni bu taxlitda tashkil etish to'g'ridan-to'g'ri o'quvchining so'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'rganishini osonlashtiradi.

To'rtinchidan, sinonimlar, antonimlar, paronimlarningizohli lug'atlar bilan ishlash alohida ahamiyatga egadir. Shunga ko'ra, bu tur lug'atlar bilan ishlash shakllarini puxta o'ylab tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlarning, hatto, 3-4 ta ma'nosini ham yaxshi bilmaydilar (affikslarning ko'p ma'noliligi, omonimiyasi, sinonimiyasi kabi hodisalar haqida ham juda yuzaki bilimlarga ega), sinonimlar orasida nozik ma'no farqlarini bitta sinonimik qator doirasida ham ajratib, izohlab berisholmaydi.

Beshinchidan, o'quvchilarga eskirgan so'zlar va yangi kirib kelayotgan so'zlarni yozdirish, ularni qiyoslab o'rgatish yo'lini tutish lozim. Istiqloldan keyin paydo bo'lgan va shu davrga kelib iste'moldan chiqqan so'zlar ro'yxatini tuzdirish mumkin.

Oltinchidan, mamlakatimiz hayvonlari, o'simliklari dunyosi nomlarini o'quvchilarga muntazam tushuntirib, ulardan o'quvchilarni xabardor qilib borish muhimdir. Ma'lumki, O'zbekistonda qovun va uzumning 300 dan ortiq nomi bor. Birgina ot (hayvon)ning yoshi, rangi, boshqa jihatlariga ko'ra, *saman, ayg'ir, toy, qulun, biya, targ'il, ko'kyol, qorabayir, oq yol...* kabi 50 dan ortiq nomi borligi ham adabiyotlarda qayd etilganki, bunday holatlarni o'rik, shaftoli kabi ko'plab o'simlik va hayvon nomlariga nisbatan ham aytish mumkin.

Yettinchidan, yuqori sinflarda ensiklopedik lug'atlar bilan ishlashni tashkil etish zarur. Chunki ayrim o'quvchilar ensiklopedik lug'atlar qanday bo'lishi haqida tasavvurga ham ega emas.

Lug'at bilan ishlashning ma'lum bir uzluksiz, izchil tizimi shakllantirilib, uni o'quvchining kundalik ishiga aylantirishga erishish kerak. O'quvchining so'z boyligi qancha ko'p bo'lsa, so'zlarning ma'nolarini qancha chuqur va keng anglab etsa, uning fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Ona tili darslarida o'quvchini so'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'rgatishning boshqa omillari ham ko'p bo'lishiga qaramay, lug'at bilan ishlash omili, bizningcha, eng muhimdir. Ulardan «Leksikologiya» («So'zshunoslik») bo'limida yordamchi vosita sifatida qo'llab foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi.

Ona tili darslari samaradorligini oshirish maqsadida endilikda turli noan'anaviy metodlardan, xususan, kompyuter texnikasidan foydalanilmoqda. O'quvchilarimizning fikr doirasini kengaytirish, mustaqil fikrlashga, to'g'ri xulosalar chiqarishga o'rgatish uchun ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan matnlar ustida ishlanadi. Vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehr-oqibat, insof-diyonat tuyg'ularini hosil qilishni yuksaltirish maqsadida ham yozma, ham og'zaki nutqni takomillashtirishga hissa qo'shadigan mavzularda yozma ishlar o'tkaziladi. Lekin ko'p hollarda yozma ish tekshirilganda, o'quvchilarni og'zaki savol-javobga yoki muloqotga jalb qilganda ko'nglimiz to'lmaydi. Yoshlarning yozma va og'zaki nutqlaridagi nuqsonlar sababini izlaymiz. Inson nutqining ravonligi uning so'z zaxirasiga bog'liqdir. Til fanining "Leksikologiya" qismi yuzasidan 5-sinf o'quvchilariga leksika so'zining lug'aviy ma'nosi haqida, antonim, sinonim, omonim, paronimlar, so'z variantlari, atamalar, olinma so'zlar, tarixiy so'zlar, iboralar haqida ma'lumot beriladi, darslikda tavsiya qilingan mashqlar bajariladi. Shu o'rinda o'quvchilarni imlo lug'atidan, umuman, lug'atlardan foydalanishga o'rgatishga ham alohida e'tibor berish zarurdir. Chunki aynan mana shu davrdan boshlab "Imlo lug'ati"dan yoki boshqa lug'atlardan faqat u yoki bu so'zning to'g'ri yozilishini tekshirish uchun emas, balki so'z boyligini oshirish maqsadida ham foydalanish lozimligini o'quvchiga uqdirish kerak. Har bir darsning biror bir qismida "lug'at diktanti" (yozilishi qiyin bo'lgan so'zlar, "x" va "h", "o" va "a" harflarining to'g'ri ishlatilishi...) yoki mustaqil ishlarda, albatta, o'quvchi bilan birgalikda "Imlo lug'ati" ustida ishlashga erishish lozim.

O'rta maktab o'quvchisiga so'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'rgatishning eng asosiysi badiiy asar mutolaasi orqali amalga oshirishdir. Lekin

bola - o'quvchi badiiy asar o'qiyotganida, birinchi navbatda, tabiiyki, uning mazmunini o'zlashtirishga harakat qiladi. To'g'ri, u til yuzasidan ma'lum topshiriq berilganida, o'sha vazifani bajarish maqsadida badiiy asar tiliga, grammatik qoidalarining badiiy adabiyotga tatbiq etilishiga ahamiyat berishi mumkin. Biroq bu hol faqat jiddiy topshiriq berilganda, topshiriqni bajarish qat'iy talab etilganida yuz beradi. Misol uchun zid ma'noli so'zlar mavzusida tavsiya qilingan 130-mashqda shunday topshiriq berilgan: «Zumrad va Qimmat» ertagi asosida quyidagi jadvalni to'ldiring:

Zumradning ijobiy fazilatlarini ifodalovchi so'zlar	Qimmatning salbiy xislatlarini ifodalovchi so'zlar
mehnatsevar	dangasa

Qolgan hollarda o'quvchi badiiy asardagi voqealar ketidan "quvishga" alohida e'tibor berib, yozuvchining tildan foydalanish mahoratiga diqqat qilmaydi. SHunisi ham xarakterliki, o'quvchi badiiy matnda uchragan imlo xatolarini tez payqaydi. Bu uning o'quvchiligi, yosh xususiyati, psixologiyasi kabi juda ko'p omillar asosida sodir bo'ladi. Shunga qaramay, baribir, o'quvchi badiiy asar tilini maxsus talab va maqsad qo'yilganidagina o'rganadi.

Shuning uchun ham ona tili darslarida badiiy matnlardan keng foydalanish, ularning tuzilish xususiyatlariga o'quvchi e'tiborini qaratish har doim o'qituvchi diqqat markazida bo'lishi zarurdir. Shuningdek, adabiyot darslarida ham badiiy matnning til xususiyatlariga e'tibor qaratish, badiiy-tasviriy vositalarga diqqat qilish yaxshi natija beradi. So'zlar, iboralar, hatto boshqa birliklarning ma'nolari, qo'llanishlari, tarixiy, sheva yoki umuman, notanish so'zlarga e'tibor qaratilishi talab qilinsa, *o'quvchi* mustaqil ravishda o'zining so'z boyligini oshirishga intiladi. Lug'atda uchragan so'zlarning imlosini bilish bilan birgalikda, ularning ma'nolarini ham mushohada qiladi, yozma yoki og'zaki matn yaratish jarayonida ular ishtirokida gaplar tuzishga urinadi. Yozma nutqda uchraydigan uslubiy xatolarni ongli ravishda, mustaqil to'g'rilashga erishadi.

Demak, o'quvchilarni 5-sinfdanoq "Lug'atlar" ustida ishlashga o'rgatish va darslarni shu nuqtai nazardan tashkil qilish muhimdir. O'quvchilar savodxonligini oshirish maqsadida o'tkaziladigan lug'at diktanti shunday tashkil qilinishi kerakki, unda *o'quvchi* ba'zida yozilishi qiyin bo'lgan so'zlarni o'zi tanlasin, o'z xatosini o'zi tekshirsin. Natijada, lug'atlar bilan ishlashga ham, lug'atning mashg'ulot va darslikning tarkibiy qismiga aylanishiga ham erishiladi.

2.3. So'z variantlari va unga yondosh hodisalarni o'tishda o'yin texnologiyasi.

Hozirgi kunda dars jarayonini jonli tarzda o'tkazish, undagi yangi mazmunni o'quvchilarga to'laroq etkazish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy texnologiyaning dolzarb talabi bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchilardan ham dars samaradorligini oshiradigan, o'quvchilar faolligini kuchaytiradigan texnologiyalarni qo'llash talab etilmoqda. Bunday talablarga asosan o'quvchilarda o'zaro raqobatni o'rnatish uchun ona tili darslarida o'yin mashg'ulotlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chunki o'yin texnologiyasi o'quvchilar orasida faollikni yanada kuchaytiradi va mavzuga oid bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Dars jarayonida asosiy faollik o'qituvchining o'zida mujassam bo'lishi kerak. SHundagina o'quvchilar orasidagi faollikni ta'minlay oladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda turli xil o'yinlardan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llash nihoyatda qulay bo'lgan bir qator o'yinli texnologiyalar yaratilmoqda. O'yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy malaka va ko'nikmalariga aylanishini ta'minlabgina qolmay, balki ta'lim oluvchilarda muayyan axloqiy-irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga o'z ulushini qo'shadi.

D.B.El'koninning fikriga ko'ra, "Xuddi shu oddiygina o'yin orqali o'sib

kelayotgan bolaning tasavvuri ilk marotaba qaror topa boshlaydi”.⁵⁸ Bir qancha izlanishlar shu fikrga olib keladiki, o'yin – bu taraqqiyotning rolidir, uning kelajakka, rivojlanishga qaratilgan, undan kelib chiqadigan qonun-qoidalar, iroda hamda matonat maktabidir.

O'qituvchi 5-sinf ona tili darslarida so'z ma'nolarini o'rgatish jarayonida darsda quyidagi o'yin texnologiyalaridan foydalanishi mumkin.

Zakovat o'yini

Bu o'yinni o'tkazishda dastlab auditoriyani o'yinga moslashtirish lozim bo'ladi. O'yin ishtirokchilari test yordamida saralabolinalar. Yuqori ball olgan o'quvchilar o'yinda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi. O'yin qatnashchilari 6-8 kishidan iborat bo'ladi. Qolgan o'quvchilar esa o'yinni tomoshabin sifatida kuzatib turishadi. O'yin uchun mo'ljallangan savollar konvertga joylashtirilib, qo'yiladi. Guruh sardori savolni olib o'qituvchiga beradi. O'qituvchi savolni o'qib eshittiradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o'yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi.

“So'zning atash ma'nosi” mavzusini o'rganishda bu o'yinni qo'llash va quyidagi savollardan foydalanish mumkin.

Savol: Atash ma'nosi qanday ma'noga aytiladi? Misollar keltiring.

Javob: So'zlarning borliqdagi qanday narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarni bildirishi uning atash ma'nosi sanaladi. Masalan, daftar deganimizda borliqda ko'z oldimizda yozish uchun mo'ljallangan o'quv quroli g'aydalanadi. Bu esa uning atash ma'nosi hisoblanadi.

Savol: Qanday so'zlar atash ma'nosiga ega?

Javob: Faqat mustaqil so'zlarga atash ma'nosiga ega bo'ladi. Olmoshlar bundan mustasno. Ular atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlarga ishora qiladi.

O'yin shu tariqa davom ettiriladi. Savollarga to'g'ri javob bergan guruh g'olib sanaladi.

⁵⁸ Ельконин Д.В. Психология игров. Москва. Педагогика. 1978.

6x6x6 o'yini

Ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lganlaridan yana biri 6x6x6 metodidir. Bu metoddan foydalanishda ona tili o'qituvchisida pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarni oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metodda sinfdagi o'quvchilar olti-oltitadan guruhlarga bo'linadilar. Guruhlarga muayyan nomlar bo'linadi. Dars mavzusi e'lon qilinadi, o'qituvchi guruh a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdag bitta vakil qoladi va o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rganadilar, unga o'z munosabatlarini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi. Ham bu fikrlar ularning o'zlari tomonidan taxlil qilinadi va baholanadi.

“To'g'ri top” o'yinidan ma'nodosh so'zlar mavzusini o'rganishda foydalanish mumkin. Buning uchun ikkita plakat kerak bo'ladi. O'qituvchi birinchi plakatga ma'nodosh so'zlardagi asosiy (bosh) so'zni yozib qo'ygan bo'ladi, ikkinchisida esa bosh so'zning ma'nodoshlari aralash holatda beriladi. O'quvchilar asosiy so'zning ma'nodoshlarini to'g'ri topib yozishlari kerak. Masalan:

1. Katta
2. Vatan
3. YUz
4. Sovg'a

Ma'nodoshlari: hadya, o'lka, chehra, tortiq, gigant, bet, oraz, ulug', tuhfa, diyor, aft, buyuk, yurt, bashara, armug'on, zamin.

“Kim biladi?” o'yinini so'z ma'nolari mavzulari bo'yicha mustahkamlash darsida o'tkazish yaxshi samara beradi. Buning uchun o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi guruh a'zolari o'tilgan mavzular (So'z ma'nolari ko'zda tutilpti) yuzasidan ta'rifning boshlanishini aytadilar, ikkinchi guruh a'zolari esa

aytilgan ta'rifni davom ettirishlari kerak bo'ladi. Keyingi navbatda ikkinchi guruh a'zolari ta'rifni boshaydilar. Birinchi guruh a'zolari davom ettiradilar. Har bir to'g'ri javob uchun yutuqli kartochkalar beriladi. Bu o'yindan boshqa mavzularni ham o'rganishda yoki dars jarayonida o'quvchilarni zeriktirishga yo'l qo'ymaslik, qiziktirish maqsadida o'tkazish mumkin. Masalan:

1-guruh: Bir umumiy ma'noni ifodalovchi

2-guruh: Ikki va undan ortiq so'zlarga ma'nodosh so'zlar deyiladi.

Aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib,

1-guruh: Turli atash ma'nolarini bildirgan so'zlarga shakldosh so'zlar deyiladi.

O'yin shu tariqa davom ettiriladi. Ushbu o'yinni o'tkazish uchun o'quvchilardan kuchli xotira, bilim, asosiysi, tezkorlik, chaqqonlik talab etiladi.

Limerik

Sinf doskasiga limerik osib qo'yiladi. Har bir ijodiy guruhdan bittadan vakil limerikning ikki-uch satrini tanlab oladi.

Vazifa: Tanlab olingan satrlar mazmuniga moslab, she'riy matn tuzishni davom ettirish.

Vazifani bajarish uchun 10 minut vaqt beriladi. So'ngra har bir guruhdan bir kishi taqdimotga chiqadi. O'yin so'ngida o'qituvchi bajarilgan ishlarni sharxlaydi.

Masalan,

Omonjon uxlab qolib

Ko'rdi qiziq tush ...

I guruh: Dangasalik qilmasdan Turoq pastga tush.

Erta turib yuzin yuvmoq

Xo'p yaxshi odat.

II guruh: ***Bu odatni ep bilganga***

Yuz karra rahmat.

Hamma bilar, bahordan so'ng

kelar yoz;

III guruh: ***Bu fasllar haqida o'ylab ko'rib***

insho yoz.

O'tib borgani sari mani yoshim

IV guruh: ***Yoshligimni o'ylab oqar ko'zimdan yoshim.***

Taqdimot qismida guruh a'zolari shakldosh so'zlarni sharxlaydilar.

Refleksiya o'yini

Bu o'yinda unitilgan bilimlar esga solinadi.

Ma'lumki, 5-sinfda o'tilgan "Leksikologiya" bo'limi 6-sinfda ham o'rgatiladi. Bunda refleksiya o'yini orqali o'rgatilgan bilimlar esga solinadi. Darslikning 53-sahifasidagi 132-mashqda berilgan she'rni (tuyuqni) o'qing. O'zingiz bilgan shunday she'rlarni eslang.

1. Olma eksa bog'iga har kim,
Mehmonga ol, e demasmi?
"Olma" mening mehmondo'st xalqim
Odatiga yot so'z emasmi? (E.V.)
2. Kellar sel, ko'kda goho bo'lsa chaqmoq,
Zarar qilgay danakni tishda chaqmoq.
Yomondir ikki o'rtoq orasida
Urishtirmoq uchun bir-biriga chaqmoq. (Habibiy)
3. Shom yanglig' yonadur boshingda o't,
Ko'z yoshimdan er yuzida undi o't.
Qon yoshim qildi yo'lingni lolazor,
Muncha taqsir ayladim, qonimdan o't. (Navoiy)

Topishmoqlar.

1. Bir otasi, bir onasi

Necha yuz ming bolasi. (quyosh, oy, yulduzlar)

2. Oltin tegirmon toshi

Oltin egarning qoshi.

Uni topgan kishining,

Yuz yigirmada yoshi. (tish)

3. Bir otim bor ovushgina

Piyodaga kovushgina. (eshak)

4. Tutdan bizga ko'ylak to'qir. (ipak qurti)

5. Osh ichida tosh

Tosh ichida osh. (o'rik)

6. Qizil qiz er ostida

Sochlari er ustida. (qizilcha)

O'quvchilar tomonidan yodga olingan she'r, topishmoqlar taqdimot etilgach, mavzuga moslari doskaga yozib sharhlanadi.

Refleksiya o'yinini quyidagi tarzda ham tashkil etish mumkin; bunda o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, bir-birlariga ishonch muhiti ta'minlanadi; o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari o'stiriladi.

O'yin uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi. "Leksikologiya" bo'limi 5-sinfning I choragida va IV choragida hamda 6-sinfda o'rganiladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Guruh a'zolaridan I chorakda yoki 5-sinfda "Leksikologiya" bo'limi yuzasidan olingan bilimlarni xotirlash so'raladi. Bu jarayon dastlab noverbal bajariladi (ichki nutq), so'ngra xotiralar bilan guruhda o'rtoqlashiladi.

Bu o'yinda xotirlash jarayoniga turtki bo'ladigan manbalardan foydalanish mumkin (masalan, ko'rgazmali qurol, lug'at, hayotiy voqea, matn yoki she'r kabilar)

Mazkur manbalar yordamida esga olingan mavzular guruhlariga bo'lib

beriladi:

- I guruh – shakldosh soʻzlar
- II guruh – maʼnodosh soʻzlar
- III guruh – zid maʼnoli soʻzlar
- IV guruh – paronimlar
- V guruh – soʻz variantlari

yuzasidan taqdimotga tayyorlanadilar. Taqdimot soʻngida fikrlar umumlashtiriladi.

Til xazinasiga sayohat

Darsda oʻrganilayotgan mavzu xazina yashiringan boylik deb eʼln qilinadi. Kichik ijodiy guruh aʼzolari yangi mavzuga doir oʻzlari va oʻrtoqlarida mavjud boʻlgan tasavvurlar bilan oʻrtoqlashadilar. Har bir guruh aʼzosi daftariga oʻrtoqlaridan bilib olgan maʼlumotlarni yozib boradi. Eng muhim maʼlumotlar doskaga yozib boriladi va xazina sirlari oydinlashib boradi.

“Til xazinasiga sayohat” oʻyinini tashkil etish uchun oldindan ikki katta quti yasab, “SHakldosh soʻzlar”, “Maʼnodosh soʻzlar”, “Zid maʼnoli soʻzlar”, “Paronimlar”, “Soʻz variantlari” mavzulariga oid maʼlumotlar shu qutilarga solinadi. Oʻquvchilarga yuqoridagi mavzularga tayyorlanib kelishlari uchun oldindan manbalar beriladi.

Darsda oʻquvchilar guruhlariga boʻlinadi. Guruh aʼzolari mavzuga doir tasavvur va fikrlari bilan oʻrtoqlashadilar. Har bir guruh bildirilgan fikrlarni yozib boradilar. Yozilgan maʼlumotlar ikkinchi boʻsh qutiga solinadi. Soʻngra oʻqituvchi tomonidan dastlab birinchi quti ochilib, oʻqituvchi tomonidan shakldosh, maʼnodosh, zid maʼnoli, paronim soʻzlar va soʻz variantlariga doir maʼlumotlar bilan tanishiladi. Soʻng ikkinchi qutidagi guruhlar tomonidan yozilgan maʼlumotlar oʻqiladi. Maʼlumotlar solishtiriladi, izohlanadi.

Bingo

Mazkur oʻyinni tashkil etish uchun oʻqituvchi Bingo jadval tuzadi, jadval

ichiga mavzuga oid eng muhim ma'lumotlar va topshiriqlar joylashtiriladi. Dars jarayonida Bingo – jadval har bir o'quvchiga tarqatiladi. Qaysi o'quvchi Bingo – jadvalni birinchi bo'lib bajarsa, “Bingo” deb xitob qiladi.

Birinchilardan bo'lib bajargan o'quvchilar boshqa o'quvchilarga yordamlashadi. G'olib o'quvchilar rag'batlantiriladi. Bu o'yindan yakunlovchi o'yin sifatida foydalanish mumkin.

Quyida bu dars jarayonida foydalangan “Bingo” – jadvalni havola etamiz.

		B	I	N	G	O
1.	Ma'nodosh	Bir ma'no asosi doirasida turli ma'no qirralarini ifodalovchi so'zlardir. Misol:	Anglatgan ma'no qirrasiga ko'ra farqlanadi. Misol:	Uslubiy bahosiga ko'ra farqlanadi. Misol va sharh.	Nutqiy xoslanish belgisiga ko'ra. Misol va sharh.	Do'st, dunyo, istak, izlamoq so'zlariga ma'nodosh toping.
2.	Shakldosh	Yozilishi yoki aytilishi bir xil bo'lib ma'nolari har xil bo'lgan so'zlardir. Misol:	Shakldosh so'zlardan o'zbek adabiyotida tuyuq yaratiladi. Misol va sharh.	qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi <u>ot</u> , Yaxshilik qil bolam, yomonlikni <u>ot</u> . Sharhlang.	Ot, tush, kul, yoz, sog' so'zlarining shakldoshlarini toping. Misol:	Yuz, qir, tut, qo'y, o't so'zlariga gap tuzing. Misol:
3.	Zil ma'noli	Bir-biriga zid bo'lgan narsa, harakat, belgi, miqdorini atab kelgan so'zlardir. Misol:	Zid ma'noli so'zlardan tazod san'ati yaratiladi. Misol:	Maqollarda zid ma'noli so'zlar ishlatiladi: Misol:	Zid ma'noli so'zlar ijobiy va salbiy bo'yoqqa ega bo'lishi mumkin. Misol va sharh.	Go'zal, oq, yaxshi, shirin, yig'lamoq, jasur so'zlariga zid ma'noli so'zlar toping. Misol:
4.	Paronim	Faqat bir tovush bilan farqlanuvchi, lekin bir xil talaffuz qilinadigan so'zlardir. Misol:	Talaffuzi yaqin bo'lganligi uchun bunday so'zlarni bir-biri bilan almashtirib qo'yish ehtimoli bor. Misol va sharh.	Abzal – afzal, amr – amir so'zlari qatnashgan gaplar tuzing. Misol:	Daho, pol, bob, tub so'zlaridan paronim hosil qiling.	Afzal so'zining ma'nodoshini, paronimini, antonimini toping.
5.	So'z variantlari	Bir so'zning ikki yoki undan ortiq shaklda ifodalanishi. Misol:	Mazmun va mohiyati jihatidan aynan bir xil va bir-biriga yaqin so'zlar. Misol:	Adab – odob, arava – aroba, kabutar – kaptar so'zlari qatnashgan gaplar tuzing.	So'zlarning abdiy adabiyotda xilma-xillik variantlar uchraydi. Misol va sharh.	Terminalogiyaga oid so'z variantlari ham uchraydi. Misol va sharh.

Rolli o'yinlar

O'yinni o'tkazishdan maqsad:

1. O'quvchilarni o'zaro fikr almashishiga, mustaqil fikrlashga yo'naltirish;
2. O'quvchilarni bog'lanishli og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini o'stirish;
3. Nutqiy malakalarni rivojlantirish;

O'yin uchun 20 daqiqa ajratiladi: O'quvchilar tomonidan "Alisherning zukkoligi" mavzusida sahna ko'rinishi namoyish etiladi.

Alisherning zukkoligi

G'iyosiddin Kichkina ertalab o'g'li bilan suhbatlashib o'tirardi. Mahram kirib keldi. G'iyosiddin unga "Tut" – dedilar. Mahram hayron bo'lib, o'ngu chapga qaradi.

- Tut keltiring, hazratim tut emoqchilar, - izoh berdi yosh Alisher.

Tut pishig'i edi, G'iyosiddin suyukli, zukko o'g'li Alisher bilan tut emoqchi edi.

I topshiriq:

Mahramning nima uchun hayron bo'lganligini tushuntiring.

Davra qurib o'tirgan guruh a'zolari taqdimotga chiqib o'z fikrlarini bildiradilar.

II topshiriq:

"Alisherning zukkoligi" mavzusiga o'hshash sahna ko'rinishi tayyorlang (soch, tort, o't, qo'y, ot kabi so'zlar misolida).

O'z o'rningni top

Ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, paronim so'z va so'z variantlaridan misol aralash holda guruhlariga tarqatiladi. Har bir guruhga mazkur mavzular bo'lib beriladi.

I guruh – "SHakldosh"

II guruh – “Ma’nodosh”

III guruh – “Zid ma’noli”

IV guruh – “Paronimlar”

V guruh – “So’z variantlari”

Har bir guruh o’ziga tegishli so’zlarni tanlab, o’z o’rniga qo’yadi.

Ijodiy mashqlar

Bu o’yin ijodkorlikka da’vat etuvchi o’yinlardandir. O’yinni o’tkazishdan maqsad:

- tasavvurni o’stirishga da’vat etish;
- guruh bo’lib ishlashda hamkorlikka o’rgatish.

Guruhlarga bo’linadilar. Guruh a’zolaridan bir kishi o’z tasavvurida tug’ilgan qisqa jumlani aytadi va shu asosida bog’li matn tuziladi.

Matndan mavzuga mos so’zlar topilib sharhlanadi. Mazkur o’yin orqali o’quvchilarning jamoa bo’lib bog’li matn tuzish ko’nikmasi hosil bo’ladi.

Ona tili ta’limida bunday o’yin texnologiyalarini qo’llash, ulardan foydalanish juda katta samara beradi. O’quvchilarning bunday darslarda qo’llaniladigan o’yin texnologiyalari orqali dunyoqarashi kengayadi, faolligi kuchayadi, ta’lim jarayonlariga bo’lgan e’tibor va qiziqishlari ortadi, bilim va ko’nikmalari mustahkamlanadi. Eng muhimi esa, o’qituvchi ta’lim samaradorligiga va o’z oldiga qo’ygan maqsadlariga erishadi.

XULOSA

Tilshunos Krushevskiy: “Til yangilanib oʻz sostavini baʼzi faktorlar bilan buzayotganga oʻxshaydi-ku, lekin aslida esa bu faktorlar til uchun oliy darajada foydalidir. Ular tilga doimiy yangi materiallar etkazib turadi” – degan fikrlari ayrim olimlarning soʻz variantlarini salbiy hodisa sifatida baholaganlari uchun aytilgan boʻlsa ajab emas.

Til madaniyati umummadaniyatning ajralmas qismi boʻlib, uning yuksalishida kuchli quroldir. Til ijtimoiy hayotda muhim rol oʻynaydi. SHuning uchun ham har bir kishidan tilning taraqqiyot qonunlarini mukammal bilish, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlish talab etilayotgan davrda bizningcha, savodxonlik bilan bogʻliq boʻlgan soʻz variantlarini ham toʻliq oʻrganish lozim.

Shu maqsadda ishimizda soʻz variantlari va unga aloqador masalalar yuzasidan oʻz qarashlarimizni bayon qilish asosida quyidagi xulosalarni chiqardik:

1. Oʻzbek tilshunosligining soʻnggi yutuqlariga asoslangan holda soʻz variantlariga doir qarashlar talqin etildi.
2. Ilmiy-nazariy adabiyotlarda soʻz variantlari talqinining nazariyadagi holati, metodik adabiyotlarda masalaning qay darajada yoritilganligini oʻrganish “Ona tili” dastur va darsliklari tahlil etildi.
3. Ona tili taʼlimiga qoʻyiladigan bosh maqsad “ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ogʻzaki, yozma shakllarda toʻgʻri, ravon ifodalash koʻnikmalarini shakllantirish” boʻlganligi uchun ham soʻz variantlari va unga yondosh hodisalarni oʻrgatish jarayonida oʻquvchilarning fikrlash salohiyatini, mantiqiy tafakkurini oʻstirishga xizmat qiladigan ilgʻor taʼlim usullari va vositalardan oʻrinli foydalanish zarur bu jarayonning samarasi har bir darsda oʻqituvchi-oʻquvchi-oʻquv qurollari va vositalari munosabatlarining qay yoʻsinda tashkil etilishiga bogʻliq.
4. Ona tili darslarini tashkil etish shunday murakkab jarayonki, unga hamma vaqt ham bir qolipda, bir xil yoʻnalishda yondashib boʻlmaydi. Bu esa

o'quvchini fikrlashga yo'naltiruvchi interfaol o'yinlardan foydalanishni taqozo etadi. Mazkur yo'nalishda ona tili o'qituvchilariga metodik jihatdan yordam beruvchi tavsiyalar, qo'llanmalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar namunalarining yaratilishi bugungi kunda juda zarurligi shu bilan asoslanadi.

5. O'quvchilarni lug'at turlari, xususan, imlo lug'ati, omonim, sinonim, antonim, paronim, so'z variantlari kabi lingvistik lug'atlar bilan ishlashga o'rgatish orqali ularning dunyoqarashini boyitish, mantiqiy tafakkurini o'stirish imkoniyatlari kengayadi. Lug'at bilan muntazam ishlash o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga, so'zlarning ma'nolarini anglashga, savodxonlik darajasini ko'tarishga xizmat qiladi.

Ilova

Variantlar so'zligi

O'zak variantlar

Aylanay, aynanay (s.t.)	Behi, bihi
Aynima, aynama (dial.)	Boqiy, boqi (s.t)
Ark, arka	Bog'bon, bog'von (s.t)
Araq, aroq	Bog'lam, boylam
Arqoq, arqog'	Bog'liq, boylik (st)
Albatta, albat	Bugun, bukun
Alifbe, alifbo (esk)	Buzruk, buzurg
Aloe, aloy	Bihisht, behisht
Alqor, alqar, arxar	Blank, blanka
Amaliyot, amaliyat	Bobo, buva
Andaza, andoza	Boykot, boyqut
Anovi, anavi (anov, anav, anuv) (s.t)	Bolgor, bulg'or
Angrov, ang'rov (dial)	Vaj, vajh
Arava, aroba	Vayron, vayrona
Arasat, arosat	Valloh, valohi
Ariza, arza	Valvas, vasvas, vosvos
Axiri, axi (y) ri	Vahima, vahm, vahma
Aslaha, asloxo	Voy, vay
Asp, asb	Gavmush, govmush, govmush
Atir, atr	Gavhar, guhar
Atigi, atayi	Gado, gadoy
Aqida, aqiyda	Gajak, gajjak
Bayir, bayri	Gazeta, gazet
Battar, badtar	Giyo, giyoh
Bedov, bedav	Govron, gavron

Gupchak, gipchak	Jamoa, jamoat
Guvala, guvalak	Jandarm, jandarma
Gurkak, gurvak	Jingalak, jingilak
Go'yo, go'yoki	Jihat, jahat
Go'sht, go'sh	Jo, joy
Dada, doda (dial)	Jonivor, jonvor
Daf, dab, dap	Juva, jo'ba (dial)
Darvish, darvesh	Juda, ja (s.t)
Darvoza, darboza	Jo'mrak, jumak (s.t)
Darcha, daricha	Zaxkash, zakkash
Dastgir, dasgir (s.t)	Zangi, zanj
Dastmoya, dastmo (s.t)	Zap, zab
Devor, devol, dovol	Zot, zod
Diram, dirham	Zuvala, zuvola
Doim, doimo	Zulmat, zulumot
Doktor, do'xtir (s.t)	Igna, nina, yigna, yiyna (dial)
Domla, domula, domullo (dial)	Isiriq, isirig', isriq (s.t)
Dori, doru	Isloh, islohat
Dukur, dupur	Istisno, istig'no
Duma, do'ma, do'm (s.t)	Isfixon, ispixon (s.t)
YOpqich, yopg'ich	Ishora, ishorat
Jabduq, jabdug'	Ishtaha, ishtiha
Jabr, javr	Kavsh, kavish
Javdar, jvdar	Kaniz, kanizak
Javdari, jovdari	Kalit, kalid
Jazbar, jazbal	Kamzul, kamzil
Jazoir, jazoyir	Kamolot, kamolat, komol
Jayron, jayran, jiyron	Kat, kart (dumba)
Janbil, jambul, jambil, jambl	Kaft, kap (s.t)

Kemtik, kertik	Mezbon, mizbon (s.t)
Keskir, kesgir	Men, man
Kesov, ko'sov (dial)	Mirza, mirzo
Kollej, kollejd	Misra, misrai (k.q.)
Kuz, kuzak	Miqti, miqqi (s.t) (pishiq)
Kuy, ko'y	Mozor, mozorot
Kulgi, kulgu	Moyil, moil
Kulcha, kulucha	Moma, momo
Ko'ylak, ko'ynak (s.t)	Moh, mah
Ko'moch, ko'mach	Muguz, mugiz
Kurfaz, ko'rfaz	Mulla, mullo
Kesov, ko'sov, kosov (dial)	Munnir, munkur
Labz, lafz (s.t)	Muomala, muomila
Lavanch, lavand (km)	Murvat, muruvat
Laxcha, laqcha (s.t)	Musht, mushtum
La'nat, na'lat	Mo'ylab, mo'ylav
Laqab, laqam	Mo'may, no'may (s.t)
Lahim, lahm	Mo'nchoq, munchoq, minchoq (s.t)
Mavze, mavzei (joy)	Mo'ri, mo'rkon (kt)
Mavzu, mavzi (tema)	Nabira, nevara, navara (s.t)
Mavqe, mavqei (obro'si)	Nazora, nazzora
Mayoq, mayak	Nazr, niyoz
Majmu, majmua	Namoz, nomoz
Mazgil, manzil	Nargis, nargiz
Mashina, moshina (s.t)	Nahs, nas
Mash'al, mash'ala	Nishona, nishon
Ma'no, ma'ni (s.t.)	Nishtar, nashtar, nish
Mag'iz, mag'z	Noib, noyib
Mahliqo, mohliqo	Norozi, norizo

Nos, nosvoy	Rabiy, rabbim
No'xat, nuxat, noxot (s.t)	Rastrat, rastrata
No'xta, nuxta	Raxt, rax
Obbo, obba	Rivoch, rovoch (dial)
Obod, obodon	Rioya, ra'ya (s.t)
Odob, adab	Ruju, rujux
Oziq, ozuqa	Ruku, rukum (kl.ad)
Oyna, oynak, oyina, oina	Ro'ja, ro'yja, rujo, ruyjo
Ont, ond	Ro'para, ro'baro', ro'paru
Oriq, orriq	Sabil, savil (s.t)
Og'iz, og'zi	Saboq, sabaq
Oho, oh	Savod, sovod
Paymona, paymon	Savat, sabat
Payraha, payrah	Savlat, sovlav
Pakana, parmi (s.t)	Savsar, suvsar, susar (s.t)
Parrak, para	Sadaf, sadap
Pastqam, pasqam	Sadaqa, sotqa (s.t)
Patnis, patnus	Sado, sazo
Pachaq, pachog	Sadoq, sadaq, sadog'
Pinj, pinjiq	Sazoyi, sazzoyi
Pir, pirr	Sayid, said
Pista, pistachka (s.t)	Sayis, soyie
Picha, pichi (fol'k)	Sayr, sayron (fol'k)
Podsho, podshox, poshsho, poshsha	Sayroqi, sayroq
Poygak, poygox	Sal, sag'al (dial)
Ponis, poniz (s.t)	Saltanat, santalat
Popuk, po'pak (dial)	Sambit, sanbit
Pushmon, pushaymon	Sanatoriya, sanatoriy
Rabot, ravot, rovot (karvonsaroy)	Sandon, sondon

Selob, selava	So'loq, so'log'
Sen, san (dial)	So'lg'un, so'lg'in
Siyna, sina	So'nik, so'niq
Sinov, sinoq (s.t)	Tabaq, tavaq, taboq
Sin'ka, senka (s.t)	Tabaqa, tavaqa
Sovrin, sovrin	Tabib, tayib
Sobit, sovut (s.t)	Tavba, tovba, tovva (s.t)
Sovchi, yovchi (dial)	Tavoze, tavozu, tavozi
Sochiq, sochig', sochoq (s.t)	Tag, teg (dial)
Solqa, solqi	Tadbiq, tatbiq (s.t)
Soch, choch (dial)	Takabbur, takabbir, takobir
Soqiy, soqi	Takfin, tayfin (s.t)
Soqov, saqov	Tarbiya, tarbiyat
Soqqa, soqa	Tarvuz, tarbuz
Sog'in, sog'im, sog'indi	Tarelka, talinka (s.t)
Sog'ona, sag'ana, sog'ana	Tarmoq, tormoq
Subut, subit	Tarnov, tanov (s.t)
Suvloq, suvlov (dial)	Taroveh, tarobeh
Suvori, suvor (dial)	Tarozi, tarozu
Suvluq, suvliq, suvlug'	Tarroq, tarog'
Sulug', suluq, suvlig', so'liq (s.t)	Tarrak, tara, tirrak (dial)
Surp, surup	Tartib, tartibot
Suvsur, suqsur, suhsir	Tarqoq, tarqov
Suchuk, chuchuk	Tasalli, tasallo
Suyak, so'ngak	Tafsir, tafsil
Sug'ur, so'g'ir (s.t), suvir (dial)	Taft, tapt (s.t)
So'zan, so'zon	Tashrif, tashrih
So'kchak, so'kichak	Ta'b, tab'
So'lak, so'lakay (s.t)	Tanob, tanop (s.t)

Tansa, tansa (s.t)	Tupik, tupirik
Tappak, tappi	Tutqa, tutqi
Taralla, tarala	Tuya, teva
Tizim, chizim (s.t)	Tumoch, tumoq
Tikon, tikan (s.t)	To'yona, tuyana (s.t)
Ting, ting'	Tuziq, to'zg'in
Tirak, tirgak, tirk'ov	To'kin, to'kim (dial)
Tirinka, trinka	To'rs, to'ng
Tirmizak, tirancha	U, bu, ul, bul
Tirnoq, tirmog'	Ugra, uvra (s.t)
Tirr, tir	Uzala, o'zala (dial)
Tirraqi, tirroqi	Ulish, ulush
Tirqit, tirqach	Uchov, uchala
Tiss, tishsh	Urvoq, urpoq (s.t)
Tob, top	Urta, urro
Tobut, tovut (s.t)	Uslub, usul
Tovush, dovush (s.t)	Uchun, chun
Toz, tos (s.t)	Faytun, fayton
Toy, toycha, toychoq toychiq (s.t)	Faktor, faktir (s.t)
Tomosha, tamosho	Falloh, falloq
Tomoq, tomog'	Faner, fanera
Totim, tatim	Farang, parang (s.t)
Traktor, traktr (s.t)	Xayr, xay (s.t)
Tuganak, to'ganak	Xalfa, halifa
Tuzoq, tuzog'	Xivich, xipchin (s.t)
Tuyqus, tuyqis	Xiyla, xila
To'lak, to'llak	Xirpa, xirpi
Tumbochka, tumba	Xomak, xamak
Tunnel, tonnell	Xunuk, xunik

Xo'tik, xutik	cho'qmoq)
Chavgon, chavqon, chavqi	Shaxdam, shaxdam
Cho'qon (ot chopadigan maydon)	Shox, sho
Chayon, chiyon	Shu, shul (km)
Chilmak, charmak	Shuvut, shivit (s.t)
Chana, chona	Ship, shift
Cherdak, chordoq	Shoyi, shoxi
Cherkas, cherkez	Shukur, shukr
Chivin, chibin (dial)	Sho'ng'ish, sho'mg'ish
Chiviq, chibiq (dial)	Edi, erdi
Chigal, chigil	Ezgu, ezgi
Chiziq, tiziq	Eman, iman
Choriq, chorug'	Emish, mish
Chovoq, chavoq	Esa, ersa (km)
Chog', choq	E'zoz, ihrom
Chuv, chu, chuq	Yuvosh, yuvvosh, yovosh
Chuvur, cho'bir	Yugan, jugan
Chuchuk, suchuk	Yumush, yumish
Cho'ziq, cho'zg'in (dial)	Yung, jun
Cho'kka, cho'k	Yupqa, yuqa (dial)
Cho'qmor, cho'qmoq	Yuqimchil, yuqma
Shabada, shabboda	Yaylov, yayloq, yoyloq
Shamnam, shudring	Yaktak, yaxtak
Shaydo, shaydoyi	Yalla, yallo
Sha't, shasht	Yashar, yoshar
Shalp, shalop, shap	O'zbek, o'zbak (s.t)
Shafe, shafe', shafli	O'tgan, o'tkan
Shaftoli, Shoptoli (S.T)	O'pish, o'pich
Shashpar, shashvar (go'rzi,	O'qloq, o'qlov

Qabariq, qavariq	Qoriq, qortiq
Qabza, qabzam	Qochoq, qochqin
Qabat, qavat	Qo'ton, qo'tan (zool)
Qabza, qabzam	G'ovg'o, g'ovg'a (s.t)
Qabziyat, qabz	G'ozot, g'ozovot
Qaznoq, qaznog'	G'ayir, g'ayur
Qayni, qaynish	G'usl, g'usul
Qayg'u, qayg'i	G'o'dur, g'udir
Qayliq, qalliq, qallig'	Havoyi, havoii
Qaroq, qarog'	Hajviya, hajviyot
Qamchi, qamchin (s.t)	Hayron, hayrona (s.t)
Qaboq, qoboq	Hakalak, hakkalak
Qavuq, qovuq, qobiq, qavuq	Hamano, hamana, hamono
Qavm, qavom	Hangoma, hangama (s.t)
Qanora, qanara	Hargiz, hargez (dial)
Qarmoq, qalmoq (s.t)	Hasib, hasip
Qarol, qorol	Hi jriy, hijriya
Qat'iy, qat'i	Hiyla, hilla (s.t)
Qiyofa, qiyofat	Himoya, himoyat
Qiyg'os, qiyg'och	Hindi, hindu
Qirol, korolb	Havaza, hovoza
Qiya, qiyo	Hovuz, havz (kt)
Qora, qaro (kt)	Hovur, havir, havr (kt)
Qiyqim, qiyqindi, qiyqa	Hoshiya, hoshya
Qiyg'ir, qirg'ay	
Qurdum, qurdim (fol'k) chuqur daryo	Affiksli variantlar
Quruq, quriq	
Qurg'ur, qurg'ir	Azalgi, azaliy
Qutqu, qutqi	Azonda, azonlab

Ayyorlik, ayyorgarchilik	YOqikli, yoqqlik
Aytarli, aytarlik	Jadidchilik, jadidizm
Aytgandey, aytgandek	Jizg'anak, jizg'inak
Anchayin, anchaki	Jiyjazor, jiydazorlik
Arziguday, arzugudek	Jozibador, jozibakor
Arizabozlik, arizavozlik	Judolik, jumolig', judolik
Afsungar, afsunchi	Junbush, junbish
Aqlli, aqllik	Jo'jabirday, jo'jabirdek
Ahmoqlik, ahmoqchilik	Zero, zeroqi
Baadab, boadab	Zimdan, zimnan (s.t)
Bandalik, bandachilik	Ikkovlon, ikkovlan
Baobru, boobro'	Ilinchoq, ilinchiq
Bag'ayrat, bog'ayrat	Imomlik, imomgarchilik
Boqqollik, boqqolchilik	Isrofgarlik, isrofgarchilik
Beboshbog', beboshboq	Itoatli, itoatililik
Bilag'on, biarmon	Itifoqchi, ittifoqdosh
Bilvosita, bavoosita	Ihlosli, ihlosmand
Bo'zagar, bo'zachi	Ishvali, ishvakor
Vaznli, vazndor	Ishratxona, ishratgox
Vafodor, vafoli	Ishqibozlik, ishqibozchilik
Go'rkov, go'rkovchi	Yigirmalab, yigirmatalab
Go'yo, go'yoki	Yo'qchilik, yo'qliq
Davlatli, davlatmand	Kabobxona, kabobpazlik
Dallollik, dallolchilik	Kavshamoq, kavshanmoq
Dang'allama, dang'allagan	Kamaymoq, kamimoq
Darbozabon, darbozobon	Kambag'allik, kambag'alchilik
Dardli, dardmand	Kaptarboz, kaptarvoz
Yopinchiq, yopunchiq	Kekkaygan, kekkayma
Yopg'ich, yopqich	Keyincha, keyinchalik

Keksaymoq, keksarmoq	Merganlik, merganchilik
Kelaber, kelaver	Miltiramoq, mildiramoq
Kelinlik, kelinchaklik	Minnatdor, minnatlorchilik
Kelishgan, kelishimli (s.t)	Minnatli, minnatlik
Kirakash, kirachi	Mullavachcha, mullabachcha
Kisavur, kisabur	Munozaraviy, munozarali
Kosibchilik, kosiblik	Musofirchilik, musofirlik
Kulag'on, kulong'ich	Musulmonlik, musulmonchilik
Kungirador, kungirali	Mushukvachcha, mushukbachcha
Ko'kalam, ko'kalamzor	Muqovasoz, muqovachi
Ko'kintir, ko'kimtil, ko'kish	Nazariyotchi, nazariyatchi
Ko'makchi, ko'makdosh	Nayzabardor, nayzador
Ko'ngilchan, ko'ngilchak (s.t)	Naylayin, naylaram (dial)
Ko'chirmachi, ko'kirmakash	Namlik, namlilik
Latifachi, latifago'y	Namunali, namunaviy
Loygarchilik, loygarlik	Nafratomuz, nafratli
Lofchi, lofzan (fol'k)	Nashakash, nashavan
Mavsumi, mavsumli	Nechundir, nechunkim
Maynabozlik, maynavozchilik	Nonboy, nonvoy (s.t)
Mamnuniyat, mamnunlik	Noshukurlik, noshukurchilik
Mantiqiy, mantiqli	Obodli, adabli
Mardikorlik, mardikorchilik	Oynavand, oynavon
Mardlarcha, mardona	Oynachi, oynasoz
Martalab, martabalab	Ommabop, ommabob
Maslahatgo'y, maslahatdosh,	Ordenli, ordendor
maslahatdor	Otlik, otliq, otlig'
Masxaraboz, masxaravoz	Oshiqlik, oshiqchalik
Ma'nodor, ma'noli	Pahsakash, paxsachi
Mahsuldor, mahsulli	Pirpiratmoq, pirpiramoq

Porlamoq, porillamoq	Tentiramoq, tentiranlamoq
Ravshanlashmoq, ravshanlamoq	Tetiklanmok, tetiklashmoq
Rangdor, rangli	Tinmagur, tinmag'ur
Rashkli, rashkchi	Tinchlantirmoq, tinchlanmoq
Sababchi, sababkor	Tiragich, tirkovich, tirnagich
Salmoqdor, salmoqli	Tiriklay, tirikligicha
Sanqimoq, sang'imoq	Tog'avachcha, tog'abachcha
Saroybon, saroyvon	To'movlamoq, to'movlanmoq
Sarsongarchilik, sarsonlik	To'rtov, to'rtovlon
Sekinlashmoq, sekinlamoq	Uymalanmoq, uymalashmoq
Seroblik, serobchilik	Uyquchi, uyquchil (dial)
Sersoya, soyador, soyali	Unaqa, unday, ungacha, ungachayin
Sipogarlik, sipogarchilik	(diol)
Sipqarmoq, sipqormoq	Faqirlashmoq, faqirlamoq (s.t)
Sitamgar, sitamgarda (dial)	Farahli, farohmond
Sovutqich, sovutgich	Folbin folchi, polchi(s.t)
Soddalik, soddachilik	Xayolchan, xayolkash
Soxtagar, soxtakor	Xaqchil, xaqchin (s.t)
Suvluq, suvlik, suvlig'	Xafalik, xafachilik
Suyanchiq, suyanchig'	Xiyonatchi, xiyonatkor
Tajavuzkor, tajavuzchi	Xirilloq, xirildoq
Tajribakor, tajribador	Xodimlik, xodimchilik
Tayyorgarlik, tayyorgarchilik	Xolavachcha, xolabachcha
Talovchi, talonchi	Xoldor, xoli
Ta'magir, ta'machi	Xunobgarlik, xunobgarchilik
Tamg'ali, tamg'ador	Chamanzor, chamanzorlik
Tarafdor, tarafkash	Changalzor, changalzorlik
Tarjimon, tarjimachi	Chindan, chinakam, chinakamiga
Tahqirli, tahqirona	Chirsildoq, chirsilloq

Chopqir, chopog'on
 Chorvachi, chorvakor
 Cho'zinchoq, cho'ziq
 Cho'liq, cho'liqchi
 Shaytonlamoq, shaytonlanmoq
 Shilvirmoq, shivillamoq (s.t)
 Shashpar, shashvar
 Sheriklik, shirinchilik
 Shirador, shirali
 Shunday, shundayin
 Ezgu, ezgi
 Ezmalik, ezmagarchilik
 Ekinzor, ekinzorlik
 Erinchoq, erinchak
 Erkaklarcha, erkakcha
 Eronlik, eroniy
 Yuzakilik, yuzachilik
 Yulmoq, yulqimoq
 Yulg'un, yulg'in
 Yutqizish, yutqiziq
 Yuqumli, yuqumchil
 Yalovbardor, yalovdor
 Yaroqli, yararli
 Yashirin, yashiriq
 Yaqinlashmoq, yaqinlamoq
 O'earona, o'jarigasiga
 O'yinchoq, o'yinchiq
 O'lguday, o'lgudek, o'lguncha
 O'limtik, o'limsa, o'limta, o'lgan

O'pkalamoq, o'pkalanmoq
 O'rnashmoq, o'rnamoq
 O'rtanmoq, o'rtamoq
 O'rtoqliq, o'rtoqchilik
 O'simta, o'siqcha
 O'smoqchilamoq, o'smoqlamoq
 O'tzor, o'tzorlik
 O'tirgich, o'tirg'ich
 O'shanday, o'shanaqa, o'shandaqa
 O'shal, o'shandoq, o'shandayin
 O'g'rincha, o'g'rinchasiga
 Qadimgiday, qadimgidek, qadimgicha
 Qadoqlovchi, qadoqchi
 Qaerga, qayga, qayoqqa
 Qalloblik, qallobchilik
 Qanday, qanaqa, qandaqa (s.t)
 Qandaqangi, qanaqanki
 Qilichboz, qilichvoz
 Qimorboz, qimorvoz
 Qistirg'ich, qistirgich
 Qistov, qistoq
 Qitday, qitdek
 Qishlik, qishki
 Qopog'on, qopog'ich, qopong'ich
 Qoramtir, qoramtil (s.t)
 Qoramug', qoramiq
 Qorovullik, qorovulchilik
 Qochqinchi, qochqir, qochqoq
 Qoqindiq, qoqundiq

Qudalik, qudachalik
 Quldorlik, qulchilik
 Qulmag'ur, qulmag'ir
 Quruqlik, qurg'oq
 Qurg'ur, qurg'ir
 Qo'g'irchoqboz, qo'g'irchoqvoz
 G'arvachcha, g'arbachcha
 G'irromlik, g'irromchilik
 G'uvillamoq, g'uvurlamoq
 G'o'dillamoq, g'udrillamoq
 G'o'ng'irlamoq, g'o'ng'illamoq
 Hozilomuz, hazilomiz
 Hayinchak, hayinchalak
 Hayxotday, hayxotdek
 Halvogar, holvachi
 Haligiday, haligidek
 Haligidaqa, haliydaqa(s.t)
 Hammollik, hammomchilik
 Hashamdor, hashamli
 Hiylagar, hiylakor, hiylachi(s.t)
 Homilador, homilali
 Hunarmandchilik, hunarmandlik
 Hungramoq, ho'ngiramoq

Qo'shma so'z variantlari

Abadulabad, abad
 Aytolish, aytaolish
 Arzongarov, arzongirov

Assalomalaykum, assalomualaykum
 Ayamajuz, ayamajiz (et)
 Bodomqovoq, bodomqabog'
 Boybobo, boybuva
 Boyvachcha, boybachcha
 Boyo'g'ri, boyo'g'li (s.t.)
 Bug'doyrang, bug'doyrangli
 Gulisapsar, gulisafsar
 Dastarra, dasarra
 Dastkalla, daskala
 Dastmoya, dasmoya
 Dastsho'y, dassho', dastshov (dial),
 dastshuv (dial), dashshu, dashkil
 (dial)
 Devonavachcha, devonabachcha
 Devqomat, devqomatli
 Dukkipeshona, do'ngpeshona
 Dumaxona, do'maxona
 Evormoq, eb yubormoq
 Yozolmoq, yoza olmoq
 Yolpo'sh, yolpech
 Yozolmoq, yoza olmoq
 Jiqqa musht, jiqqamush
 Juvonmard, jumard
 Zambarg'aldak, zambilg'altak
 Zarbof, zarboft
 Zardevor, zarduvol, zardovor (s.t.)
 Zeboqat, zeboqomat
 Zoriqavermoq, zoriqabermoq

Ikkovlon, ikkovalan	Po'stdumba, po'sdumba
Ishbilarmon, ishbilarman	Rohatbadan, rohatibadan
Ishbuzar, ishbuzarman, ishbuzarmon	Sadqaysar, sadaqaisar, sadaqaysar
Ishyoqmas, ish yoqmas	Sayisxona, soyisxona (dial)
Ishratxona, ishratgox	Sanoyimakka, makkaisano (bot)
Yiilavermoq, yig'ilavermoq	Sarvinoz, sarvnoz
Kabobxona, kabobpazlik	Sarviqomat, sarviqomad
Kalomullo, kalomillo	Sochpopuk, chochpopuk (dial)
Kamarband, kamarbasta	Tarallabedod, taralabedod
Kelolish, kela olish	Toshtarosh, toshkesar
Kirpich, kirpo'sh	Tog'avachcha, tog'abachcha
Kiyovnarkar, kuyovnovkar,	Umrboqi, umriboqi
kuyovnikar,	Uravermoq, ura bermoq
kuyovnukar, kuyovno'kar,	Xazonrezgilik, xazonrezgi
kiyovnavkar,	Xushmo'ylov, xushmo'ylab
kiyovnorkar, kiyovnikar, kiyovnikor,	Chillagurazon, chillakiro'zon
kiyovnukor, kiyovno'kar, kiyovno'kor	Chilonjiyda, jilonjiyda
Ko'rolish, ko'ra olish	Chordevor, choldevor, choldivor (s.t)
Mardimaydon, mardumaydon	Shamchiroq, shamchirog'
Mehnatsevar, mehnatchan	Shamg'alat, shamg'alad
Molimardumxo'r, mardumxo'r	Shosupa, shohsupa
Mullavachcha, mullabachcha	Shotut, shohtut
Nonboy, nonvoy	Shohanshoh, shohonshoh
Norbachcha, norcha	Echkiemar, echkemar
Oftobro'ya, oftobro'y	Yumronqoziq, yumron
Oftobchuvoq, oftobshuvoq	Yuravermoq, yurabermoq
Og'ilxona, og'il	Yurak burug', yurak buruq
Oqpodsho, oqposhsho	O'qiyolmoq, o'qiy olmoq
Pillapoya, pillapocha (s.t)	Qironqora, qironqara (dial)

Qirqbo'g'in, qirqbo'g'im
 Qirqkokil, qirq kokil
 Qozikalon, qozi kalon
 Qorabaron, qoravaron(zool)
 Qo'shqavat, qo'shqabat

Juft so'z variantlari

Alay - bulay, alay - balay
 Alpang- talpang, alpon - talpon
 Ash- pash, hash- pash
 Ashqol- dashqol, oshqol- doshqol
 Ag'dar - to'ntar, ontar - to'ntar
 Bir biriga, bir biroviga
 Gina qudrat, gina- qudurat
 Gina- qudurat, gina- gudur
 Dum- dumaloq, yum- yumaloq
 Irim- chirim, irim- sirim
 Latta- putta, latta-lutta
 Odob- ahloq, adab- ahloq
 Oldi- sotdi, oliq- soliq
 Ota- bobo, ota- buva
 Ot arava, ot aroba
 Risq- ro'z, risqi- ro'z, risq- ro'z, rizqi- ro'z
 Sen- men, san- man
 Telba- teskari, telva- teskari
 To'kin- sochin, to'kin- chochan
 U- bu, ul- bul

Unda- bunda, unda- munda
 Xayr- ma'zur, xayr- xush
 Chala- chulpa, chalama- chatti,
 chalakam- chatti
 SHo'rva- sho'lti, sho'lti- sho'rva
 Erta- kech, ertayu- kech
 Esli- xushli, es- xushli
 Eshik- teshik, eshik- elik
 Yumaloq- yastiq, yumaloq- yassi
 Yakka- dukka, yakkam- dukkam
 O'rim- yig'im, o'rim- terim
 Qari- qartang, qari- quri
 Qiyin- qistov, qiyin- qistoq
 Quyuq- suyuq, suyuq- quyuq
 Qo'lli- oyoqli, qo'l- oyoqli
 Hazil- mazax, hazil- mazil
 Hakkam- dukkam, hakka- dukka

Takroriy so'z variantlari

Ahyon- ahyon, ahyon- ahyonda
 Bag' - bag', bag' - bug'
 Bij- bij, vij- vij
 Vang- vang, ang- aong
 Vag'ir- vug'ur, vog'ir- vug'ur
 Voy- voy, vay- vay
 Gurs- gurs, gusur- gusur
 Dang' - dang', dang'ir- dung'ur
 Jaz- jaz, jaq- jaq
 Kars- kars, kars- kurs

Kasir- kasir, kasir- kusur
 Lim- lim, limmo- lim
 Lop- loyiq, loppa- loyiq
 Patir- patir, patira- putur
 Tapir- tapir, tapira- tupur
 Tax- tax, taxlam- taxlam
 Taq- taq, taq- tuq
 Tilka- tilka, tilka- pora
 Ting' - ting', ting'ir- ting'ir
 Chars- chars, chars- churs
 Chag' - chag', chag' - chug'
 Chaqir- chaqir, chaqir- chuqir
 Shatir- shutir,shaqir- shuqir
 Shaq- shaq, shaq- shuq
 Yum- yum, yumma- yum
 Qabatma- qabat, qavatma- qavat
 Qars- qars, qars- qurs
 Qag' - qag', qag' - qug'
 Qult- qult, qul- qul
 Qo'sha- qo'sha, qo'sh- qo'sh
 G'ajir- g'ajir, g'ijir- g'ijir
 G'art- g'art, g'art- g'urt
 G'at- g'at, g'at- g'ut
 G'aq- g'aq, g'aq- g'o'q
 G'ag' - g'ag', g'a- g'a
 G'ijir- g'ijir, g'ij- g'ij
 G'irra- g'irra, g'izza- g'izza
 G'ovur- g'uvur, g'ovir- g'uvur
 Hars- hars, hars- hurs

Hoy- hoy, hoy- hu, hoy- huy
 Ho'ng- hung , ho'ngir- ho'ngir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. T., "O'zbekiston", 2010.
2. Axmanova O.S. O foneticheskix i morfologicheskix variantax slova//Akademiku V.V.Vinogradovu k ego sheestdesyatiletuyu. M., 1956.
3. Axmanova O.S. Slovar' lingvisticheskix terminov. M., 1966.
4. Barannikova L.I. O razgranichenii yazyka i dialektika//Yazyk obshchestvo. M., Nauka, 1968.
5. Boboeva A. Gazeta tilida "zimmaga olmoq" iborasining variantlari//O'zbek tili va adabiyoti. 1978. 2-son, 56-58-betlar.
6. Boboeva A. Hozirgi o'zbek adabiy tilida variantdorlik//O'zbek tili va adabiyoti. 1979. 6-son.
7. Bozorova D.X. Istoriya formirovaniya i razvitie zoologicheskoy terminologii uzbekskogo yazyka. (Na materiale nazvaniy itis). T., 1978, s. 133.
8. Boymuhamedova Klara. Variantlik muammosi va "Kuntug'mish" dostoni//Pedagogik ta'lim, 2005, №2, 60-64-betlar.
9. Gorbachevich K.S. Variantivnost' slova i yazykovaya norma. L., 1978.
10. Graudina L.K. Grammaticheskie varianty. Opyt chastotnoy slovarya. M., 1971.
11. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. T., Fan, 1977.
12. Jalolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., "Talqin", 2005.
13. Jonuzoqov Sh., Ko'p ma'noli so'zlar va ularning fonovariantlari. T., Til va adabiyot ta'limi, 2007, 3-son, 44-46-betlar.
14. Zokirov Q.Z., Jalolxonov H.A. Botanikadan ruscha-o'zbekcha ensiklopedik lug'at. T., 1973, 201-bet.
15. Inomiddinova O. Saida Zunnonova she'riyatida paronimlarning qo'llanilishi. T., Til va adabiyot ta'limi. 2010, 4-son, 26-29-betlar.
16. Lotte D.S. Osnovy postroeniya nauchno-texnicheskiy terminologii. M., 1961, s. 18-21.

17. Mamatov N. Paxtachilik terminlarining qisqacha izohli lug'ati. T., 1964.
18. Ma'rufov A. Paronimlar lug'ati, T., 1974.
19. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboeva Z. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. "Ma'naviyat", 2004.
20. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. "Tasvir", 2005.
21. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabieva D., Mirzaahmedov. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. "Ma'naviyat", 2005.
22. Nauchno-texnicheskaya terminologiya//Referativnaya informatsiya. 1973. №8, s. 5.
23. Nishonov P. Terminologiyada sinonimiya va unga yondosh hodisalar. T., Til va adabiyot ta'limi, 2009, 1-son, 63-66-betlar.
24. Pinxasov Ya.D. Hozirgi o'zbek adabiy tili (leksikologiya va frazeologiya), T., "O'qituvchi", 1969.
25. Po'latov I., Ahmedova H. Nutq madaniyatini shakllantirish usullari. T., 2008.
26. Po'latov I. Ona tili ta'limida innovasion o'yinlar//Pedagogik ta'lim, 2005, 3-son.
27. Rahmatullaev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. T., O'qituvchi, 1992.
28. Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., O'qituvchi, 2006.
29. Rahmatullaev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. T., O'qituvchi, 1980.
30. Rogojnikova R.P. Varianty slov v russkom yazyke. M., 1966.
31. Rogojnikova R.P. Sootnoshenie variantov slov, odnokorennых slov i sinonimov//Leksicheskaya sinonimiya. M., Nauka, 1967.
32. Sokolov O.M. Nekotorye voprosy morfemnogo var'irovaniya//Trudy Tomskogo universiteta. Tula, 1968.
33. Tachieva L. Liseylarning rus guruhlarida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'rganish. T., Til va adabiyot ta'limi, 2009, 2-son, 70-74-betlar.

34. Tilshunoslikka kirish. T., 1963.
35. Tolikina E.N. Sinonim i dublety?//Issledovaniya po russkoy terminologii. M., 1971, s. 88-89.
36. Toshaliyev I. O'zbek tilida paronimiya va paronomaziya. // O'zbek tili va adabiyoti, 1988, 1-son.
37. Toshaliyev I., Jo'raboeva M., Paronimiya hodisasiga doir. ToshDU ilmiy asarlar to'plami. Toshkent, 1975, 501-son.
38. Tursunov U., Rahmatullaev Sh. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili. T., 1981.
39. Urazbaeva Z.G. Variantivnost' slova v sovremennom bashkirskom literaturnom yazыke. AKD, Ufa, 1980.
40. Usmonova O'. Dubletlar haqida ba'zi mulohazalar//O'zbek tili va adabiyoti. T., 1968, 1-son.
41. Usmonov O. Til madaniyatining muhim masalalari//O'zbek tili va adabiyoti. T., 1970, 1-son.
42. Xudoyberganov Ravshan. O'zbek ismlarida variantdorlik ko'rinishlari//Til va adabiyot ta'limi. T., 2006, 2-son, 27-29-betlar.
43. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qung'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. T., O'qituvchi, 1983.
44. Shukurov Rashid. So'zning o'zak variantlarida yuz beradigan fonetik o'zgarishlar. T., Til va adabiyot ta'limi, 2006, 4-son, 32-35-betlar.
45. Shukurov R., Maraimov A. So'z variantlarining turli ma'nolardagi alohida so'zlarga aylanishi. "Til va adabiyot" o'qitishning dolzarb masalalari" ilmiy to'plam. T., "Fan", 2008, 45-47-betlar.
46. Shukurov R., Rahmatullaeva D. Narsa va hodisalarni farqlab atashda o'zlashtirma so'zlarda foydalanish. "Til va adabiyot" o'qitishning dolzarb masalalari" ilmiy to'plam. T., 2008, 47-48-betlar.
47. Shukurov R. So'z variantlarining leksik-semantik differensiasiyasi. T., "Fan", 2006.
48. O'zbek tilining izohli lug'ati. M., "Rus tili", I-II tom. 1981.
49. O'zbek tilining izohli lug'ati. T., I-II tom. 2008.

50. O'zbek tilining imlo lug'ati. T., 1976.
51. O'zbek tili leksikologiyasi. M., Fan. 1981.
52. Hojiev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. T., O'qituvchi, 1974.

Mavzu yuzasidan chop etilgan maqolalar ro'yhati

1. So'z variantlari va imlo masalalari.//Oliy ta'lim muammolari, T., "Fan va texnologiyalar", 2010 y. 19-24-betlar. (R.Shukurov bilan hamkorlikda)
2. So'z variantlari va unga yondosh til hodisalarini farqlashga doir.//Ta'lim va texnologiya. T., 2011 yil, 123-124-betlar. (R.Shukurov bilan hamkorlikda)